

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

FARMAKOLOGIYA VA KLINIK FARMATSIYA
KAFEDRASI

FARMAKOLOGIYA

(MA'RUZALAR MATNI)

TOSHKENT – 2017 YIL

Ma'ruza matni Toshkent farmatsevtika instituti Kengashining 2017 yil
“ ____ ” ____ dagi ____ sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası b.f.n., dots. Shilsova N.V.
Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası katta o`q. Yusupova D.A.
Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası katta o`q. Saydalieva F.A.
Farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrası katta o`q. Sultanova R.X.

Taqrizchilar:

A.V.Yakubov - Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Klinik farmakologiya

kafedrası mudiri professor, tibbiyot fanlari doktori
Z.R.Fayzullayeva - Toshkent farmatsevtika instituti Ekologiya va mikrobiologiya
kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari nomzodi.

ToshFarMI, farmatsiya fakulteti dekani:

2017 yil “ ____ ” ____ A.A.Nurmuxamedov

Farmakologiya va klinik farmatsiya
kafedrası mudiri:

2017 yil “ ____ ” ____ S.A.Saidov

1 – MA'RUZA

FARMAKOLOGIYA FANINING BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI. DORI VOSITALARI XAQIDA TUSHUNCHA. DORILARNING BOSHQA OMILLAR BILAN UZARO MUNOSABATI. DORILARNI DOZALASH.

Ma'ruza rejası:

1. Farmakologiya nima va u nimani o'rgatadi.
2. Farmakologiya fanining kelib chikishi va tarixi.
3. Farmakologiyani kelib chikishidagi O'rta Osiyo, xususan Uzbekiston xududida yashab ijod etgan allomalarning roli.
4. Farmakologiya fanining yo'nalishlari va uning vazifalari.
5. Farmakologiyani asosi va farmatsevtik farmakologiya provizorlarga nimalarni o'rgatadi.

Farmakologiya grekcha so'z bo'lib, "rharmacon"- dori, "logos" fan, o'rganuvchi iboralardan iborat bo'lib, odam va xayvonlar organizmiga dorilar yuborilgandan keyin unda ro'y beradigan o'zgarishlarni o'rganuvchi fandır.

Shu bilan birga farmakologiya dori moddalarini maksadga muvofiq yo'naltirish yo'li bilan sintezlab olish yo'lini ishlab chiqaruvchi fan xamdir.

Farmakologiya fanining kiskacha tarixiga nazar solsak, unga odamzod yaratilgan davrdanok asos solingan, chunki odamzod paydo bo'libtiki ular yirtkich xayvonlarga, yonqinlarga, turli tabiat xodisalariga (er kimirlash, toq ko'chish, suv toshish, bo'ron, dovul va.q.k) duch kelganlar, ularni ilon, chayonlar chakkan. Buning natijasida odamlar turli xil jaroxatlar olganlar va kasalliklar yuzaga kelgan. Bu jaroxat va kasalliklarni oldini lish va davolash uchunodamlar oldida 2 ta yo'l bor edi

1. Turli xil iloxiyatlar (kuyosh, oy, xaykallar, olovlar vab.k.) ga siqinish va ulardan najot izlash bo'lsa;

2. Uzlarini o'rab olgan tabiatdan (o'simliklardan, xayvonot olamidān, buloklar va minerallardan) shifo va dori-darmonlar izlash edi.

Mana shu ikkinchi yo'ldagi izlanishlar va erishilgan tajribalarini avloddan-avlodga o'tishi farmakologiya fanini kiskacha tarixini tashkil etadi. Eramizdan bir necha ming yillar ilgari turli manbalarda yozib koldirilgan dalillar bunga asos bo'ladi. Masalan, eramizdan 4 asr avval yozib koldirilgan "Ayur-Veda" nomli xind kitobi, "jud-Shi". nomli kitoblar papirus koqozlari xind va tibet tibbiyotini asosini tashkil etadi. Bu kitoblarda bir necha yuzlab dorivor o'simliklarni nomlari, botanik tarifi, ularni tayyorlash davri va usullari, ko'llanish yo'llari bayon kilingan.

Kadimgi yunon (grek) vrachlaridan Bukrot (Gippokrat), Dioskoridlar, rim xakami Jolius (Galen) lar dori-darmonlarning yaratilishi, ishlatilishi va dori moddalarga retsept yozish borasida katta ishlar kilganlar.

Bu o'rinda Gippokrat kasami, galenli preparatlarini yuzaga chikishini keltirib o'tish etarli bo'lsa kerak. Bular xozirgi kunda xam tibbiyotni, farmatsiyani va farmakologiyani asosini tashkil etadi. Bu dorilar asosan tabiiy yo'ldagi kuzatuvlar asosida tanlab olingan. Masalan: Gretsiyali vrachlardan Melami Argosakiy chemeritsani istimol kilgan echkilarda ichni ketishini kayd kilgan. Keyinchalik bu o'simlik (helleborus niger)insonlarda xam shu maksadda ishlatilaboshlangan. XI asrda arab cho'ponlari (abissinlar) kofe o'simligini istimol kilgan echkilarni kechalari uxlamay, chopib, sakrab va ko'zqaluvchan xolda

yurishini kayd etganlar. So'ngra bu ta'sirlar insonlarda xam tekshiruvdan o'tkazilgan. Umuman olganda xayvonlar o'z instinktiga muvofik ma'lum bir o'simliklarni tanlab istimol kiladi.

Albatta bunday dorilarni tanlab turmushga tadbik etish xar doim xam o'zini oklay olmagan. Ba'zan bir-biriga teskari ta'sirlar xam (bir o'simlik ustida) etirof etilgan. Lekin ming yillikli kuzatuvlar natijasida ma'lumo'simliklarga ma'lum kasalliklarga karshi istimol kilina boshlangan. Bunday tanlanishlar natijasida ba'zan zaxarli o'simliklar xam turmushga kirib kolgan. Kuzatuvlar natijasida bunday zaxarli moddalar dorilar safidan chikarib yuborilgan.

Yukoridagilarni inobatga olib eramizdan avvalgi vrachlar-tabiblar ko'yidagi afarizmni ko'p ishlatar edilar, ya'ni: "natura sanat, _medicus curat". Bu degani "bemorni tabiatni o'zi davolaydi, vrachlar esa unga yordam beradi", . deganidir. Chunki ko'pchilik kasallarni sababi bu davrlarda xali anik emas edi. Shunga yarasha bu kasallarni davolashda ishlatadigan dorilarni: giyoxlar, minerallar, suvlar va b.k. ta'siri to'qrisida xam anik ma'lumotlar yo'k edi.

Eramizdan 46 yil avval yashab ijod etgan grek olimi Gippokrat birinchilardan bo'lib, o'z davrigacha ishlatilib kelingan dorivor moddalarni ma'lum sistemaga soladi. Ungacha bo'lgan ma'lumotlarga karaganda kasalni kelib chikishida tanani tuzilishida ishtirok etgan to'rtta moddalarni (olov, suv, xavo va er) o'zaro munosabatini buzilishi katta rol o'ynaydi. Mana shu to'rtta moddaga yarasha bemorlarda 4 ta sifat belgilari yuzaga chikishi mumkin: ya'ni kuruk, namli, issik va sovuk belgilari. Shunga yarasha ishlatiladigan dorilar xam shu to'rt sifat belgisiga ega bo'ladi

Shu bilan birga Gippokrat fikricha tanadagi 4 ta soklarni (konni, slizlarni, sarik va kora o't-safroni) chikishini va sifatini o'zgarishi turli xil kasallarni yuzaga keltiradi. Shularni inobatga olib Gippokrat kasallarni dorilar davolaydi, dorilar ta'sir kilmaganiga temir ta'sir etadi, temir ta'sir etmaganiga esa olov ta'sir etadi deb xisoblaydi. Agar shular xam ta'sir etmasa, kasal umuman davolanmaydi deb o'ylaydi.

Eramizdan 13-2yil avval Gippokrat talimotini italiyalik(Rimda) olim Galen davom ettirdi. U kaslda kayd kilinayotgan belgilarga karama-karshi ta'sirga ega moddalar bilan davolash printsipini o'rtaga tashlaydi. Masalan: ich ketganga ichni kotiruvchi moddalar va boshkalar. Shuningdek u kasallarni shu kasalni o'ziga mos moddalar bilan("podobnoe podobno`mi"), belgilari bilan davolash kerak deydi. Shu yo'l bilan Galen farmakologiyada Galen preparatlarini yuzaga chikaradi va ular xozirgi kungacha uning nomi bilan ishlatilib kelinmokda.

Eramizning 5 yiliga kelib Rim imperiyasi inkirozga uchraydi va arablar xukumronligi kuchayib boradi. Tibbiyotda xam bu yunalish o'z ta'sirini ko'rsata boshlaydi.

Tibbiyotni, shu jumladan farmakologiyani rivojlanishida xozirgi Uzbekiston xududida yashab ijod etgan allomalarimiz xam o'ziga xos

xissa ko'shganlar. Bu o'rinda sharkning buyuk tabib va ulomalari ibn Abbos (997yilda vafot etgan)ni, Abu Bakr Ar-Roziy (925 yilda vafot etgan), . Abu Rayxon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolarni keltirishimiz mumkin.

Ibn Abbos yangi dorilarni avval xayvonlarda sinab kurishga;

Abu Bakr ar-Roziy esa, davolash, jarroxlik, farmakognoziya, farmakologiya va psixologiya ilmlariga yangi qoya va ixtirolar kiritishda, ayniksa "kasalliklar tarixini" birinchi bo'lib yuzaga chikarishdi. Abu Rayxon Beruniy-4,5 mingdan ortik o'simliklar, minerallar,

xayvonlar va ulardan olinadigan dorilar va ozukalarga izoxlar berishda shark xalklari tabobatining ilk manbalarini keltirganlar.

Uzigacha o'tgan barcha tabib va xakamlarning boy tajribalarini o'zining o'ta sinchkovlik bilan olib borgan kuzatuvlariga ko'shib jamlangan buyuk olim Abu Ali ibn Sino farmakologiyaga va uning rivojishiga juda katta xissa ko'shdi. Uning "Tib konunlari", "Kitob ush shifo" va "Kitob al - kalbiya" nomli asarlar nafakat Urta Osiyoda balki butun Evropada keyingi 5 asr davomida vrachlarni, farmatsevtlarni, farmakologlarni va umuman tibbiyot xodimlarini kundalik ko'llanmasiga aylanib kolgan edi.

Buyuk allomalarimizning ishlarini keyingi yillarda ularning shogirtlari va avlodlari davom ettirdilar va turli xil yangiliklar kiritdilar. Bularga Yusuf Iloxiyni, Ismoil Jurjoniy (18-1141)ni Umar Chagminiy (1221 yili vafot etgan)ni, Najibuddin Samarkandiy(1222-)ni,Muxammad Yusufiy (15y)ni,Davoiiy (155 yillar)ni, Sayyid Muxammad Xasrat-(1-yillar)ni, Shaxobitdin ibn Abdulkarim(14yillar)ni keltirish mumkin. Shunday kilib farmakologiya fani 19 asrgacha empirik yo'l bilan rivojlanib keldi, chunki bu davrgacha dorilarni bemorlarga ta'siri asosan kuzatuv yo'li bilan olib borildi.

19 asrdan boshlab eksperimental farmakologiya ilmiy farmakologiya rivojlana boshladi.

1849 yilda Buxgeym "eksperimental farmatsiyaga" rasmiy ravishda asos solgan, ibn Sino esa undan 1 yil avval asos solgan edi. Bunga Rossiyada Nelyubin, (farmatsevt xam midik-xirurg), Zabelin, Pelikan, Pavlov, Kravkov, Nikolaev, Anichkov, Zakusov, Mashkovskiy va boshkalar, Evropada esa Paratsels (16asr) va uning ishini rivojlantirgan Majandi, Klod Bernar, Shmideberg, P.Erlixlarni keltirish mumkin.

Uzbekistonda farmakologiya fani Toshkent tibbiyot institutining tashkil kilinishi, unda farmakologiya kafedrasini tashkil kilinishi, undan Urta Osiyo, so'ngra Toshkent farmatsevtika institutining tashkil kilinishi, 1986 yildan UzRFA. Usimliklar moddalar kimyosi institutini tashkil kilinishi bilan rivojlanib bordi. Bunda Markelev va N.N.Kompantsev (1893-1985), I.K.Kamilov (1999-1985), S.Yu.Yunusov, M.B.Sultonov, M.A.Azizov, O.S.Sodikov va boshkalarining roli kattadir. xozirgi kunda farmakologiya fani bo'yicha Respublikamizda 25dan ortik fan doktorlari va 1 dan ortik fan nomzodlari etishib chikdi. Natijada bir necha yangi dori moddalari kashf kilindi, ularni farmakologiyasi o'rganib chikildi va amaliy tibbiyotga tadbik kilindi.

Farmakologiya fanining yo'nalishi va uning vazifalari. Farmakologik moddalar-dorilar organizmning turli a'zolari, to'kima va xujayralarining funktsiyasini o'zgartirishi mumkin.

Dorilarni ta'sir doirasiga va ishlatilishiga karab uni turli xil yunalishlari kelib chikadi. Avvalo farmakologiya fani nazariy fanlar: fiziologiya, patologik fiziologiya, biologik kimyo bilan, xamda amaliy fanlar: terapiya, pediatriya, jarroxlik va boshkalar bilan chambarchas boqlangan. Shuning uchun xam farmakologiya orkali nazariy bilimlar amaliy tibbiyotdan o'rin oladi va kaysi soxa va yo'nalishda o'z ta'sirini ko'rsatishiga karab turli xil yo'nalishlarini yuzaga chikaradi: bioximik farmakologiya, klinik farmakologiya, immuno farmakologiya, molekulyar farmakologiya, xronofarmakologiya, veterenar farmakologiya va b.q.

Farmakologiya kaysi yo'nalishda bo'lishidan kattiy nazar uning an'anaviy va asosiy mazmunini vazifasini farmakodinamika va farmakokinetika tashkil etadi. Farmakodinamika deb dori moddalarining organizm bilan bo'ladigan turli xildagi ta'sirlarini o'rganishga aytiladi. Masalan: adr. kon bosimiga ta'siri va b.q.

Farmakokinetika esa dorilarning so'rilishini ularni va ular-ning metabolitlarini organizmdagi xarakatini, to'kima va suyuqliklardagi konts-yasini xamda ularning organizmdan chikib ketishini o'rganadi. Farmakokinetikaning ma'lum kismini biofarmatsiya orkali o'r-ganiladi va olingan ma'lumotlarni farmakologik-metodologik fikr-lash orkali yuzaga chikariladi.

Shu bilan birga farmakologiya dorilarning organizmga ta'sir mexanizmini o'rgatadi, xamda yangi dorilarni izlash, o'rganish va ularni turmushga tadbik etish yo'l-yo'riklarini o'rgatadi.

Farmatsevtika institutida va turli oliygoxlarning farmatsevtika fakultetlarida provizorlar tayyorlashda farmakologiyani o'ziga xos axamiyati bor. Buni boshkacha kilib farmatsevtik farmakologiya deb qam aytiladi. Farmatsevtik farmakologiya nimani o'rganadi:

1. Yangi dorilarni izlash, ularning maksadga muvofiq yo'naltirish yo'li bilan dorilar yaratishini nazariyalarini ishlab chikish; 2. Empirik yo'l bilan yangi dori moddalarini tanlashda skrinig (elakdan o'tkazish) usulidan foydalanib, oddiy va murak-kab-kompleks dori moddalarini farmakologik aktivligini aniklash. Ularning birlamchi spetsifik ta'sirini va ta'sir mexanizmini o'rga-nish.

3. Ishlatilayotgan dorilarning faoligini va organizm uchun zararsizligini va sifatini biologik (farmakologik) usullar bilan kontrol kilib turish.

4. Dorilarning ratsional ishlatish yo'lida xalkimizga va vrachlarga to'la konli yordam konsultatsiya beraoladigan provizorlar tayorlash.

5. Vrachlar yozgan retseptlarni kontrol kilaoladigan va uni lozim bo'lgan takdirda to'qrilash kobiliyatiga ega bo'laoladigan darajadagi provizorlarni tayyorlash kabi vazifalarni o'rganadi. Shunday kilib farmakologiya 2 bo'limdan iborat:

1. Umumiy farmakologiya.

2. Xususiy farmakologiya.

Umumiy farmakologiya farmakologiyani metadologiyasini, dori moddalari tufayli kelib chikadigan umumiy konun va koidalarni, yangi dorilarni yaratishdagi umumiy ko'llanmalarni, davolash va profilaktika uchun ishlatiladigan dorilarning kiyosiy kimmatini va ularning ko'llashini ratsional yo'llarini xamda farmakodinamika va farmakokinetikasini o'rganadi. Xususiy farmakologiya dorilarning organizmni organ, to'kima va sistemalarini ta'sir kilishini, ta'sir kuchini va ularning ta'sir mexanizmlarini, xamda gurux (tasnif) preparatlarining ishlatish usuli, dozasi, mexanizmi, nojo'ya ta'sirlari, birinchi yordam va ularning bir-biridan farklarini o'rganadi.

2 – MA'RUZA

DORILARNI BIRGA QO'LLASHDA KUZATILADIGAN O'ZGARISHLAR. DORILARNI METABOLIZMI, SURILISHI VA ORGANIZMDAN CHIKARILISHI. DORILARNING TA'SIR TURLARI

Ma'ruza rejası:

1. Dorilarning organizmga yuborish-kiritish yo'llari xakida tushuncha.
2. Enteral yo'l bilan yuboriladigan dorilarning so'rilishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Dorilarning so'rilishida biologik membranalarni roli.
4. Dorilarning spetsifik ta'sirlarini yuzaga chikishida turli xil biologik bar'erning roli.

Dori moddalarning so'rilish tezligi, kuchi va ta'sir muddatini organizmga kaysi yo'l bilan yuborilganiga va organizmni kay xolatdaligiga boqlikdir. Bemorlarning axvoliga, dorilarning fizik-kimyoviy xossalariga karab dorilar organizmga enteral va parenteral yo'l bilan yuboriladi.

1. Enteral usulga dorilarning oshkozon-ichak yo'li orkali yuborishga aytiladi: til ostiga, oqiz orkali, zond bilan 12 barmokli ichakka va to'qri ichakka xukna kilish.

2. Parenteral usulga dorilarni oshkozon-ichakdan tashkari yo'llar orkali yuborishga aytiladi. Teri orasiga, shillik kavatlarga, teri ostiga, bo'shliklarga, mushaklar orasiga, venalarga, arteriyalarga, orka miya kanaliga, suyaklar orasiga, yurak mushagiga, bo'qimlarga, ionaforezlar kiradi.

3. Ingalyatsion yo'l bilan nafas orkali yuborishga aytiladi.

Limfologiyani rivojlanishi ba'zi bir dorilarni limfa tomirlari orkali yuborishni takozo kiladi.

Til ostiga yuborilganda dori moddalari deyarli parchalanmaydi, chunki ularga me'da ichak fermentlari ta'sir etmaydi, dorilar jigarga xam bormay umumiy ta'sir ko'rsatadi. (nitroglitsirin, validol, metiltestosteron, pregnin va boshkalar). Umuman bu yo'l bilan suv va yoqlarda yaxshi eruvchan moddalar ishlatiladi.

Me'dada: asosan spirt va spirtida tayyorlangan moddalar yaxshi so'riladi, xamda yoqlarda eruvchi moddalar xam keng ko'llaniladi. Ko'pchilik oqiz orkali berilgan moddalar ingichka ichakda yaxshi so'riladi. Ichak shillik pardasini satxi 2 m 52 sm ni tashkil etadi.

Xazm kilish protsessiga ta'sir etuvchi fermentlar, soklar va boshka BAM dorilarning parchalanishiga xam sababchi bo'ladi. Masalan: polipeptidlar oshkozonda gidrolizga uchrab parchalanadi. Shuning uchun quruq pituitrin oqizga emas burunga purkaladi (adiurekrin xolida).

Me'da-ichak yo'llarini shillik pardasiga salbiy ta'sir etuvchi dorilar (masalan: aspirin, rezerpin) ovkatdan keyin beriladi.

Ovkatdan keyin beriladigan dorilar ist'emol kilingan ovkatlar va me'da shirasi bilan (5% NCLQpepsin) aralashib ketadi. Demak me'dada kislotali muxit (rNq2,-4,) xukm suradi. Dori moddalari ovkat bilan aralashgan xolda 12bG`ichakka o'tadi. Bunda ovkat bilan turli xil fermentlar, ximik moddalar xam o'tadi. Natijada dori moddalar turli xil o'zgarishlarga uchraydi. Shuning uchun xam ba'zan dorilarni me'da shirasi ta'siriga uchramasligi uchun ichiladigan tabletkalarni xar xil kislotaga chidamli kobiklarga

o'raladi. Bu dorilar oshkozonidan o'tib 12bG`ichakda kuchsiz ishkoriy muxitda (rNq8-8,5)eriydi va o'z ta'sirini kursatadi. Bu erda oshkozon osti bezining fermentlari, ichak bezining fermentlari va o't safrolar o'z ta'sirini ko'rsatadilar Natijada dorilar bu erda oddiy birikmalargacha parchalanadilar. Masalan: geksametilentetromin formalin va amiakka parchalanadi. Glikozidlar to'la va kisman parchalanadi, aktivligi kamayadi, shuning uchun ularni ovkatdan keyin berib bo'lmaydi.

Ovkatdan so'ng yoqda eruvchi va anorganik preparatlarni, tuzlarni berish mumkin. Dorivor moddalarni och koringa erta bilan va ovkatdan oldin ist'emol kilgan ma'kulrokdir. Chunki, bu vaktida me'dada va ichakda (uning yukori kismida) ovkat moddalari bo'lmaydi, shunga yarasha xazm protsessida ishtirok etadigan soklar xam bo'lmaydi. Shuning uchun istimol kilingan dorilar oshkozonidan ichakka o'tib, erib so'rilib bo'ladi.

Me'da va ichak shillik kavatini kitiklamasligi uchun uni sut, kraxmalli eritma yoki 1G`3 -1G`2 st suv bilan ichiladi .

Dorilarni ta'sir muddatini oshirish uchun ko'p qavatli kapsulalarda chikariladi. Ular asta – sekin parchalanib chikadi va asta-sekin ta'sir etadilar. Masalan : tardiferon yoki ferro-gradument.

To'qri ichakka yuborilganda so'rilgan dorilar vena qoni bilan jigarga tushmasdan to'qridan - to'qri umumiy qon sistemasiga o'tadi va o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun xam dorilarni ta'siri xuddi mushaklar orasiga yuborilgandagidek tezlik bilan ta'sir etadi va 5-15 min ichida qonda dorilarning terapevtik konts-yasi paydo bo'ladi. Bu usulda yuborilgan dorilar OIS-dagi fermentlar ta'siriga xam uchramaydi.

Dorilarni ta'sir vaktini oshirish uchun to'qri ichakka yuboriladigan dorilarni pilyula, pasta, maz va suspenziya xollarida chikariladi.

To'qri ichakka dori yuborilganda ularning xajmi 5 -75 ml oshmasligi kerak va yuborishdan avval 37-38 5 S gacha kizdirilishi lozim. Temperaturasi past bo'lsa ichakdan chikarib yuborish bilan boqlik refleks ishga tushadi. Bu usulga kizikishni ortishga sabab dorilarni biologik filtratsiya protsessidan o'tishidir. Chunki dorilar so'rilgach, undan indefrent moddalar organizmdan tez chikib ketadilar.

Bolalarda bu usulni ko'llash mantiqqa moil bo'lib, xajmi bola yoshiga yarasha 5 – 1 – 2 ml gacha bo'lishi mumkin.

Dori moddalarining oshkozon-ichak sistemasiga tushib, murakkab biologik membranalaridan o'tishiga dorilarning so'rilishi deyiladi. Bu protsess murakkab fiziologik jarayon xisoblanadi. Chunki biologik membranalar yarim utkazuvchan bo'lib, ba'zi bir moddalarni yaxshi o'tkazadi, ba'zilarini esa o'tkazmaydi. Ichak epiteliysi fakat bir tomonlama o'tkazuvchan bo'lganligi uchun odatda dorilar kon va limfadan ichak bo'shliqiga kaytadan o'ta olmaydilar. Umuman so'rilish jarayoni:

- 1.Sekinlik bilan singish-sust diffuzlanish;
- 2.Oson filtirlanib singish-oson diffuzlanish;
- 3.Faol xolda tashish yo'li - aktiv transportlanish;

4.Pinatsitoz va fagatsitoz tufayli yuzaga chikadi. Bunda invaginatsiya (pufakchalar) xodisasi ruy beradi, ya'ni bu yo'li bilan kiruvchi dorilarni tashuvchi xujayralar membranasi oldin shishadi, so'ngra vakuolalar xosil kilib dorilarni o'ziga qamrab oladi va xujayra ichiga olib kiradi.

Parenteral yo'l bilan eng ko'p dorilar teri ostiga , mushaklar orasiga va vena tomirlariga yuborish bilan amalga oshiriladi.

Albatta eng kup dorilar konts-yasi ularni vena orkali yuborilganda kayd etiladi . Dorilarni ta'sir vaktini uzaytirish uchun suvda yaxshi erimaydigan dorilarni (vzves),yoqlarda yoki boshka erituvchi bularda eritib mushaklar orasiga yuboriladi.

Ammo teri ostiga va mushaklar orasiga maxalliy ta'sirga ega preparatlarni yuborib bo'lmaydi. Masalan : CaCL 42 1% eritmasini, chunki u nekroz chaqiradi.

Vena yoki arteriyalarga dorilarni sekinlik bilan ba'zan tomchilab yuboriladi. Lekin yoqda erigan yoki yomon eriydigan preparatlarni, xamda vena devorini kitiklovchi, qon kuyilishini kuchaytiruvchi yoki gemolizni yuzaga chikaruvchi preparatlarni venaga yoki arteriyaga yuborib bo'lmaydi.

Shu bilan birga bu usullaridan foydalanilganda dorilar yuborishni o'ziga xos kiyinchiliklari bor. Masalan: tibbiyot mutaxasstslar bo'lishi zarur buladi, preparatlar albatta sterillizatsiyalangan bo'lishi kerak, bu usulda o'ziga xos oqrik chakirish xolatlari kayd etiladi.

Ba'zi bir zararli shishlarni davolashda va rengenokonstrast preparatlarni yuborishda ularni arteriyaga to'qridan-to'qri yuboriladi.

Orqa miyaga yuborish xam o'ziga xos talablarga boqlik: orka miya suyukligini bosimini o'zgartmaslik, yukori konts-yada yuborish, yuborish texnikasining qiyinligi va x.k. Masalan: 5-1 ml orka miya suyukligi tortib olinib, shuncha xajmda dori yuborish. Shu yo'l bilan orka miya anesteziyasini yuzaga chikarish mumkin.

Ingalyatsiya yo'li bilan yuborilganda dorilar juda tez kongga o'tadi, chunki o'pkani satxi katta 7-1m 52 -ni tashkil etadi. Shu bilan birga dorilar to'qridan-to'qri kongga o'tadi, ularni kondagi konts-yasini nazorat kilib borish mumkin (Masalan: gazsimon narkotiklarni konts-yasini). Bunda nafas xajmi, kon aylanishni tezligi va alveolalarni sirt aktivligi katta rol o'ynaydi.

Dorilarni so'rilishida va ularni jaroxatlangan organlarga etib borishida turli xil biologik bar'erlar xam muxim rol o'ynaydi. Bunday bar'arlarga kapillyarlar devori, tukima - plazmatik membranalar, gematoentsefalik va platsentar (bachadondagi yo'ldosh) bar'erlar kiradi. Kapillyarlar devoridan suvda eruvchi dorilar engil o'tadi, lekin kon plazmasini oksillari va ularni dorilar bilan tashkil topgan komplekslari o'ta olmaydi.

Gematoentsefalik bar'erlar orkali yoqda eruvchi moddalar engil o'tadi. Ammo miyani shunday gematoentsefalik bar'erli bo'limlari, borki (Masalan: gipofizni bo'limlari) unday joylarda yoqda erigan moddalar xam yaxshi uta olmaydi: Ammo lekin miyani yalliqlanishida gematoentsefalik bar'arlarni o'tkazuvchanligi oshib ketadi.

Shuningdek organ yoki to'kimalarni kon bilan ta'minlanishi xam preparatlarni bu organlarga o'tishida va ma'lum bar'arlardan o'tishida o'ziga xos rol o'ynaydi. Masalan: eufillin, kofein va boshkalar ta'sirida preparatlarni miyaga o'tishi ancha engillashadi. Xuddi shunga o'xshash xolatlar platsentar bar'arlarda xam kayd etiladi. Lekin undan turtlamchi ammoniy tuzlari o'tmaydi.

3 – MA'RUZA

DOZA VA UNING AXAMIYATI. DORILAR TA'SIRINING TURLARI **Ma'ruza rejasi:**

1. Doza va ular xakida tushuncha.
2. Dozaning turlari va ularning farmakologik ta'sirni yuzaga chikishidagi roli.

3. Dori moddalarining ta'sir turlari ustida kiskacha tushuncha.

Dorilar organizmga kaysi yo'l bilan kiritilsin, ularning farmakologik ta'siri ishlatilayotgan dorilarning tanadagi, tuqimalardagi yoki teri ustidagi konts-yasiga boqlikdir. Bemor tanasi yoki uning ma'lum kismlaridagi dorilarning biz xoxlagan darajadagi kontsentratsiyasini yaratish dorilarning dori formasiga boqlikdir.

Masalan: teriga, yaralarga dorilarni eritma formasida ishlatilgan (primochka va x.k.) shu erda dorini yukori konts-yasini tashkil kilish mumkin. Agar shu dorini yumshok dori formalarida (malxam, emulsiya va plastir formani) ishlatilsa, yara yoki teriga tegib turgan dori molekulalarining mikdori kam bo'lib u erda yukori konts-ya tashkil kilolmaydi. Shuning uchun xam bunday xollarda yumshok dori formalari yukori konts-yalarda ishlatishga to'qri keladi.

Yana misol: enteral yo'l bilan yuborilgan dorilar, me'da, ichaklarda parchalanib, ovkatlar bilan aralashib, organizmga so'rilib o'tishi susayadi.

Parenteral yuborganda esa yuborilgan dorilarning organizmdagi konts-yasi enteral yuborganga karaganda yukori buladi. Shuning uchun dorilarning enteral yuborgandagi mikdori (dozasi), parenteral yo'l bilan yuborilgandagidan biroz yukori buladi. Demak organizmga yuborilayotgan dorilarning farmakologik ta'siri ko'p jixatdan ularning dozasiga boqlikdir. Doza deb dori moddalarining ma'lum mikdoriga aytiladi. Dozalar:

- I. Kichik (parogli) doza;
- II. o'rtacha terapevtik doza.
- III. Yukori terapevtik doza.
- IV. Zaxarli doza .
- V. O'ldiruvchi doza.

Terapevtik dozalar yana 3 kismga bo'linadi:

- 1 . minimal terapevtik doza
2. o'rtacha terapevtik doza
3. Maksimal dozaga (eng yukori ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi doza) bo'linadi.

O'rtacha ta'sir ko'rsatuvchi doza maksimal terapevtik dozaning $1g^3 - 1g^2$ qismini tashkil qiladi. Bemorning xolatiga qarab dorilarning porogli, o'rtacha, yuqori dozalarda ishlatish mumkin.

Dorilarning parogli dozasidan uning maksimal dozasigacha bo'lgan oraliqni dorilarningi terapevtik kengligi deyiladi. Ularning terapevtik dozasi bilan busaqa dozasi o'rtasidagi nisbat terapevtik indeks deyiladi..

Penitsillin M.T.D.q 1; P.D.q 1 T.I.q 1 Terapevtik kenglik va indekslar qanchalik keng bo'lsa shuncha kam zaxarli bo'lib ularni ishlatish shunchalik xavotirsiz bo'ladi.

Farmakologik izlanishlarda, tajribalarda dorilarni xayvonlarda 50 % va 100% o'lim chaqiruvchi dozalari xam aniklanadi. Bu LD 50 va LD 100 deyiladi.

Bemorlarni davolashda dorivor moddalarni organizmda uzok vakt ichida ma'lum kontsentratsiyada saklab turishga to'qri keladi. Shuning uchun dorilarni :

1. Bir marta beriladigan
2. Bir sutkada beriladigan (kundalik) va
3. Dovolash kursi davolashda beriladigan dozalari xam kayd etiladi.

Ba'zi bir dorilarni terapevtik ta'sirini olish uchun ularni organizmga yuborishda birlamchi katta dozalarda (udarniy doza) berishga to'qri keladi Masalan: antibiotiklarda, sulfanilamidlarda va x.k. Xamma farmatsevtik spravochniklarda dorilarni maksimal

terapevtik dozalar keltirilgan. Undan o'rtacha terapevtik dozalarni topish uchun ko'rsatilgan dozalarni 2 ga yoki 3 ga bo'lish kerak bo'ladi.

Masalan: Analgin MD-1gr. td - 1: 2 q ,5 gr yoki 1:3 q ,33 gr.

qariyalar uchun terapevtik dozani 2 ga bulib, so'ng beriladi.

Masalan analginni tdq 5; qariyalar uchun 5: 2 q ,25 gr. Bolalar uchun o'ziga xos kerakli dozalarni chikaruvchi formulalar bor. Bolalarda bolalarni massasi yoshi, tana satxini xajmi kabi ko'satkichlar aloxida axamiyatga ega bo'ladi.

Shu ko'rsatgichlarga karab kaysi yoshda yoki massada kancha dori istimol qilinishi kabul kilinayotgan dorilarning annotatsiyalarida anik ko'rsatib o'tiladi.

Masalan: bola yoshiga karab kancha mikdorda dori kabul kilishni ko'rib chikamiz:

1 yoshgacha 1/24 (kattalarga beriladigan dozaning 24 dan 1 beriladi).

2.yoshda 1/12

3.yoshda 1/8

4.yoshda 1/6

6.yoshda 1/4

8.yoshda 1/3 .

12.yoshda 1/2

18.yoshda 3G`4 beriladi.

Dori moddalarining ta'sir turlari:

1. Maxalliy ta'sir dorilarning konga so'rilguncha ko'rsatgan ta'siridir. Preparat kaerga yuborilgan bo'lsa, uning ta'siri o'sha joyda yuzaga chikadi. Maxalliy ta'sir patologik protsesslar terida, ko'z, burun, oqiz va OIS-ning shillik kavatlarida, ba'zi bir organlarni o'rab olgan kobiqida (plevra ,bryushina), siydik, koni va b. yuzaga chikadi . Mana shunday xollarda dorilar to'kimalarni yuzasiga ta'sir ettiriladi va maxalliy ta'sir ko'rsatadi (malxam,suspenziya, eritmalar va mayda kukun xolida).

Dorilarning maxalliy ta'sirini orttirish uchun ba'zan ularning konts-si ko'tariladi (3,5, 1, 3%), ularni to'kimalardan o'tish protsesslarini tezlatuvchi oshiruvchi moddalar ko'shiladi (dimetilsulfaoksid va b.q.)

Yaralar va jaroxatlar avval antiseptik va dezinfektsiya xususiyatiga ega preparatlar bilan yuviladi tozalanadi, so'ngra malxam va boshka dori formalari ishlatiladi.

Ko'zga va burun shillik pardalariga dorilarni maxalliy ta'siri o'rganilganda ko'zga tomiziladigan tomchilari mikdori (2 tomchidan) oshmasligi kerak. Burunga tomiziladigan tomchi yoki aerezollarni maxalliy kitiklash (ammiak eritmasidan boshka) ta'siriga ega bo'lmasligi (aksa urish va kayd kilish reflekslarini chakirishi mumkin) kerak.

Orka miya suyukligiga dorilarni maxalliy ta'sirini o'ziga xos tomonlari borligiga axamiyat berish kerak. Chunki bu suyuklikka ayrim dorilarni K Q tuzlarini yuborib bo'lmaydi (ular miya va nafas markazlarini paralichlab ko'yishi mumkin).

Lozim bo'lganda ma'lum organlarning o'ziga dorilarni yuborish bilan u erdagi kasalliklar davolanadi. Buning uchun dorilar shu organlarning arteriyalariga to'qridan-to'qri yuboriladi, ba'zan xavfli shishlarda organni ichiga in'ektsiya kilishga to'qri keladi.

Shuningdek yalliqlangan bo'shliklarga (gaymarov, ichki kulok), kapsula bilan o'ralib kolgan organ bo'shliqlarga dori va antimikrob moddalarni eritmalar

yuboriladi. Shu xollarni xammasida ishlatilgan dorilar o'zlarini nisbatan ko'prok maxalliy ta'sirini ko'rsatadi.

2. Rezorbtiv ta'sir – dorilarni konga so'rilib keyin ko'rsatadigan ta'siri. Dorilar kaysi yo'l bilan ishlatilmasin ular organizmga bevosita va bilvosita ta'sir kursatishi mumkin.

Dorilarning xasta a'zolarga to'qridan-to'qri ta'siriga bevosita ta'sir deymiz. Uning asosiy ta'siridan boshka ta'sirlarini bilvosita ta'sir deymiz.

Masalan : yurak glikozidini yurak mushaklariga ta'siri bevosita ta'sir bo'lsa, uning peshob xaydash ta'siri bilvosita ta'sir buladi yoki kon aylanishini yaxshilanishi xisobiga nafas yaxshilanadi. Jaroxatlangan organ va to'qimalarga yuborilayotgan dorilar kon orkali etib boradi. Buning uchun ular konga etarli mikdorda so'rilishi kerak. Vena orkali xamma eruvchan dorilarni va etanolni 3% eritmasini borishi mumkin.

Kuchli ta'sirga ega dorilarni avval NaCl yoki glyukoza eritmalarida suyultirib so'ngra sekin yuboriladi (1-2ml 1min), kuchli ta'sirga ega emaslarini esa 2-4 ml 1min yuboriladi.

In'ektsiya bilan yuboriladigan dorilarning asosiy kamchiligi ularning biologik filtratsiyadan o'tmasligidir. Bunda in'ektsiya uchun yuborilayotgan eritmaga ma'lum sabablar bilan tushib kolgan (tayyorlashda, sterilizatsiyada, shpritsga olishda va x.k.) indeferent moddalar va mikroblar xam konga, organizmga o'tib ketishi mumkin. Dorilarni konga so'rilish tezligi kuyidagi xolatda bo'ladi. $aG^i > vG^i > brG^i > mG^o > tG^i > tG^o$ va x.k.

Dorilarning organizmga ta'siri avvalo ularning organizmdagi retseptorlarga va to'qimalarga ta'siridan boshlanadi. Keyinchalik bu ta'sir to'qimalardagi bioximik va biofizik protsesslarda davom etadi, natijada organ va tukimalarning funktsiyasida o'ziga xos o'zgarishlar yuz beradi. Bular jamlanib butun organizm funktsiyasini buzishi mumkin.

Dori moddalarini retseptorlarga, xujayra va to'qimaga ta'sirini birlamchi farmakologik ta'sir deymiz. Dorilar xujayrada kuzatiladigan tabiiy protsesslarni u yoki bu tomonga o'zgartirishi mumkin: Ya'ni to'qima va xujayradagi protsesslarni tormozlaydi, yoki qo'zqatadi, yoki ularni bir-biriga moslashtiradi .

Shuning uchun xam birlamchi farmakologik reaksiyalar asosida tuqimalarda o'tadigan biofizik, ximik, bioximik va fiziologik protsesslarni oshishi yoki kamayishi yotadi. Bu protsesslarni yuzaga chikishida dori moddalarini to'kima va xujayrani o'rab olgan plazmatik membrana va ular ichidagi membrana kobiqlari bilan o'zaro mulokati katta rol o'ynaydi. Bu biologik membranalar bilan endogen (gormon, mediatorlar, FAM) va ekzogen (dorivor moddalar) moddalar mulokatda bo'ladi.

Ekzogen dorivor moddalarining organizmni biologik membranalari bilan boqlanishi turli xilda bo'ladi:

1. Kovalentli boqlanish; (eng kuchli boqlanish).
2. Vodorodli boqlanish;
3. Van-der-vals boqlanish;
4. Ionli boqlanish;
5. Ion-dipol munosabati bo'yicha.

3. Reflektor ta'sir dorilarni shillik kavat va boshka yo'llar bilan ishlatilganda nerv retseptorlarini ko'zqatish bilan yuzaga chikadi.

Masalan: achchik moddalar oqizga tushgach refleks yo'li bilan oshkozon shirasini ajralishi oshib ketadi. Kurish yoki eshitish bilan so'lak ajralishi kabi ammiak pari burunga ta'sirlansa nafas va kon tomir markazlari qo'zqaladi.

4. Asosiy ta'sir dori moddalarining birinchi bulib, yuzaga chikadigan ta'siridan iboratdir. qo'shimcha ta'sir boshka organ va sistemalarga ta'siridan iborat bo'ladi.

5. Nojuya ta'sirlar dorilarning asosiy ta'siridan tashkari boshka a'zo va organlarda turli xil nojuya ta'sirlar keltirib chikarishi mumkin: Disbakterioz-ichak mikroorganizmlarining tabiiy tarkibini buzilishi, foydali (saprofit) floraning xalok bulishi natijasida, zararli bakteriyalarni rivojlanishining avj olishi. Bu xolat asosan ojizlanib kolgan va tolikkan bemorlarda, surunkali kasalliklardan sung, ba'zan kortikosteroidlar , antibakterial dori preparatlari bilan davo kilish okibatida ruy beradi. Kandidamikozlar-muolaja davomida keng kulamli antibiotiklarni (tetratsiklin, levomitsetin va b.) uzok muddat kabul kilish okibatida, ichak shillik pardasida kandida turiga xos bulgan zamburuglarni avj olishi natijasida ruy beradigan kasallik. Teratogen ta'sir-xomiladorlik davrida ayrim dorilarni iste'mol kilish bu ta'sirga sababchi bulishi mumkin (teratos-kaboxat degan suz). 1961 yilda xomilador ayollar tolidamid preparatini (tinchlantiruvchi, uxlatuvchi ta'sirli) kabul kilish okibatida xomilaning turli jismoniy kamchiliklar-nogironlik bilan tugilishi aniklangan. Shu davrdan boshlab dorilarning bu ta'siriga e'tibor karatildi va bir kator tadbirlar kuriladigan buldi. Jumladan, xomiladorlikni birinchi uch oyligida dorilar tavsiya etilmaydi, keyingi davrda (2-yarmida) dorilarni kullash teratogen ta'sir bermasa xam ayrim a'zolar faoliyatini buzishi mumkinligi sababli dorilarni iste'mol kilish cheklanishi va b. Shuning uchun xomilador ayollarga zaruriyat tugilgandagina dorilarni kichik dozada va kiska muddatga tavsiya etiladi. Teratogen uzgarishlar nasldan-naslga utmaydi. Embriotoksik ta'sir-ona tuxum xujayrasi uruglanishining boshlangich davrida kabul kilingan dori ta'sirida yuz beradi. Bunda uruglangan xujayraning bachadon shillik pardasiga yopishish (implantatsiya) jarayoni (1-2 xafta) va yuldoshni xosil bulishi (3-6 xafta) buzilib, embrionning uz-uzidan tushib ketishi (abort) kuzatiladi. Mazkur xolat dorilarni katta dozada iste'mol etilganida bulishi mumkin. Ular bachadon shillik kavatiga utib, embrionga surilganida yuz beradi. Abort kuzatilmasa, embriotoksik ta'sir teratogen ta'sirga asos bulishi mumkin. Mutagaen ta'sir-genetik ta'sir (mutatio-uzgarish, genos-avlod).erkaklar yoki ayollar tomonidan gonadogenez yoki embriogenez davrida dori vositalarini kabul kilish tufayli yuz berishi mumkin. Bu ta'sir okibatlari nasldan-naslga utishi mumkin. Xavfli usmalarga karshi kullanadigan preparatlar ta'sirida DNK tuzilishining uzgarishi mutagen uzgarishlarga sabab bulishi mumkin. Blastomogen (kantserogen) ta'sir (blastoma-xavfli usma)-bunday ta'sirni yuzaga chikishi ayrim kimyoviy moddalarning uzok muddat davomida ishlatilishi natijasida kuzatilishi mumkin. Masalan, tamaki tarkibidagi nikotin, benzopirin, bundan tashkari nitrozaminlar, nitrobirikmalar saklovchi moddalar-dori preparatlari ma'lum sharoitda xavfli usmalarga sabab bulishi mumkin yoki ularni rivojini tezlashtirishi mumkin.

6. Tanlab ta'sir ko'rsatuvchi moddalar: Yurak glikozidlari miokardga, oksitotsin bachadonga, adrenalin adreoretseptorlarga.

7. Asliga qaytuvchi va asliga qaytmas ta'sirlar. Ko'pchilik dorilarning ta'siri birmuncha vakt o'tishi bilan kaytib ketadi va a'zo-tukimalarni fiziologik xolati o'ziga kaytib keladi. Bunday ta'sirlarga asliga qaytuvchi ta'sir deyiladi. Ba'zan dorilar ko'prok berilganda yoki uzok muddatga berilsa a'zo va tukimalar xolati jiddiy o'zgarishga uchraydi, bunday ta'sirlarga asliga qaytmas ta'sir deyiladi. Masalan: oqir tuzlarining kuchsiz eritmalari burushtiruvchi ta'sir kursatadi va organ o'z asliga kaytib keladi, ularning yukori konts-yasi tukmalarga kuydiruvchi ta'sir etib organ o'z xoliga kaytib kela olmaydi. Bunga qaytmas ta'sir deb aytamiz.

8. Zaxarli ta'sir. Ba'zi dorilar notuqri qo'llash natijasida organizmga zaxarli ta'sir kursatadi.

4 – MA'RUZA

DORILARNING TA'SIR TURLARI. NOJO'YA TA'SIRLARI. DORILARNI BIRGALIKDA VA TAKROR QO'LLASH OQIBATLARI.

Reja

1. Tasir turlari.
2. Dorilarni birga qo'llash masalalari
3. Dorilarni takror ishlatish va unda dorilar ta'sirini o'zgarishini o'ziga xos xususiyatlari.

Ma'lumki, dorining ta'siri ko'pincha ekzogen va endogen omillarga boqlik bo'ladi. Ekzogen omillarga dorilarning turi, formasi, komponentlari, psixologik faktorlar, dieta, nervno-psixologik xolati, meteorologik xolatlar, yilning fasllari va muxitdagi magnit maydonining xolatlari kiradi.

Endogen omillarga organizmni xolati, yoshi, jinsi, sezuvchanligi, reaktivligi va b. kiradi. Masalan: bolalar va kariyalarda dorilarga nisbatan sezuvchanlik bir necha barobar yukoridir.

Jinsi lab-ya kalamushlarining erkaklarining nikotin, strixnin, streptotsid, va barbituratlarga bo'lgan sezuvchanligi urqochilaridan 1,5 barobar balanddir. Ayollarda alkagoldegidrogenaza fermenti erkaklarga nisbatan 1,5-2 barobar kam ishlab chikariladi...

Fasllar. Jenshenni jinsiy gormonlarga ta'siri kuzda va kishda baxor va yozga nisbatan 1,5-2 barobar aktivrok ko'rinadi.

Gr. O'tuvchi radiatsiyadan sung kofeinni organizmga ta'siri teskari bo'lib koladi. Kofein MPS qo'zqatish o'rniga tormozlanish protsessini kuchaytirib uyku xolatini yuzaga keltiradi.

Ergotamin va serotonin tashki muxitdagi xarorat t-ra: 3 . 5 S dan yukori bo'lsa, kalamushlarda gipertermiya chakiradi, agarda 3 . 5 dan past bulsa shu kalamushlarda gipotermiya chaqiradi.

Turi:Dengiz chuchqalarini gistaminga nisbatan sezuvchanligi lab-ya kalamushidan 2 barobar ko'prokdir.

Xayvonlarni turiga karab xam dorivor moddalar turlicha ta'sir etishi mumkin. Masalan: tovuqlar strixninni zaxarli dozalarini, kuyonlar esa atropinni bemalol o'tkazadilar; yoki oq sichkonlarga oddiy sabzi zaxarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xronofarmakologiya farmakologiyadagi yangi yo'nalish bo'lib, bunda dorilarning organizm bilan o'zaro munosabatini yilning fasliga, kunning vaktiga karab o'zgarishini o'rgatuvchi farmakologiyani bir bo'limiga aytiladi.

Xronofarmakologiyada bemor bioritmlarining kay darajadaligi katta ahamiyatga egadir. Chunki odamlarda va bemorlarda yilning fasli va kunning vaktiga karab bioritmlar turlicha bo'ladi.

Xar bir odamda, uning tukima, organ va sistemalarda aloxida vakt va davrlar bo'ladiki, unda uning biologik aktivligi eng yukori darajada kayd etiladi. So'ngra bu aktivlik davri yoki vakti susayadi va uning aktivligini oshirish uchun ma'lum vakt kerak bo'ladi. Bu narsa odamning genetik, funktsional va patologik xolatiga boqlik. Shuning uchun xam odamlarning bioritmi xolati uning akrofaza (eng yukori aktivlik davriga) va minifazasiga (eg past aktivlik davriga) boqlikdir.

Bemorlarga beriladigan dorilar xam shu fazalarga karab turlicha ta'sir etadi. Akrofazada qo'zqatuvchi, kuchini oshiruvchi dorilarga nisbatan, minifazada esa tinglantiruvchi va uxlatuvchi dorilarga nisbatan sezuvchanlik oshib ketadi. Garmonlar aksariyat qo'zqatuvchi moddalar bo'lgani uchun akrofazada ko'proq ajraladi.

Organizmni dorilarga nisbatan sezuvchanligini yilning fasliga va kunning vaktiga qarab o'zgarishiga xronoesteziya, reaktivligini o'zgarishini xronoergiya deyiladi.

Yukoridagi xolatlar organizmda o'ziga xos o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Natijada: xronofarmakodinamika va xronofarmakokinetika yuzaga chikadi.

Kishi o'z xayotida, turmush tarzida va ish jarayonida o'zi uchun optimal bioritm xolatini yuzaga chikaradi. Bu vakt o'tishi bilan mustaxkamlanib boradi va ma'lum bir maqomga tushadi. Agarda shu xolat o'zgarsa, u odamning bioritmi xam buziladi.

Masalan: boshka erga borganda, ruzada, kunduzgi ish o'rniga kechki smenaga o'tganda aktofaza bilan minifaza o'rin almashinib koladi va butun organizmdagi fiziologik protsesslarni o'zgartishga to'qri keladi.

Bunday xolatlarda adaptogen preparatlar aloxida rol o'ynaydi. Bu xolatda modda almashinuviga ta'sir etuvchi va membranalarni mustaxkamlovchi moddalar ishlatiladi.

Dorilarni kayta qo'llash okibatlar. Dorilarni kayta yuborilganda ularning ta'siri zurayishi yoki susayishi mumkin. Biron-bir dorini uzok muddat davomida qo'llanilganda dorilarning terapevtik ta'siri susayib borsa organizmni bu dorilarga o'rganib kolishi yoki tolerantlik deyiladi.

Bunda ba'zan dorilarning so'rilishi kamaymshi, metabolizmi oshib ketishi, organizmdan chikib ketishini tezlashishi, ba'zan esa shu dorilar ta'sir etuvchi retseptorlarni sezuvchanligi kamayishi mumkin. Dorilar kiska vakt ichida takror-takror qo'llanganda ularning ta'sirini kamayishiga taxifilaksiya deyiladi. Masalan: efedrinni ketma-ket organizmga yuborilsa, uning qon bosimiga bo'lgan ta'siri susayib ketadi. Ba'zan esa organizm dorilarning ta'siriga nisbatan yukori darajada sezuvchanlik bilan javob beradi. Bunga sensibilizatsiya deyiladi. Ba'zan organizm ba'zi bir dorilarga nisbatan atipik-noto'qri reaksiya beradi. Bunga idiosinkraziya deyiladi. Bu xolat kupincha genetik faktorlarga boqlik bo'ladi.

Ba'zan dorilar organizmda asta-sekin to'planib yiqilib koladi va ularning ta'sir muddati va kuchi oshib ketadi. Bunday xolatga kumulyatsiya deyiladi. Kumulyatsiya 2 xil buladi:

1. Moddiy-material kumulyatsiya (yurak glikozidlar, neodikumarin).
2. Funktsional kumulyatsiya (etanol, uni neyrotrop ta'siri).

Ba'zi dorilarga nisbatan jismoniy va ruxiy jixatdan xush yokish yoki engil qo'zqalish ruy berishi mumkin. Masalan: morfinga, geroinga, kofein, etil spirti, uxlatuvchi dorilarga nisbatan. Bunda bu dorilarga nisbatan xumorlik, tobelik yuzaga chikadi. Bu ruxiy va jismoniy ko'rinishda bo'ladi.

Bunga abstinentsiya doridan maxrum bo'lish sindromi deyiladi.

Dorilarni birga qo'shib ishlatilishi. Dorilarni ta'sir kuchini oshirish, ularni nojuya ta'sirlarini kamaytirish xamda bir vaktni o'zida xastalikga sababchi bo'lgan turli xil organ va tukimalarga dorilar ta'sirini ko'rsatish maksadida dorilar birga kushib ishlatiladi.

Masalan: yurak etishmovchiligida yurak glikozidlari, kaltsiy antogonistlari yoki peshob xaydovchi dorilar qo'shib beriladi. Qon bosimi kutarilganda uning kelib chikishiga karab, qon bosimini tushiruvchi dorilarga, tinchlantiruvchi, spazmolitiklar, tomirlarni kengaytiruvchilar qo'shib beriladi.

Dorilarni qo'shib berishda kancha ko'p dorilar ishtirok etsa, ular organizmda shuncha ko'prok murakkab munosabatlarni yuzaga chikaradilar. Bu murakkab xolatlar va munosabatlarni o'ziga xos yo'llar farmakologiya va farmakoterapiya kabi fanlar o'rganadilar. Dorilarni birga qo'shib ishlatilishida ularni umumiy ta'siri yuzaga chikadi. Yuzaga chikayotgan ta'sirning kaysi yo'nalishda bo'lishiga karab:

1. sinergizm;

2. antogonizm kuzatiladi.

Sinergizm- dorilarning bir vaktni o'zida bir yo'nalishda birga ko'rsatgan ta'siri bo'lib, bunda ularning ta'siri kuchliroq namoyon bo'ladi. Demak, sinergizm 2 xil formada namoyon bo'ladi:

1. Olingan umumiy ta'sir samarasi ayrim dorilar ta'sir yigindisiga teng bulsa summatsiyalanish deyiladi (narkoz moddalari).

2. Umumiy samara ta'sirlarning yiqindisidan kuchliroq ifodalansa potentsirlanish deyiladi (neyroleptiklar bilan analgetiklar). Ishlatilayotgan dorilar bitta to'kima yoki retseptorlarga ta'sir ko'rsatganda summatsiyalanish kuzatiladi. Masalan: adrenalin bilan noradr-n. xloroform bilan efir ta'siri.

Potentsirlanishda esa 2 va undan ortik dorilarning qo'shib ko'rsatgan effekti shu dorilarning aloxida-aloxida ko'rsatgan effektlari yiqindisidan yukori bo'ladi. Bunda dorilar bir yo'nalishda ta'sir etishi bilan birga turli organlarga ta'sir etishi kerak bo'ladi. Masalan: aminazin bilan efir, etanol yoki barbituratlar ta'sirini olish mumkin.

Bunda aminazin, miya retikulyar farmatsiyasiga ta'sir etsa, efir, etanol va barbiturat miyani sezuvchan oblastini tormozlaydi va umumiy ta'sir oshib ketadi.

Potentsirovaniyani afzalligi shundaki bunda dorilarni normadagi dozasiga karaganda kamrok-kichikrok dozasini olib biz uchun kerakli ta'sirni yuzaga chikarish mumkin. Chunki bu kichik dozalarning ta'siri yiqilib dorining o'rta terapevtik dozada beradigan effektini yuzaga chikaradi. Shu bilan birga qo'shib ishlatilayotgan dorilarning (kichik dozada olingani uchun) nojo'ya ta'sirlari yuzaga chikmaydi va organizmdagi zararsizlanish protsesslari tezrok o'tadi.

Antogonizm deb u yoki bu dorilarning ta'sirini boshka dori yordamida kamaytirishga yoki yo'qotishga aytiladi.

1. fizik antogonizmدا zaxarli moddalarni adsorbent yuzasiga (pista ko'mir tabl., oksillar yuzasiga va b.k.) absorbtsiya qilinishi inobatga olinadi.

2. Ximik antogonizmدا moddalarning ximik o'zaro ta'sir natijasida farmakologik aktivlikka ega bo'lmagan yangi moddaning paydo bo'lishi tushuniladi.

Masalan: Masalan, ogir metall tuzlari bilan zaxarlanishda unitiol preparatini ishlatilsa zararsiz birikma xosil buladi. Me'da kislotasi oshgan (giperatsid) xolatlarda ishkoriy xususiyatli preparatlar-antatsidlar (masalan, almagel va b) beriladi. Bariy xlorid bilan

zaxarlanishda natriy sulfati tavsiya etiladi. Bunda suvda erimaydigan bariy sulfat xosil buladi.

3.Farmakologik antogonizm: a) Bevosita antogonizmida dorilar bitta kletka yoki retseptorlarga karam-karshi ta'sir kursatadi. Masalan: uxlatuvchi va narkozlovchi preparatlarga karshi qo'zqatuvchi moddalar bevosita antogonistik ta'sir etadi. M-xolinomimetiklar (karboxolin)ga qarshi M-xolinoblakatorlarni ta'siri (atropin). b) Bilvosita antogonizmida dorilarning bir-biriga karama-karshi ta'siri ularning bitta retseptorga ta'siridan emas, balki boshka-boshka organ va retseptorlarga ta'siridan kelib chikadi. Masalan: karboxolin yoki yurak M-xolinoretseptorlarini tormozlashi natijasida yurak urishini sekinlatishini, adrenalin yoki efedrin yuborib, yurak adrenoretseptorlarini qo'zqatib, yurak ishini tezlatish mumkin.

v) Konkurent-rakobatli antogonizm. Masalan: Morfin bilan nolorfin bir-biriga rakobatli antogonist. Morfinni nafasni susaytirish va uni tuxtatish kabi ta'sirini, nolorfin asta-sekin o'z xolatiga keltiradi. Ammo nafas markazini bloklovchi DM-narkoz va uyku chakiruvchilar va etanol bilan nafasni susayganini nolorfin kayta tiklay olmaydi.

g) Ikki taraflama antogonizmida-ikki modda xam bir xil karama-karshi kuchga ega bo'ladi. Masalan: narkotik moddalar ta'sirini korazol bilan yoki korazol ta'sirini narkotiklar bilan olinadi. Dorilarning yukorida keltirilgan ta'sirlarini bilish bu dorilarni ongli ravishda ishlatishga keng yo'l ochib beradi.

5 – MA'RUZA

DORI MODDALARINING METABOLIZMI, EKSKRETsIYaSI. DORILAR BILAN DAVOLASH TURLARI. DORILAR NOMUNOFIqLIGI. DORILAR SIFATINI NAZORATI.

Organizmga tushgan dori moddalarining ximik strukturasini o'zgarishiga dorilar metabolizmi deyiladi. Buning natijasida dorilar o'zining farmakologik aktivligini o'zgartiradi, suvda yaxshi eruvchan formalarga o'tadi.

Dori moddalarining metabolizmi organizmdagi turli suyuklik muxitlarida va tukimalarda yuzaga chikadi. Eng yukori darajadagi dori moddalar metabolizmi OIS bo'shliklarida va ularning sillik kavatida buladi. Shuning uchun xam ko'pchilik dori moddalar och koringa ichiladi. OIS dan surilgan dori moddalari kondagi fermentlar ta'sirida yana metabolizmga uchraydi.

Dori moddalarini zararsizlantiruvchi fermentlar plazmatik va tuqima membranalarida va organlarda (buyrak va jigar) keng mikdorida saklanadi. Ular chetdan kiritilgan lipofil moddalarning metabolizmida ishtirok etadilar va ularni gidrofil xolatga utkazadi va organizmdan chikib ketishini tezlatadilar.

Dori moddalarining 2 xil parchalanish yuli bor:

1. Metabolik transfarmatsiya yuli .
2. Kon'yugatsiya yuli.

Metabolik transfarmatsiya oksidlanish, kaytalanish, gidrolizlanish va atsetillanish reaksiyalari xisobiga buladi.

Masalan: imizin, efedrin, aminazin, gistamin, fenatsetin va kofeinlar oksidlanish bilan;

-xloralgidrat, levomitsitin, nitrozapenlar kaytalanish reaksiyasi bilan;

-murakkab efirlar, novakain, atropin, Ach, ditilin, aspirinlar va amidlar gidrolizlanish reaksiyasi bilan parchalaniladilar va organizmdan chikib ketadilar.

Kon'yugatsiya bu biosintetik protsess bulib, bunda moddalarga yoki ularning metabolitlariga turli xil ximik gruppalar (sulfat, fosfor, glyukuron kislotalari va b. k.) birikib ularning suvda eruvchanligini oshiriladilar va organizmdan chikib ketishini engillatadi. (rasm 1 ga karang)

Kupchilik dori moddalari organizmda biologik transformatsiyaga uchraydi. Organizmdan yukori darajadagi ionlashtirilgan gidrofil moddalar uzgarmagan xolda chikib ketadilar.

Lipofil yoqda eruvchi moddalardan ingalyatsion narkoz moddalarigina organizmdan uzgarmasdan o'pka orkali chikib ketadi. qolganlari esa biotransformatsiyaga uchrab so'ngra organizmdan chikib ketadilar. Dori moddalarni biotransformatsiyasida ko'pchilik fermentlar va jigarning mikrosomal fermentlari ishtirok etadi. Bu fermentlar organizm uchun begona bo'lgan dori moddalarini lipofil xolatidan metabolizmga uchratib gidrofil xolatiga o'tkazadi.

Mikrosomal fermentlar bilan barcha mikrosomal bo'lmagan (jigar, ichaklar, plazma va boshka to'qimalardagi) endoplazmatik fermentlar xam gidrofil moddalarni inaktivatsiyasida o'ziga xos axamiyatga egadirlar.

Demak, metabolitik transformatsiyalanishi deb: moddalarni oksidlanish, kaytarilish va gidrolizlanish bilan o'zgarishiga aytiladi.

Oksidlanish ko'pincha mikrosomal oksidazlar va sitoxrom R-45 orkali yuzaga chikadi (Masalan: imizin, efedrin, aminazin, gistamin, fenatsitin va kodein va b. q.). Sitoxrom R-45 ni MM-si bo'lib, uni yashash davri 24 soatga teng. Normada uning organizmdagi mikdori jigar oksilini 1% tashkil kiladi.

qaytalanish esa nitro - va azoreduktazalar va ba'zi fermentlar orkali yuzaga chikadi. (xloralgidrat, levomitsitin, nitrazepam va b.k.).

Gidrolizlanish esa murakkab efirlarda (novakain, atropin, atsetilxolin, ditilin, askorbin kislota), amidlarda (novakainamid, salitsilamid va b.k.) turli esterazlar, karboksilesteraza, amidaza, fosfatazalar orkali yuzaga chikadi.

Kon'yugatsiya bu biosintetik protsess bo'lib, bunda dori moddalarini organizmdagi BAM bilan birikib yoki uni metabolitklarini turli xil ximik birikmalar yoki BA gruppalar bilan birikib inaktivatsiyalanishiga aytiladi Bunda moddalar metillanishi, atsetillanishi bilan, dori moddalarini suvda eriydigan metabolitklari yoki kon'yugatleri xosil buladi. Bu esa bu dori moddalarini boshka moddalar bilan boqlanishini kuchaytiradi yoki ularni organizmdan chikib ketishini oshiradi va tezlashtiradi .

Ma'lumki, suvda eruvchan – gidrofil moddalar buyrak orkali chikib ketadi, lipofil moddalar esa buyrak kanallarida kaytadan suriladi va asta-sekin organizmdan chikib ketadi.

Kon'yugatsiya natijasida va metabolitik transformatsiyada dori moddalari o'zining biologik aktivligini yo'kotadi. Bu esa ma'lum vakti talab kildi. Ba'zi bir sharoitlarda bo'yarak va jigar kasalliklarida bu protsesslarni yuzaga chikishi o'zgarib ketadi. Ba'zan esa metabolizm natijasida aktiv BAM yuzaga keladi Masalan: urotropinda - farmaldegid xosil bo'ladi, metil spirtida farmaldegid va chumoli kislota, novarsenolda esa arsenoksid xosil buladi.

I.E.Kavalyov keyingi paytda yangi gipotezani o'rtaga tashladi. Ya'ni uning fikricha organizmda ma'lum funktsional sistema bo'lib, u ma'lum moddalarning obrazini anglash, kadirovat qilish yoki uni eslab kolish xususiyatlariga egadir. Shuning uchun bu sistema yordamida moddalar oksillar bilan birikib immun tizimiga xos antitella va antiantitella ishlab chikishi mumkin.

Antitela dorilar uchun geptan ya'ni retseptor rolini o'ynab, dorilarni zararsizlantirish bilan organizni ximoya qilish kobiliyatiga ega buladi.

Antiantitela esa shu antiantitelani yuzaga chikaruvchi preparatlarni farmakologik aktivligini o'ziga olib xuddi dori moddalari kabi ta'sir etadi.

Bu narsalar dorilar ko'llangandan keyin yuzaga chikuvchi dori ta'sirlarida (posledeystviya l.s.) yoki dorilarni berish tuxtatilgandan keyingi orilarni mutadil davolash effektlarini tshuntirishda juda kul keladi.

Moddalarini organizmdan chikib ketish yo'llari

Dori moddalari, ularning metabolitlari va kon'yugatlari organizmdan asosan peshob va o't-safro orkali chikib ketadilar. Bo'yрак orkali kichik MM-ga ega moddalar, plazmada erigan, oksil bilan boqlanmagan moddalar yaxshi filtratsiya protsessiga uchraydi. Shuningdek ba'zi moddalarning bo'yрак kanallarida aktiv sekreitsiyaga uchrashish protsessi xam (kuchli organik kislotalar, ishkori, penitsillin, salitsilatlar, sulfanilamidlar, xin, gistamin, tiazidlar va b.k.) o'ziga xos rol o'ynaydi.

Dori moddalarining organizmdan chikib ketishida reabsorbtsiya protsessi xam katta rol o'ynaydi. Ko'pchilik dori moddalarining polyarlanmagan lipofil moddalari oddiy diffuziya orkali reabsorbtsiyaga uchraydi. Polyarlangan ya'ni qutblangan moddalar bo'yракda reabsorbtsiyaga moil bo'lmaydi. Shuning uchun xam kuchsiz kislota va ishkoriy moddalarni organizmdan chikib ketishida peshob rN-i katta rol o'ynaydi. Peshobning ishkoriy xolatida kislotali moddalar yaxshirok chikib ketadi va aksincha, kislotali muxitda esa ishkoriy moddalar yaxshirok organizmdan chikib ketadilar. Chunki bunda dori moddalari ionlashgan (kutblangan) bo'lib, deyarli bo'yрак kanallarida reabsorbtsiyaga uchramaydi.

Ba'zi bir endogen BAM-lar (aminokislotalar, glyukoza va peshob kislotalari) aktiv transport orkali organizmdan chikib ketadilar. Dori moddalarining organizmdan chikib ketishini mikdorini aniklashda bo'yрак klirensidan foydalaniladi.

Bo'yрак klirensi vakt birligi ichida ma'lum kon plazmasidan dori moddasini chikib ketish tezligiga aytiladi.

Ma'lum gruppа preparatlar (tetratsiklinlar, penitsillin, difenin, kolxitsin va b.k.) va ularni metabolitlari organizmdan o't-safro orkali ichakga tushadi va ichak orkali tashkariga chikib ketadi. Ba'zan bu moddalar ichakdan kaytadan so'rilishi va yana o't-safro orkali ichakga (ichak-jigar sirkulyatsiyasi orkali) tushib chikib ketishi mumkin.

Gazsimon va uchuvchan moddalar, ingalyatsion narkoz moddalari asosan o'pka orkali chikib ketadi.

Ba'zi moddalar (iod saklovchi yodidlar) so'lak bezlari orkali, leprozalarga karshi moddalar (ditofol) ter bezlari orkali, xin va nikotin esa oshkozon bezlari orkali, kuchsiz organik kislotalar esa ichak bezlari orkali, rifampitsin esa-ko'z bezlari orkali chikib ketadi. Ko'krak bezlari orkali (uxlatuvchi preparatlar, spirtli moddalar, nikotin va b. q.) ko'p moddalar ajralib chikadi. Bu moddalarni emizuvchi ayollarga berish o'ta xaflidir.

Dori moddalarini organizmdan chikib ketishida ularning yarim yashash davri T 1G`2) o'ziga xos axamiyatga egadir. T 1G`2-deb dori moddalarining qon plazmasida 5%

kamayishiga aytiladi. Bunda dori moddalarini nafakat organizmdan chikib ketishi, balki ularni biotransfarmatsiyaga uchrashishi, denolarga yiqilib kolishi xam o'ziga xos rol o'ynaydi. (1 sonli rasm)

Yukoridagilarini inobatga olib, dori moddalarini kon plazmasidagi terapevtik stabil konts-yasini yuzaga chikarishda organizmga yuborilayotgan dori moddalarini dozasi va yuborish vahtlari katta ahamiyatga egadir.

Dorilar bilan davolash turlari.

Dorilar yordamida kasallarni davolash bilan shuqullanuvchi fanga farmakoterapiya deyiladi. Agarda dorilar yordamida kasalni oldini olish bilan shuqullanilsa bunga farmakoprofilatika deyiladi. Farmakoterapiyaning muvaffakiyati kasallarni davolashda ishlatiladigan dorilarning farmakodinamikasi, farmakokinetikasi va metabolizmi ustidagi bilimizga boqlikdir.

Dorilar bilan davolashni kuyidagi turlari bor:

1. Etiorop davolash (aethia-sababiga,tropo-karatilgan) bu kasalni sababini yo'kotishga yoki uni ta'sirini susaytirishga baKishlangan davo usullari. Masalan: mikroblarga karshi davo usullari (dezinfektsiya, antiseptika va ximioterapiya) 2. Patogenetik davolash (pathos -kasallik, genesis -kelib chikishi) bu kasallikning kelib chikishi, molekulyar mexanizmini yo'kotish yoki uni susaytirishga karatilgan davo usullari. Masalan: yurak glikozidlarini yurak etishmovchiligida ishlatilishi,atsitilsalitsil kislotani yalliqlanishga qarshi ishlatilishi (ya'ni prostoglandinlar sintezini susaytiradi)

3. Simptomatik davolash kasalni ba'zi bir belgilari yo'kotish yoki uni chiklash uchun ko'llaniladigan davo usullari. Masalan: bosh oqriqida oqrik koldiruvchi dorilarni ishlatish;kabziyatda surgi dorilarni yoki ichini yumshatuvchi dorilar berish.Bunda kasalni asosiy kelib chikish mexanizmiga ta'sir etilmaydi.

4. O'rin bosuvchi davolash ya'ni tabiiy biogen moddalar etishmay kolganda ular o'rnini to'ldiruvchi dori moddalarini ishlatish. Masalan: gormonal preparatlar, fermentativ preparatlar (insulin, me'da shirasi, t ireoidin va b.k.).

Demak farmakoterapiyani asosiy maksadi kasallikning sabablariga, uning kelib chikish va rivojlanish mexanizmiga karshi kurashishdan va organizmni shu kasalliklarga karshi kurashish kobiliyatini kuchaytirish yoki uni o'rnini vaktincha amalga oshirish bilan kasalni davolashdan iboratdir.

5. Jarroxlik yo'li bilan davolash usullari. Bu erda farmakoterapiya asosiy rol o'ynamasa xam kasalni davolashni kompleks usulida ishtirok etadi. Chunki jarroxlik dorilar yordamida bajariladi va oxiriga etkaziladi.

Dorilar nomunofiqligi. Bemorlarni davolashda ko'pincha ikki va undan ortik preparatlarni bir vahtni o'zida ko'llashga to'qri keladi. Ammo bunda ba'zibir dorilar o'rtasida to'qridan-to'qri ximik yoki fizik ta'sirlar yuzaga chikishi mumkin. Dorivor moddalarni ximik va fizik o'zaro ta'sirlari natijasida turli xildagi nomunofikliklar yuzaga chikishi mumkin. Dorilarni bunday nomunofikligini, farmatsevtik nomunofiklik deb ataladi. Bunday nomutanosiblikda ko'pincha, chukmalar, dorilarni rangini o'zgarishi yoki turli xil gaz larni chikishi kabi xolatlar kayd etiladi. Ikki yoki undan ortik dorilarni aralashtirib dori tayyorlanayotganda xosil bo'ladigan o'zgarishlar ularni birga ishlatib bo'lmasligini ko'rsatadi.

Masalan: dimedrol bilan barbituratlarni aralashtirilsa ular cho'kmaga tushib kolishi mumkin.Chunki kislotali tuzlar bilan ishkoriy tuzlarni aralashtirilsa ularni eruvchanligi o'zgarib chukma xosil bo'ladi. Misol uchun eufillin bilan papaverinni olaylik. Eufillinni

rNq9,-9,7 teng (ya'ni ishkoriy),papaverinniki esa rNq3,-4,5 (kislotali). Shuning uchun xam bu moddalarni aralashtirilganda chukma xosil bo'ladi.

Shuningdek bitta shpirtsda vitamin V 412 ni xamma vitaminlar bilan birga berib bo'lmaydi,chunki vitamin V 412 strukturasidagi So 5QQ ioni boshka vitaminlarni bo'zib tashlaydi,vitamin V 46 ni esa allergik r-ya chakirish xususiyatini oshirib yuboradi.

Yurak glikozidlarini oqir metal tuzlari, kislotalar, ishkorlar, yodlar va dubil moddalar bilan birga berib bo'lmaydi. Yukorida sanab o'tilgan nomunofikliklar ko'zga ko'rinadi va ularni tez bartaraf etish mumkin. Ammo dorilarni birga ishlatilganda kuzga ko'rinmas nomunofiklik natijalari xam yuzaga chikishi mumkin. Masalan: glyukoza eritmasida adrenalin, nor-adrenalin va yurak glikozidlarini uzok muddatga ushlab turilsa, glyukozani oksidlanish xususiyatiga muvofik ularni biologik aktivligi buzilishi mumkin. Shuning uchun xam bu moddalarni glyukozani uzok vaktga tomchilab yuborishda birga ko'shib yuborib bo'lmaydi.

Ba'zan 2 va undan ortik dorilarni birga kushib ishlatilganda ular to'kima yoki organlarni funktsiyanal ish kobiliyatini butunlay teskari tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin. Bunday nomunosabatlarga farmakologik nomunofiklik deyiladi. Ya'ni bular asosida antogonizmni turli ko'rinishlarni yuzaga chikadi. Masalan: MNS-sini ko'zqatuvchi preparatlar bilan uxlatuvchi preparatalarni birga ishlatilganda farmakologik nomunofiklik yuzaga chikadi. Yoki M-xolinoblakatorlarni M-xolinomimetiklar bilan birga ko'shib ishlatganda xam bunday nomunofiklik yuzaga chikadi.

Farmakologik nomunosabatliklarda birga ishlatilayotgan dorilarni ijobiy ta'siri kamayishi yoki butunlay yo'q bo'lib ketishi, xamda preparatlarni nojuya ta'sirlari yuzaga chikishi mumkin. Aksariyat ko'prok xollarda farmakologik nomunosabatliklar farmakoterapevtik, farmakokinetik va farmakodinamik ko'rinishlarda yuzaga chikadi.

Masalan: farmakoterapevtik ko'rinishga antikaugulyantlar bilan barbituratlar antogonizmini keltirishimiz mumkin. Bunda antikaugulyantlar ta'siri kamayadi, chunki uni metabolizmi barbituratlar ta'sirida tezlashadi.

YalliKlanishga karshi preparatlar bilan antikaugulyantlarni yoki diabetga karshi preparatlarni birga ishlatilganda, yalliqlanishga karshi ishlatiladigan preparatlar (butadion, aspirin yoki b.k.) kondagi oksillardan ulardan oldin birikkan dorilarni sikib chikarib uni urniga uzi birikib oladi. Natijada avval yuborilgan dorilarni konts-yasi qonda ko'payib ketadi. Bunda farmakologik nomunosabatlikni farmakokinetik kurinishi deyiladi.

Narkotik moddalarni ba'zi birlari bilan adrenomimetiklarni birga ko'shib ishlatilganda (Masalan: efir fonida adrenalin yuborilganda) bu dorilarni farmakodinamik xususiyati o'zgaradi, chunki narkotik moddalar yurak muskulaturasini adrenalina bo'lgan sezuvchanligini oshirib yuboradi. Natijada turli xildagi aritmiyalar yuzaga chikadi. Bunday nomunosabatlarga farmakologik nomunosabatlikni farma kodinamik ko'rinishi deyiladi.

Shuningdek etil spirtini gipotenziv preparatlar (rezerpin va metildoza) bilan birga berilsa bu preparatlarni ta'siri kuchayib kollaps yuzaga chikishi mumkin. Yoki alkagolni gepatotoksik ta'siri bor preparatlar bilan birga ishlatilsa (tetratsiklin, protivo tbs preparatlar, MAO ingibitorlari-iproniazid va kontratseptiv preparatlar) jigar funktsiyasi buziladi va serroz yuzaga kelishi mumkin.

Dorilarni sifatini ustidan nazorat.

Ko'pchilik dorilarning sifati fizik va kimyoviy tekshirish usullari bilan aniklaniladi. Ammo lekin bu usullar xamma vakt xam ko'l kelavermaydi, ayniksa o'simlik va

xayvonlardan olingan preparatlar yiqindisini analiz qilishda. Chunki bu moddalar ko'p va turli xildagi moddalarni saklaydilar. Ba'zi preparatlar uchun esa fizik va kimyoviy analiz usullari ishlab chikilgan emas. Shuning uchun xam ba'zi bir dorilarning sifati ularning spetsifik aktivligi fakat biologik yo'l bilan aniklaniladi.

Demak dorilar sifati ustidan nazorat ko'yidagi metodlar bilan olib boriladi:

1.fiziko-kimyoviy usullar bilan;

2.Biologik-farmakologik usullar bilan.

Nima uchun dorilar sifati ustidan nazorat o'tkazish kerakq Chunki tayyor dorilar tayyorlanishi davrida, turli xil zarachalar tushib kolishi mumkin. Shuningdek dorilar saklanish davrida parchalanib boshka moddalar paydo bo'lishi mumkin. Mana shularni aniklash uchun dorilar sifati ustidan nazorat olib boriladi. Bunda xalkaro standartlardan yoki Davlat Farmakopeyasiga kirgan metodlardan foydalaniladi. Tajribalar preparatlarning xarakteriga karab ok laboratoriya sichkon va kalamushlarida, kuyon va mushuklarda o'tkaziladi, xamda tekshirilayotgan preparatlarning o'ziga xos standartlari bilan kiyosiy ravishda olib boriladi. Olingan natijalar TB (ta'sir birligi) yoki XB (xalkaro birlik) larda ko'rsatiladi.

Yurak glikozidlari uchun O'TB (LED) yoki BTB (baka), MTB (KED), KTB (GED) kabutar ta'sir birliklarida ko'rsatiladi.

Ba'zi gormonal preparatlarning aktivligi xam TB da aniklaniladi. Masalan: insulin

Insulinni kondagi kand mikdorini kamaytirishiga karab uning sifati aniklaniladi. Tajriba kuyonlarda o'tkaziladi. Insulin faolligi kuyonlarda kondagi kand mikdorini kamaytirish xossasiga karab aniklaniladi. 1 ta'sir birligi (1TB) yoki 1 internatsional birligi (1MEq1IB) deb 482 mg kristalik insulin faolligi kabul kilingan. 1 ml insulinda 8-4 TB bo'ladi. Insulinni dozasini aniklashda uni 1 TBni 2-4gr glyukozani parchalash mumkinligi inobatga olinadi.

1mg standart preparat 24,5 TB ga teng kelishi kerak, chunki, 4 mg (,482 mg) standart preparat aktivligi 1TB tengdir.

Insulinni dozalashda esa uning bitta TB 2-4 gr glyukozani parchalashi mumkinligi xisobga olinadi. Chunki 1 ml insulinda 8-4 TB bo'ladi.

AKTT-adrenokortikotrop gormon aktivligi uning bukok bezi faoliyatini o'ziga xos tarzda susaytira olishiga asoslangan biologik metod bilan aniklaniladi. Ya'ni 1TB deb, 5-6 kunlik kalamushlarga 5 kun mobaynida teri ostiga AKTT yuborilganda bukok bezi oqirligi kontrolga nisbatan 5% ga kamayishi xisobga olingan. Standart bo'yicha 1mg preparatda 1TB teng bo'ladi. Androgen gormonlarning biologik aktivligini bichilgan xurozlarda olib boriladi.

Bunda xo'roz tojisi va bakbakasi rivojlanmaydi. Bu xurozlarga teshshirilayotgan preparatlar bir necha kun yuboriladi. Agar androgen aktivligi bo'lsa asta-sekin 4-8 kunda xo'roz tojisi va bakbakasi rivojlanib chikadi.

1 mg kristall androgenni androgenli aktivligi 1TB deyiladi. Bu TB-gi 5 kun davomida yuborilsa xuroz tojisi va bakbakasini normal xolatga keltiradi.

6 – MA'RUZA

"NARKOZ VOSITALARINING FARMAKOLOGIYASI"

Reja:

1. Narkoz xakida tushincha.
2. Narkotik moddalarni ishlatish tarixi.
3. Narkotik moddalarni narkoz chakirish mexanizmi xakida tushincha.
4. Narkotik moddalarning narkoz stadiyalari va ularning tibbiyotdagi roli.
5. Narkotik moddalarga nisbatan ko'yilgan asosiy talablar va narkotik kenglik xakida tushincha.

6. Narkotik moddalarning, xususan meditsina efirini nojo'ya ta'sirlari.

Narkoz vositalari deb narkoz paydo kiluvchi moddalarga aytiladi. Bu gruppada moddalarga MNS-ni umumiy tinchlantiruvchi moddalar kiradi. Narkotik dorilar ta'sirida MNS-sida kaytadan o'z xoliga kaytib keluvchi umumiy falajlash protsessi yuzaga chikadi. Bunda xotira, es-xush, oqrik sezish, sezuvchanlik yo'koladi, reflektor ko'zqalish faoliyati va mushaklar tonusi kamayadi. Birinchi bo'lib kaytar narkoz xolatini 1844 yilda G.Uels "zakis azota" orkali yuzaga chikargan. 1846 yilda esa U.Morton birinchi bo'lib jamoat orasida efirni narkotik ta'sirini namoyish etgan.

1847 yilda D.Simson xloroformni akusherlik amaliyotida ko'llagan. Shu yili N.I.Pirogov avval tajribalarda, so'ngra tibbiyot amaliyotida efirni va xloroformni sinovdan o'tkazgan.

Eksperimental farmakologiyaning asoschilaridan biri N.P..Kravkov esa 192 yili noingalyatsion narkotik (geksenal) ni ingalyatsion narkotiklar bilan birga ko'shib ishlatishni ko'n tartibiga kiritadi.

Narkoz paydo kiluvchi moddalarning falajlovchi va tinchlantiruvchi ta'siri miya po'stloqidan boshlanadi, keyin orka miyaga undan keyin o'rta miyaga o'tadi. Narkoz xolatidan chikish yukoridagi tartibni aksincha bo'lib, es-xush asliga kaytib keladi.

Adabiy manbalarda narkozni kelib chikish mexanizmi turlicha talkin kilinadi:

1. Narkotik moddalarning fiziko-kimyoviy xususiyati bilan boqlanadi;
2. Narkotik moddalarning sirt aktivligi va adsorbtsion xususiyati bilan boqlanadi;
3. Moddalar almashinuviga boqlik bo'lgan narkoz nazariyalari mavjud. Bunda narkoz asosida yoq, oksil almashinuvi xamda membrana o'tkazuvchanligiga boqlik bo'lgan protsesslar yotadi.

4. Narkozning neyrofiziologik mexanizmi asosida narkotik moddalarni MNSda sinaptik o'tkazuvchanlikni susaytirishi yotadi.

5. Narkotiklar nafakat to'kima va protoplazmalarni, balki u erda yuzaga chikadigan enzim (BAM) larni xam chikishini susaytirib yuboradi.

N.V.Vershinin (1933) narkozning kelib chikishida lipidli teoriyani o'rtaga tashlaydi. Bu teoriya asosida lipidlarga boy organlarga yoqlarda yaxshi eruvchi narkotik moddalar engil o'tib ular bilan kattik eritma xosil kiladi. Natijada to'kimalarning molekular mutadilligi o'zgaradi. Bunga sabab:

a) Lipidlar bilan tuyingan to'kimalar o'zida kayd etiladigan, mutadil xarakatda bo'lgan fiziko-kimyoviy protsesslarni to'xtatib ko'yadi.

b) To'kimalarning kislorodga bo'lgan talabi kamayib ketadi;

v) to'kimalar yuzasidagi sirt aktivligi pasayadi,

g) to'kimalardagi kolloidlarni shishishi kamayadi, ulardagi elektrolitlar o'tkazuvchanligi buziladi. Natijada asliga kaytuvchi degidratatsiya yuzaga chikadi va narkoz paydo bo'ladi.

Tibbiyotda narkozning turli turlaridan foydalaniladi.

Narkoz turlariga quyidagilar kiradi:

1. Aralash narkoz-efirQ azot oksid va b.

2. Kombinatsiyali narkoz-noingalyats. va ingalyatsion narkotik preparatlar:

Masalan: geksenal Q efir, geksenal-xloroform.

3. Potentsiyalangan narkoz-narkoz chakiruvchi moddaning ta'sirini kuchaytiruvchi preparatlar bilan birga ishlatish. Masalan: geksenalQmorfinQingalyatsion narkotik yoki miorelaksant (mushaklar tonusini susaytirish uchun) ba'zan atropin (adashgan nervdan yuzaga chikuvchi reflekslarni bartaraf kilish uchun) ko'shib ishlatiladi.

4. Neyroleptanalgeziya-neyleptiklar bilan birga analgetiklarni ko'shib ishlatiladi. Bunda xotira saklab kolinadi. Masalan: droperidolQ fentanil.

5. Xloretilli narkoz-preparat 12-13,5 S da kaynaydi. Shundan foydalanib uni teriga sepiladi va terini muzlatib oqrikni koldiriladi.

Narkoz vositalari kay yo'l bilan ishlatilishiga karab 2 ta gruppaga bo'linadi:

1. Ingalyatsion narkotiklar;

2. Ingalyatsion bo'lmagan narkotiklar

Ingalyatsion narkotiklar nafas yo'li orkali organizmga kiritiladi. Ularga:

1) uchuvchan suyuq narkotik moddalar (efir, ftoratan, trixloretilen, metoksifluran)

2) gazsimon narkotik moddalar (azot(1) oksid, siklopropan) kiradi.

Xloroform va efir ko'llanilganda ularni yukori tomok yo'llariga tushishi va erdagi shillik kavatni kitiklashishi mumkin. Ya'ni yukori nafas yo'llarida ortikcha impuls paydo bo'ladi va salbiy reaksiya chakiruvchi reflekslar xosil bo'ladi. Bunda yurak urishi susayadi, nafas yomonlashadi, xattoki to'xtab kolishi mumkin, so'lak bezlaridan so'lak ajaralishi oshib ketadi. So'lak bilan me'daga tushgan xloroform va efir me'da shillik kavatini kitiklaydi va reflektorli kayd kilish reaksiyasini yuzaga chikarishi mumkin.

Demak, ingalyatsion narkotiklarni salbiy ta'sirlari korin bo'shliqi organlarini innervatsiya kiluvchi adashgan nerv orkali yuzaga chikadi. Shuning uchun xam bunday salbiy ta'sirlarni oldini olish uchun atropin yuboriladi. Shuningdek efir narkozini ko'zqalish davrida so'zlash va xarakat bilan boqlik ko'zqalishni yuzaga chikaradi. Chunki bunda miya po'stloqi ostidagi markazlar miya po'stloqini, ta'siridan chikib ketadi. Natijada yurak-kon tomir va nafas markazini regulyatsiyasi buziladi AB bir ko'tarilib, bir tushishi mumkin.

Noingalyatsion narkotik moddalarga nafas yo'lidan boshka yo'llar bilan organizmga kiritilib narkoz xolati kiluvchi moddalar kiritiladi. Ularga:

Propanidid-5%-1 ml amp.

Natriy tiopental-0,5-1 g fl.

Geksenal-1 g

Natriy oksibutirat-kukun, 2%-1ml amp.

Bu narkotik moddalar organizmga oqiz, vena, mushaklar orasiga va to'qri ichak orkali yuboriladi.

Narkotik moddalarga nisbatan talab kilinadigan asosiy talablarga

1. Narkoz xolatini tez yuzaga chikarish.
2. qo'zqalish davrining bo'lmasligi, yoki minimal xolda bo'lishi;
3. Chukur narkoz xolatini boshkara bilish kobiliyatiga egaligi;
4. Nojo'ya ta'sirlarni deyarlik bo'lmasligi;
5. Narkotik kenglikning keng bo'lishligi;

Narkotik ta'sir doirasi deb, narkoz moddaning narkoz chakiradigan busaga dozasi dan zaxarlanish belgisini beruvchi dozasi gacha bulgan masofa tushuniladi.

6. Narkoz paydo kilish uchun ishlatiladigan narkotik moddalarning ko'llash usullarining texnik tomondan engilligi;

7. narkotik moddalarning narxi arzonligi va iktisodiy samaradorligi.

Ingalyatsion narkotiklar narkoz xolatini paydo kiluvchi maxsus apparatlar yordamida ishlatiladi va bunda narkotik moddalarning kontsentratsiyasi va narkotik dozalari anik xisob-kitoblar asosida olib boriladi. Bu narkotiklar nafas yo'llari orkali diffuziya yo'li bilan o'pkadan konga o'tadi va turli organlarning funktsional xolatiga karab butun organizm bo'ylab bir me'yorda tarkaladi va ma'lum vakt dan so'ng o'zgarishga uchramas dan organizmdan chikib ketadi.

Uchuvchan suyu k narkotik moddalar. Meditsina efiri - nafas yo'li orkali organizmga yuboriladi va uning chakirgan narkotik xolati 4 ta davrdan iborat bo'ladi:

I davr- analgeziya davri -Bunda sezuvchanlik, ayniksa oqri kni sezish susayadi. Xotira, es-xush yo'koladi. Miya asosida retikulyar formatsiya va miya po'stloqdagi neyronlar faoliyati kamayadi, shartsiz reflekslar saklanib koladi.

Bu davrda kichik va yuzaki (flegmona, abstsessni ochish, tampon va drenajlarni olib tashlash) operatsiyalarni amalga oshirish mumkin.

II davr-ko'zqalish davri. Bunda xotira butunlay yo'koladi. Shartsiz reflekslar kuchayib ketadi. Pustloq osti bo'limlari miya po'stloqi nazoratidan chikib ketadi. Bemor ko'p xarakat kiladi va gapira boshlaydi. Tormozlanish protsessi susayadi, ko'zqalish esa kuchayib ketadi. Nafas sekinlashadi, AD-ko'tariladi, ko'z korachiqi kengayadi, mushak tonusi ortadi. Ba'zan nafas to'xtab kolishi xam mumkin (reflektor). Bunda atropin yaxshi yordam beradi.

III davr-jarroxlilik narkoz davri. Bu davrda shartsiz reflekslar xam yo'kolib borishiga karab narkoz xolati turli darajada yuzaga chikadi va ularni 4 ta narkoz darajasiga bo'linadi:

1. yuzaki narkoz darajasi. Bunda ko'z korachiqining kiskarishi. Lekin ko'z shox parda refleksi, ko'z kosasining xarakati saklanib turadi. Mushak tonusi susaya boshlaydi, nafas tekis bo'ladi.

2. engil narkoz darajasi. Bunda ko'z korachiqning kiskarishi bilan ko'z shox parda refleksi va ko'z ko'sasining xarakati to'xtaydi. AD-pasayadi, mushaklar tonusi susayadi, sinapslardang o'tkazuvchanlik falajlanadi. Bu davrida asosiy operatsiyalar amalga oshiriladi.

3.Chukur narkoz darajasi. Bu nda ko'z korachiqi kengaya boshlaydi, yoruqlikga sezuvchanlik yo'koladi. Nafas tezlashadi, AD-pasayadi.

4. O'ta chukur narkoz darajasi. Bunda ko'z korachiqi butunlay kengaygan bo'ladi. Nafas susayadi, diafragma orkali olinadi, AD-pasayadi va terida sianoz yuzaga chikadi. Shu vaktidan boshlab bemorni narkoz xolatidan chikarish chora-tadbirlari ko'rila boshlanadi.

Efir narkozida miya po'stloqida tormozlanish protsessi rivojlanib boradi. Uzunchok miyada joylashgan yurak-tomir va nafas markazlari eng keyin tormozlanadi.

IV narkozdan uyqonish davri bo'lib bu davr ancha vaktgacha cho'ziladi va MNS faoliyati asta-sekin o'z xoliga kela boshlaydi. Ko'pincha operatsiyadan so'ngi, uzok davom etadigan uyku yuzaga chikadi.

Ba'zan narkoz ortiqcha berilganda agonal davr kuzatiladi.

Nafas yullari va upkaning utkir kechadigan kasalliklarida, kon bosimi kutarilishi, yurak-kon tomir va buyrakning ogir kasalliklarida, kandli diabetda, bosh miya ichki bosimining yukori bulishida efir tavsiya etilmaydi.

Ftorotan (galotan)-narkotik faolligi yukori, engil uchuvchan, yonmaydigan, kislorod va azot I oksid bilan kushilganda portlamaydigan modda. Bundan tashkari, ftorotan bronx yullarini kitiklamaydi, xirurgik narkoz davri tez (3-5 dakika) boshlanadi, kuzgalish davri kiska va yuzaki, uygonish tez yuzaga chikadi (3-5 dakika), kuzgalish deyarli kuzatilmaydi. Kamchiliklari bradikardiya chakirishi, miokardning adrenalin va noradrenalina sezuvchanligini oshirishi (ular yurak fibrillyatsisi, aritmiyalarni berishi mumkin) xisoblanadi. Uning kamchiliklarini bartaraf etish uchun atropin, promedol yuboriladi.

Ftorotanni adrenalinning kondagi mikdori oshishi bilan kechadigan kasalliklarda (feoxromotsitoma, giperterioz) ishlatib bulmaydi. Aritmiya, gipotoniya va jigarning organik kasalliklarida ixtiyotlik bilan kullanadi. Xomiladorlikning 1-trimestrida, tugish davrida ishlatilmaydi.

Metoksifluran-narkotik faolligi buyicha efir va ftorotandan kuchlirok, engil uchuvchan suyuklik. Narkoz sekin boshlanadi, kuzgalish yaxshigina namoyon buladi, uygonish narkoz berish tuxtatilgach 15-60 dakikadan keyin boshlanadi. Metoksifluranni bachadon kiskarishiga deyarli ta'sir etmasligini va kuchli ogrik koldirish xossasini xisobga olgan xolda akusherlik amaliyotida ishlatiladi.

Trixloretilen-ta'siri buyicha uta kuchli narkoz moddasi bulib, juda tez kor kiladi. Organizmga yuborish tuxtatilgandan sung 2-3 dakika utgach bemor uygonadi. Narkozning birinchi boskichidayok ogrikni butunlay bartaraf etadi. Nafas yuli shillik pardalarini ta'sirlantirmaydi, bachadon faoliyatiga, xomilaga ta'sir etmaydi, boshka ichki a'zolarga (jigar, buyrak) salbiy ta'siri bilinar-bilinmas. Shu sababli trixloretilen asosan kiska muddatli jarroxlik amaliyotlarida (flegmona, abtseps va boshka yiringli yaralarda) xamda akusherlikda tugish jarayonida ogrikni koldirish maksadida kullanadi.

Xloretil- engil va tez uchuvchan suyuklik bulib, buglari bilan nafas olinadigan bulsa, umumiy narkoz xolatini beradi. Bunday ta'siri ancha kuchli namoyon buladi va ogrikni yaxshigina koldiradi. Narkozning kuzgalish davri ruy-rost bilinadi.

Bundan tashkari, preparatning narkotik ta'sir doirasi tor bulgani sababli zaxarlanish xavfi tugiladi. Shuning uchun u xirurgik narkoz uchun ishlatilmaydi. Fakat narkozning birinchi davrida kiska muddatli analgeziya (raush narkoz) olish uchun kichik jarroxlik muolajalarini bajarishda kullanadi.

Suyuk uchuvchan narkotik moddalar bilan ishlashda nixoyatda extiyot bo'lish kerak, chunki ular yukori bo'lmagan, past temperaturalarda parlanib yonib ketishi mumkin. Ularning parlari ma'lum temperaturada kislorod bilan reaksiyaga kirishib portlash yuzaga chikishi mumkin.

Gazsimon narkoz moddalari - nafas yullarini ta'sirlantirmaydi, narkoz kuzgalish davrisiz tezda boshlanadi, ichki a'zolarga salbiy ta'sir kursatmaydi, narkoz berish tuxtatilgandan keyin uygonish tezda namoyon buladi va asoratlar kuzatilmaydi. Gazsimon narkoz moddalarining asosiy kamchiligi, xirurgik narkoz davrida tana mushaklarining bushashishi tulik bulmaydi, narkoz xolati yuzakirok utadi.

Azot I oksid-rangsiz xavodan ogirroq, suvda eruvchan gaz. Kislorod bilan ma'lum nisbatda (70-80 % azot I oksid va 20-30 % kislorod) yuborilganida kuzgalish davrisiz va xech kanday asoratsiz xirurgik narkoz boshlanadi. Narkoz uncha chukur bulmay tana mushaklari yaxshi bushashmaydi. Narkoz berish tuxtatilsa 10-15 dakika mobaynida organizmdan nafas yuli orkali chikib ketadi. Kuchli narkoz moddalari (efir, ftorotan) xamda miorelaksantlar (ditilin, tubokurarin) bilan birga jarroxlik amaliyotida, ginekologiyada, stomatologiyada, urologiyada, stenokardiya, miokard infarkti, utkir pankreatit va b. xastaliklarda ishlatiladi.

Azot I oksid nerv sistemasining ogir kasalliklarida, surunkali alkogolizmida ishlatilmaydi.

Tsiklopropan- azot I oksiddan kuchlirok. Narkoz chukurrok buladi. Narkoz berish tuxtatilsa uygonish davri tezda boshlanadi, asoratlar deyarli kuzatilmaydi. Siklopropaning eng katta kamchiliklari-dan biri tez yonuvchan, portlovchi xususiyatidir. Xozir tibbiyotda deyarli ishlatilmaydi.

Noingalyatsion narkoz moddalari- uchmaydigan moddalar bulib, venaga va tugri ichak orkali yuborishga muljallangandir.

Ularning ta'sir vakti kiska-15 dakika (propanidid, ketamin), urtacha-20 dan 50 dakikagacha (tiopental-natriy, predion) va uzok 60 dakikadan ortik (natriy oksibutirat) bulishi mumkin.

Tiopental-natriy. Poroshok xolida flakonda chikariladi. Narkoz xolati chukur va mushaklar yaxshigina bushashgan buladi. Preparat adashgan nerv faoliyatini oshirgani uchun nafas yullari sekretsiyasini kuchaytiradi, bradikardiya beradi. Bularni oldini olish maksadida atropin yoki metatsin narkozdan oldin in'ektsiya kilinadi. Narkozni davom etishi 20-25 dakika. Asosan jigarda parchalanib, metabolit shaklida buyrak orkali chikib ketadi. Preparatni yuborish tuxtatilgandan keyin 10-15 dakika utgach uygonish davri boshlanadi. Tiopental-natriy eritmasi tugri ichakka xam yuborilishi mumkin. Kupincha bu yul bolalarda kullanadi. Tiopental-natriy ingalyatsion narkoz moddalari (azot I oksid, ftorotan) bilan birga bazis narkoz sifatida ishlatiladi.

Viadril-predion. 20 ml xajmli flakonlarda chikariladigan poroshok. Eritmalari 5 % glyukozada, osh tuzining izotonik eritmasida va 0, 25 % novokain eritmasida venaga yuborishdan oldin tayyorlanadi. Preparatning ta'siri 3-5 dakika utgach boshlanadi, tana mushaklarining bushashishi ancha chukur buladi, nafas va yurak-tomir tizimiga deyarli ta'sir etmaydi. Venaga yuborilganda kon tomir buylab ogrik sezish, keyinchalik esa ularda uzgarishlar (flebit) bulishi mumkin. Shuning uchun preparat yuborilgandan sung shu shprints orkali 0, 25 % novokain eritmasi (10-20 ml) yuboriladi. Tromboflebitlarda viadril ishlatilmaydi.

Natriy oksibutirat-kimyoviy tuzilishi va farmakologik xossalari GAMKga yakindir. GAMK markaziy tormozlanish jarayonini ta'minlovchi asosiy mediatoridir.

Natriy oksibutirat gematoentsefalik tusikdan engil utib, markaziy nerv sistemasiga sedativ, mushaklarni bushashtiruvchi, katta dozalarda esa uyku va narkoz keltirib chikaradi. Ogrik koldirish ta'siri uncha bilinmaydi, lekin analgetiklar va narkoz moddalari ta'sirini kuchaytiradi. Preparat nootrop ta'sirga ega bulgani uchun antigipoksant xisoblanadi.

Organizmni, shu jumladan, miya tukimasi, yurak, kuz tur pardasini kislorod etishmasligiga chidamliligini oshiradi.

Natriy oksibutirat anesteziologiyada noingalyatsion modda sifatida engil, uzok davom etmaydigan amaliyotlarda xamda narkozni boshlanishini ta'minlash maksadida, bazis narkoz uchun jarroxlikda, akusherlik va ginekologiyada, bolalar va kariyalarda jarroxlik muolajalarini bajarishda ishlatiladi. Preparat venaga, mushaklar orasiga va ogiz orkali yuborilishi mumkin.

Natriy oksibutirat venaga tez yuborilsa xarakat kuzgalishi, katta dozalarda esa nafasni zaiflashtirishi va tuxtatishi mumkin. Preparat gipokaliemiya, xomiladorlik toksikozlarida extiyotlik bilan kullanadi.

Propanidid. Yogsimon suyuqlik bulib, suvda erimaydigan, maxsus detergentlarda eriydigan modda. Preparat venaga yuborish uchun muljallangan. Uta kiska narkoz chakiruvchi modda xisoblanadi. Narkoz xolati tezda (20-40 sekund) boshlanadi va 3-5 dakika davom etadi. Kuzgalish davri bulmaydi. Narkoz xolati tugagach 2-3 dakikada bemor xushiga keladi. Preparat kiska muddatli amaliyotlarda kullanadi. Preparat 5 % eritma xolida ampulalarda 10 ml dan chikariladi. Venaga yuboriladi.

Ketamin. Suvda va spirtda yaxshi eriydigan ok rangli poroshok. Venalarga va mushaklar orasiga yuborilganida kiska muddatli narkoz xolatini keltirib chikaradi. Preparat mushaklar orasiga yuborilganida ogrikni koldiruvchi ta'siri asta-sekin yuzaga chikib (6-8 dakika), uzok davom etadi (30-40 dakika). Venaga yuborilganida esa samarasi 1 dakika mobaynida boshlanadi va 5-15 dakikagacha davom etadi. Ogrik koldiradigan ta'siri 2 soatgacha davom etishi mumkin. Ketamin narkozning boshlangich davrini ta'minlash, bazis narkoz sifatida, kombinatsiyalangan narkoz uchun ishlatilishi mumkin. Mononarkoz sifatida kiska muddatli amaliyotlarda, ogrikli muolajalarda, travmatologiyada bemorlarni transportda olib borish uchun kullanadi.

Ketamin ta'sirida kon bosimi kutariladi, taxikardiya, gipersalivatsiya, nafasni susayishi va boshkalar kuzatilishi mumkin.

Preparat miyada kon aylanishi buzilgan xollarda, gipertoniyada, stenokardiyada, yurak faoliyatining etishmovchiligida (dekompensatsiya) va eklampsiya, tutkanoklarda tavsiya etilmaydi.

UXLATUVCHI DORILAR FARMAKOLOGIYASI

Reja:

1. Uyku xakida tushuncha va uykuning buzilishida ishlatiladigan uyku dorilari.
2. Uyku dorilari bilan narkotik dorilar o'rtasidagi boqliklik va farklar xakida tushuncha.
3. Uykuga ta'sir etuvchi omillar va uyku fazasi xakida.
4. Uyku dorilarining tasnifi va farmakologik xususiyatlari
5. Uyku dorilarining ishlatilishi va ularning nojo'ya ta'sirlari.

Insonlarda va xayvonlarda uykuga bo'lgan talab juda kattadir. Chunki insonlar va xayvonlar ochlikka bir necha xafta chidashi mumkin. Ammo uykusizlikka ko'p chiday olmaydi. Masalan: itlar uykusizlikka 4-5 kun chidashi mumkin, so'ngra ular nobud bo'ladilar, lekin ochlikka esa 25-30 kunga chidaydilar. Uzok uykusizlik insonlarni ichki organlarida, ayniksa miya po'stloqida turli xil gistologik o'zgarishlar va qon tarkibida toksik moddalar paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Yakin-yakinlargacha uyku ruxiy ish kobiliyatidan, miya po'stloqidagi umumiy tormozlanishdan, miyani toliqishidan yuzaga chikadi deb kelinar edi. Ammo miya po'stloqi olib tashlangan ishlarda xam uykuni yuzaga kelishi tajribalarda aniklangan. Demak, uyku periferiyadan miyaga keluvchi impulslarni cheklanishidan xam yuzaga kelishi mumkin ekan.

I.P.Pavlov uykuni yuzaga kelishida 2 ta fikrni o'rtaga tashlaydi.

1. Aktiv uyku, bunda tormozlanish protsessi miya po'stloqida yuzaga keladi va butun miya yarim shariga va miya osti kism-larga tarkaladi.

2. Passiv uyku, bunda miyani yukori kismiga berilayotgan ko'zqatuvchi impulslarni kamayishi va cheklanishidan yuzaga chikadi.

Insonning turli mashg'ulotlardan xoli bo'lgan choqdagi ruxiy kuvvatining xosilasi-tush "kichik o'lim" yoki "kichik maxshar" dir.

Normal uykuni yuza kelishi uchun turli xil sharoitlar aloxida rol o'ynaydi:

a) Ma'lum xarakatdan so'ngi tolikish;

b) Tananing tinchlangan xolati;

v) Turli xil ichki ko'zqatishga sababchi xolatlarni bo'lmasligi (emotsiya, ochlik, ko'zqalish protsesslari);

g) Monotonli- bir xildagi engil ko'zqatuvchi xollar (muzika, bir tonda so'zlashlar);

d) Turli xil tashki kitiklovchi protsesslarni bo'lmasligi (yoruqlik, sovuk temperatura, kuchli muzika sadolari va b.k.).

Turli xil odamlarda uyku turlicha bo'lib, xar xil chukurlikda yuzaga chikishi mumkin. Ammo bemorlarda umuman chukur uyku yuzaga chikmaydi.

Ba'zan o'ta tolikish xam uykuga mos xolatlar bo'lmaganda uykuni yuzaga chikaradi (masalan: ot ustida uxlash, transportlarda, yurib keta turib uxlash).

Demak, uyku aktiv, xayotiy zarur bo'lgan fiziologik protsessdir. Bunda reflektor xolatlar yo'koladi, ko'zqaluvchanlik kamayadi, xotira butunlay yo'koladi. Mushaklar tonusi pasayadi, miyadagi kon aylanish protsessi oshadi, nafas susayadi va temperatura pasayadi. Miyada kon aylanishni kuchayishi natijasida unda modda almashinuvi yaxshilanadi (ATF, keratinfosfat, glyukoza) va somatotrop gormonlarni chikishi oshib ketadi. Inson tabiatiga ko'ra turli xil sabablar bilan uykusizlik yuzaga chikadi. Uykusizlik yuzaga chikkanda turli xil uyku chakiruvchi dorilardan foydalaniladi. Dorilar bilan uyku chakirish imkon boricha tabiiy uykuga mos tushishi kerak. "Tabiiy" - normal uykuni yuzaga keltiruvchi dorilarga nisbatan aloxida talablar ko'yiladi. Masalan:

1.Uykuni tez va ishonchli darajada yuzaga chaqirishi kerak.

2. Yokimsiz ta'mi, xidi va maxalliy kitiklash ta'siri bo'lmasligi kerak.

3. Uyku davrlariga ta'sir etmasligi va kumulyativ xolatlarni yuzaga chikarmasligi kerak.

4. Bu moddalarga o'rganib kolish va tobelik bo'lmasligi kerak.

Yukoridagilarni inobatga olib uyku dorilari ustida ko'yidagi fikrga kelishimiz mumkin: uxlatuvchi preparatlar uykusizlikning sabablariga qarshi ta'sir etmaydi, balki uykulik xolatini yuzaga chikarish uchun ishlatiladi. Bu dorilar oqrik sezish xolatini yuzaga chikishini yo'kotadi, lekin oqrik protsessiga karshi ta'sir etmaydi.

Shuningdek uyku dorilarni uxlatuvchi ta'sirini narkozni engil narkoz stadiyasini ko'rinishlaridan biri deb karash mumkin. Chunki uxlatuvchi dorilarni dozasi-ni oshirib yuborilsa narkoz xolati yuzaga chikishi mumkin. Narkoz chakiruvchi dorilar esa, kichik dozalarda narkoz o'rniga uxlatishini - uykuni yuzaga chikaradi. Shuning uchun narkoz chakiruvchi dorilar bilan uxlatuvchi dorilar o'rtasida printsipal darajada ularni ajratuvchi

belgilar yo'k. Ular o'rtasidagi fark ularni kaysi maksadda va kanday dozalarda ishlatilishidadir.

Uxlatuvchi dorilar deb-tabiiy uykuga yaqin uyku chakiruvchi preparatlarga aytamiz. Bu dorilar ta'sirida, uykuni yuzaga chikishi tezlashadi, chukurligi xamda vakti oshadi. Uyku dorilari kichik dozalarda tinchlantiruvchi sedativ ta'sir, o'rtacha dozalarda esa uxlatuvchi va katta dozalarda narkotik ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu preparatlar narkotik dori sifatida ishlatilmaydi, chunki ularning narkotik kengligi juda tordir. Uxlatuvchi dorilarning ta'sir mexanizmi xaligacha to'la anik emas. Ular MNS-da neyronlararo sinapslardagi nerv o'tkazuvchanligini kamaytiradi. Ba'zilar esa miya asosidagi retikulyar farmatsiyaning aktivligini susaytiradi.

Uykuni 2 fazasi bo'lib: bir "sekin yuzaga chikuvchi uyku" fazasi. Bu sinxron ortodoksal uyku bo'lib, uykuning 75-80 % ni tashkil etadi va uzok davom etadi. Bu fazada EEG bir tekis kurinishda bo'ladi, parasimpatik nervning faoliyati kuchayishi natijasida ichki a'zolar faoliyati susayadi. Yurak urishi sekinlashadi, kon bosimi pasayadi, nafas chukurlashadi, tana xarorati pasayadi, modda almashinuvi sekinlashadi. Uyqu chukur va bir tekis bulib, tush kurish kuzatilmaydi. Ikkinchisi esa "tez yuzaga chikuvchi uyqu" fazasi bo'lib, bunda disinxron, poradoksal uyku yuzaga chikadi, u uykuni 20-25% tashkil etadi va kiska muddatda davom etadi. EEG notekis bo'lib, simpatik nervning faoliyati kuchayishi sababli yurak urishi tezlashadi, kon bosimi kutarilib turadi, nafas bir tekis va chukur bulmaydi, kuz sokkalari xarakatlanib turadi, uzicha gapirish xolatlari bulishi mumkin, modda almashinuvi tezlashadi, xar xil tushlar kurib, bezovtalik alomatlari kuzatilishi mumkin. Sekin uykuni tez uykuga almashinishi MNS ajralib chikadigan serotonin va katexolaminlarga boqlik. Serotonin "sekin uykuni", katexolaminlar esa "tez uykuni" yuzaga chikaradi. Shuningdek uykuni yuzaga chikishida endogen peptidlar va polipeptidlar xam katta rol o'ynaydi. Masalan:

1. Opiatik peptidlar (enkefalin va endorfin);
2. Neyrotenzinlar;
3. Samotostatinlar;
4. Xolitsistokininlar;
5. Neyropeptidlar;
6. Substantsiya R va
7. Tireotrop rilizing gormonlar.

Uyku davrida xolinerjik (parasimpatik) nerv sistemasini tonusi oshib ketadi, bedorlik uyqok davrida esa adrenergik-simpatik nerv sistemasining tonusi oshib ketadi.

Adabiyotlarda ko'rsatilishicha uykuni yuzaga chikishi ko'p faktorlarga boqlik:

1. Bedorilik davrida kishini charchatuvchi kandaydir moddalar organizmdan ajralib chikadi va uykuni yuzaga chikaradi; (endogen peptidlar).

2. MNS boruvchi va bedorlik xolatini yuzaga keltiruvchi eksterotseptiv va interotseptiv ko'zqaluvchanlikni kamayishidan uyku yuzaga chikadi;

3. Uykuga sababchi moddalarning MNS-ga va undagi uyku markaziga ta'siridan yuzaga chikadi.

4. Miya po'stlog'ida xar tomonga yoyilgan tormozlanish protsessini yuzaga chikishida uyku xosil bo'ladi.

5. MNS dagi modda almashinuvini susayishi asosida yuzaga chikadi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda.

Uykusizlikning 3 turi ma'lum:

1. Odamning uxlab kolishi kiyin kechadi va so'ngra chukur va uzak uykuga ketadi (bu yoshlarda bo'ladi).

2. Odam tez uxlaydi, lekin uyku kiska vakt (2-5 soat) davom etadi (bu kattalarda bo'ladi)

3. Ba'zan uykuga ketish davri va uning davomiyligi buzilgan bo'ladi.

Bunday xollarda uxlatuvchi dorilar beriladi. Tasnifi:

A. Narkotik ta'sirga ega preparatlar

Geterotsiklik birikmalar-barbituratlar (fenobarbital, benzonal, benzobamil, geksamidin)

Alifatik birikmalar (xloralgidrat, bromizoval)

B. Trankvilizatorlar guruxiga kiruvchi preparatlar-benzodiazepinlar (klonazepam, nitrozepam, sibazon)

Barbituratlar esa 3 gruppaga bo'linadi:

1. Uzak uyku chakiruvchi barbituratlar:

a) barbital-veranal

b) barbital natriy-medinal

v) fenobarbital-lyuminal

2. O'rtacha uyku chakiruvchi barbituratlar:

a) barbamil

3. Qiska muddatga uyku chakiruvchi barbituratlar:

a) geksenal

Barbituratlar uxlatuvchi, sedativ va tutqanoqqa qarshi ta'sirga ega, katta dozalarda narkoz chaqiradi. Ular uykuga ketishdan 30-60 min oldin ichiladi. barbituratlar kuchsiz kislotalik xususiyatiga ega bulgani uchun oshkozon va ingichka ichakda juda tez suriladi, organizmda kon bilan tarkalib, lipofil (yogda eruvchan) bulgani sababli gematoentsefalik tusikdan utadilar va uz ta'sirini markaziy nerv tizimida namoyon etadilar. Ularning bir qismi kondagi oksillar bilan boglanadi. Erkin xoldagilari (fenobarbitaldan tashkari) jigarda metabolizmga uchraydilar. Asosan ular mikrosomal fermentlar ta'sirida oksidlanadilar va suvda eruvchan metabolitlar shaklida organizmdan (asosan buyraklar orkali) chikib ketadilar. Fenobarbital esa uzgarmagan xolda juda sekinlik bilan chikariladi. Chunki oksillar bilan kuprok boglangani uchun uning yarim chikib ketishi ($t_{1/2}$) bir necha kunni tashkil kiladi. Shuning uchun fenobarbital uzak muddat kabul kilinsa kumulyatsiya xolatini yuzaga chikaradi va zaxarlanish kuzatiladi. Kumulyatsiya jigar va buyrak kasalliklarida yanada tezrok yuzaga chikadi. Barbituratlar jigar mikrosomal fermentlarini induktsiyalaydi. qayta yuborilganda barbituratlar jigardagi mikrosomal fermentlar (tsitoxrom R-450, glyukuronil transferaza) ning induktsiyasi xisobiga tezrok metabolizmga uchraydi. Barbituratlarni ko'llashni tuxtatilgandan so'ng bemorlarda bo'shashishlik, lanjlik, xotira va fikrlarning sustligi kabi "kaytar" fenomen yuzaga chikadi. Barbituratlar uzoq ko'llanilganda ularga nisbatan qaramlik yuzaga chikadi va kuchli ruxiy o'zgarishlar, serjaxillik, kurkuv kayd kilish, ko'rish kobiliyatining pasayishi, tirishish, ortostatik gipotoniya kabi xolatlar bilan o'uvchi abstinentsiya sindromi kuzatiladi. Oqir xollar o'lim bilan tugashi mumkin. Barbituratlarni ko'llaganda ba'zi bir nojuya ta'sirlar yuzaga chikadi: allergik reaksiya, teriga kizilchalar toshishi, temperaturani ko'tarilishi, sariqlik, MNS funksiyasini susayishi, nafas va kon tomir markazini sustlashishi, kon bosimini tushishi va jigar xamda buyrak funksiyalarini buzilishi va x.k.

Alifatik birikmalarga xloralgidrat va bromizovallor kiradi. Xloralgidrat organizmga tushgach kaytadan tiklanadi va trixloretil spirtiga o'tadi. Molekulasida xor bo'lgani uchun kuchli uxlatuvchi ta'sir etadi. Katta dozada esa yurak-kon tomir va nafas markazini

susaytiradi, ba'zan esa falajlaydi. Preparatning uxlatuvchi ta'siri 8 soat davom etadi. Uyqu strukturasini buzmasligi bilan barbituratlardan farq qiladi. Katta dozalarda narkoz chaqiradi. Karamlik chaqiradi, kumulyatsiya bermaydi. Ichki a'zolarga-jigar, buyrak, yurakka salbiy t.k. Bromizoval ko'proq sedativ ta'sirga ega, uxlatuvchi sifatida kam ishlatiladi.

Uxlatuvchi sifatida trankvilizatorlar keng ishlatiladi. Ular benzodiazepin unumlari xisoblanadi. Ta'sir mexanizmi: benzodiazepinlar GAMK retseptorlari funksiyasini bajaruvchi molekulalar bilan xlor kanallarida boglanadi. Ular markaziy nerv tizimida GAMK utishini tezlatadi, sinaptik tormozlanishni kuchaytiradi. Boshkacha aytganda, masalan, nitrozepam, GAMK retseptorlarini agonisti-tormozlanishni kuchaytiruvchi preparat xisoblanadi. Ular GAMKning urnini bosmaydi, balki uning ta'sirini kuchaytiradi. Ularning limbik tizim (gippokampni) susaytiruvchi ta'siri ko'proq, retikulyar formatsiyani va miya po'stloqini faollashtiruvchi ta'siri kamroq namoyon bo'ladi. Spinal reflekslarni susaytirib, mushaklarni bushashtiradi. Tutqanoqqa qarshi ta'siri miyadagi tormozlanish jarayonlarini faollashtirishi bilan boqliq. Ularning barbituratlardan farqi:

- uyqu strukturasini kam uzgartiradi,
- terapevtik ta'siri keng va zaqarlanishlarga kamroq sababchi bo'ladi,
- jigar mikrosomal fermentlarini induktsiyalamaydi,
- qaramlik chaqirish xususiyati kam.

Benzodiazepinlar asosiy uxlatuvchi preparatlar xisoblanib, amaliyotda uykusizlikning xamma turlarida keng miqyosda kullanadi. Ular ayniksa asabni buzilishi, bezovtalik va boshka emotsional xolatlar bilan boglik uykuni buzilishida juda kul keladi. Nitrozepam Uzbekiston davlat reestriga kiritilgan va tibbiyot amaliyotida keng ishlatiladi. Uning uxlatuvchi ta'sir muddati fenobarbitalga uxshash, 30-40 dakikadan keyin boshlanib, 6-8 soat davom etadi. Preparat yaxshigina tinchlantiruvchi, kattarok dozada esa tutkanokka karshi ta'sir kursatgani uchun ushbu xastalikda xam kullanadi. Nitrozepam xomiladorlik davrida tavsiya etilmaydi. Ayrim vaziyatlarda, ayniksa kattarok dozalarda nojuya xolatlariga (umumiy xolsizlik, ataksiya, bosh ogrigi va b.) sababchi bulishi mumkin. Bularni preparat dozasini kamaytirish bilan bartaraf etiladi.

Benzodiazepinlar narkoz vositalari, etil spirti, narkotik analgetiklarni ta'sirini kuchaytiradi, yurak-qon tomir tizimiga ta'sir etmaydi.

Barbituratlar bilan zaxarlanish xayotda uchrab turadi. Ayniksa, uz joniga kasd kilish, preparatni (fenobarbital) bilar-bilmas kabul kilish, nazoratsiz ishlatish natijasida yuzaga chikadi. Bunda narkozga yakin komatoz xolati kuzatiladi. Nafas susayadi, kon bosimi tushib ketadi va xakozo. Utkir zaxarlanishda tezkor yordam kursatilishi zarur. Birinchi galda nafasni tiklaydigan tadbirlar kuruladi. Nafas analeptiklari (kofein, lobelin gidroxlorid yoki sititon) in'ektsiya kilinadi, zaruriyat bulsa kislorod xidlatiladi, oyok-kullarga grelka kuyiladi, ogzi yigilib kolgan sulaklardan tozalanadi. Uziga kelgach issik va achchik choy yoki kofe beriladi. Keyin esa kasalxonaga yuboriladi.

PREPARATLAR

BARBITAL (Barbitalum) yoki Veronal. Kukun xolida chiqadi, 0,3-0,5 g dan ichiladi.

BARBITAL NATRIY (Barbitalum natrium) yoki Medinal. Kukun xolida chikadi, 0,3-0,5-0,75 g dan qabul qilinadi.

BROMIZOVAL (Bromisovalium)- kukun, tab. 0,3 g dan chiqadi.

Bromizoval glyuferral, paglyuferral, testobromletsit tarkibiga kiradi.

GEMINEYRIN (Hemineurinum) - tuzilishi, vit V1 ga yaqin, lekin vitaminlik xususiyatiga ega emas. Sedativ uxlatuvchi, tutqanoqqa qarshi ta'siri bor. Algokolizmga abstinentsiya sindromini davolashda samarali vosita. Tuquqni oqriqsizlantirishda qam ishlatiladi.

Kapsulasi (500 mg modda saqlaydi), tab. 500 mg; flakonda 0,8 % dan 100 va 500 ml chiqariladi.

METAKVALON (Methaqualonum)-uxlatuvchi, tinchlantiruvchi vosita. Tab. 0,2 g dan chiqadi.

FENOBARBITAL (Phenobarbitalum) yoki Lyuminal. Kukun, 0,005 g tab. bolalar uchun, 0,05 va 0,1 g kattalar uchun chiqariladi.

Fenobarbital antastman, bellergal, valokordin, valoserdin, korvalol, pul'snorma, spazmoveralgin, tabletki "pentalgin", teminal va b. tarkibiga kiradi.

FLUNITRAZEPAM (Flunitrazepam) yoki Narkozep. Tab. 2 mg, amp. 2 mg kuruq modda 1 ml steril suv bilan chiqariladi.

EUNOKTIN (Eunocinum) -Nitrazepam, Neozepam. 0,005 g tab. chiqadi.

TIL SPIRTI FARMAKOLOGIYASI

Rejasi:

1. Etil spirti xakida tushuncha.
2. Etil spirtini ishlatganda yuzaga chikadigan ta'sir turlari.
3. Etil spirtini organizmga bo'lgan ta'sir stadiyalari xakida tushuncha.
4. Etil spirtini OIS so'rilishi va unga nisbatan funktsional kumulyatsiyani paydo bo'lishi.
5. Ichkilikbozlikga va alkogolizmga karshi kurash va ularni davolash masalalari.

Etil spirti o'z ta'siriga ko'ra narkotik moddalarga xos ta'sir etuvchi moddalar gruppasiga kiradi. Uning molekulyar massasi, 79 ga teng bo'lib, 78,40 S da kaynaydi. Etil spirtini ishlatilganda: maxalliy, reflektor va rezorbtiv ta'sirlar yuzaga chikadi.

1. Maxalliy ta'sir: Bu ta'sir etil spirtini lipidlarda erishi, protoplazmadagi oksil komponentlarini suvsizlantirishi natijasida yuzaga chikadi va ta'sir kilgan erini kitiklaydi. Uning maxalliy ta'siri alkagolni konts-yasiga boqlik. Kichik konts-yasida oqiz shillik pardalaridagi kon tomirlarni kengaytiradi va so'lak ajralishini oshiradi. Oshkozonda xam shu ta'sir davom etadi, soklar ajralishi oshadi, ishtaxa kuchayadi. Katta konts-yada esa buni teskarisi yuzaga chikadi. Alkogolni oshqozon sokini oshirishi va ishtaxani ochilishi normal oshkozonda yoki oshkozon funktsiyasi susaygan bemorlarda kuchlirok kurinadi. 25 ml alkogol oshkozonga tushganda oshkozonda ko'p va uzok muddatga ishkoriy slizlarni chikishini ko'paytiradi va oshkozon sekretsiyasini susaytiradi. Alkogolni maxalliy zararsizlantirish va antimikrob ta'siri xam bordir (antiseitika sifatida ishlatilishi).

2. Reflektor ta'sir: alkogol oqiz bo'shliqiga tushishi bilan oshkozonda reflektor yo'l bilan shira ajralishi oshadi. Teriga surtilganda, ichilganda reflektor yo'l bilan miya funktsiyasi oshadi, nafas va yurak-kon tomir markazlari ko'zqaladi va nafas olish tezlashadi, kon tomir va yurak ishi oshadi. Bu narsa kichik konts-yada, yurak ishi normal yoki normadan past bo'lsa yuzaga chikadi. Alkogolni katta konts-yasi reflektor ta'sirni o'ta kuchli yuzaga chikarib, nafasni va yurak ishini sekinlatishi va xatto to'xtatib ko'yishi mumkin. Masalan: toza spirtni ichilganda shunday refleks yuzaga chikadi.

3. Rezorbtiv ta'sir: Alkogol kichik dozalarda ko'zqalish stadiyasisiz umumiy ko'zqalish protsessini susaytiradi va sezuvchi va intellektual bo'limlarni ko'zqalishi susayib ketadi. Shuning uchun tashki muxitdan kelayotgan informatsiya va oqrik chakiruvchi ta'sirotlar normaga nisbatan kamrok kabul kilinadi, ayniksa ko'rish, eshitish va xotiralash ko'prok ta'sirlanadi. Akliy fikr yuritish xam susayadi. Alkogol bo'yarak orkali 4-7% chikib ketadi. Bunda buyrak parenxemalarini kitiklab peshob ajralishini oshiradi.

Alkagolni konts-yasi oshishi bilan eyforiya xolati yuzaga chikadi: bemor kundalik qam tashvishdan xoli bo'ladi, xayotiy kuvnoklik, serxarakatchanlik kabi xolatlar yuzaga chikadi, tankidiy muloxazalar yuzaki bo'ladi. Ba'zilar o'z kuchiga nisbatan yukori baxo berish zo'ravonlik xolati uluq ishlarni yuzaga chikarish, be'zilar esa qamginlik, birovdan kasd olish xolatlari yuzaga chikadi.

Mana shu yukoridagi xolatlar xammada turlicha kuch va sifatda o'tadi. Bu esa alkogolni kabul kilish vakti, tashki temperatura, asosan insonning madaniyatiga boqlikdir.

1 gr alkogol yonganda 7 kkal energiya ajraladi. Bu energiya organizmdagi turli organ funktsiyalarni amalga oshirishga sarf bo'ladi. Susaygan yurak ishini kuchaytiradi, mushaklarni ish kobiliyatini oshiradi, oksidlanish protsessini susaytiradi.

Shu bilan birga etil spirt ta'sirida odamning sezuvchanlik, akl-idrok, ma'naviyat, dikkat-e'tibor va o'ziga nisbatan tankidiy karash xususiyatlari kamayib ketadi.

Etil spirtini organizmga bo'lgan ta'sirida ko'yidagi stadiyalar yuzaga chikadi:

1. Analgiziya stadiyasi;
2. qo'zqalish stadiyasi;
3. Narkoz stadiyasi;
4. Agonal-paralich davri.

Etil spirtini ko'zqalish stadiyasi-davri ancha uzok davom etadi, narkoz davri esa juda kiska bo'lib, tezda agonal-paralich davriga o'tib ketadi. Etil spirti analgiziyaning yuzaga chikaruvchi preparat sifatida deyarlik ishlatilmaydi. Etil spirti OISdan yaxshi so'riladi. Uning 2% yakini oshkozonda, kolganlari esa ichakdan so'riladi. Etil spirti kiska muddatga oqrik koldirish kobiliyatiga ega. U mikroblarni o'ldirishi mumkin. Shuning uchun xam antiseptik sifatida terini, operatsiya joyini, xirurgik asboblarni va jarroxlar ko'lini zararsizlantirish uchun ishlatiladi. Bundan tashkari etil spirti kompress uchun, nevrirlarda davolash (alkogolizatsiya) uchun va turli xil dori-darmonlar (nastoyka) tayyorlash uchun ishlatiladi. Etil spirtini kabul kilinganda tezlik bilan MNS-sini tormozlovchi mexanizmlar ishga tushadi va ular tormozlanadi. Natijada MNS-da ko'zqalish protsessi kuchayib ketadi, ya'ni miya po'stloqi ostidagi markazlar ko'zqaladi. Organizmga tushgan etil spirtini 9% jigarda parchalanadi va SO₂ va N₂O bilan birga katta mikdordagi energiya ajralib chikadi. Alkogolning issiklik ajratish xususiyati ayrim kasalliklarda (kaxeksiya, sun'iy yul bilan ovkatlantirilganda va b.) kuvvat ta'minotini tiklash maksadida foydalaniladi. Lekin spirt oksillar va uglevodlar urnini bosa olmaydi. Chunki u organizm uchun kurilish ashyosi bula olmaydi. Spirtning 90 % i jigarda alkogoldegidrogenaza fermenti ta'sirida parchalanib, mikrosomal etanoloksidlanish tizimi yordamida oksidlanadi. Spirtning kolgan 10 % i nafas yuli va buyrak orkali uzgarmagan xolda chikarib yuboriladi.

Etil spirti konts-yasiga karab ko'zqatuvchi va burushtiruvchi ta'sirga ega 40% etil spirti ko'zqatuvchi ta'sir etsa, 95%-lisi burishtiruvchi ta'sir etadi. Etil spirtini bu ta'siri uning oksillarni denaturatsiya kilishi bilan yuzaga chikadi. Etil spirti 1-2% tida so'lak va oshkozon sekretsiyalarini kuchaytiradi, 4% va undan ortik bo'lganda shu sekretsiyalarni kamaytiradi va oshkozon perestaltikasini susaytiradi. Etil spirtini surinkali istimol kilinganda unga nisbatan moyillik va boqliklik yuzaga chikadi. Birdan ko'p ichib

ko'yganda o'tkir zaxarlanish bo'ladi. Bu esa etil spirtini kondagi konts-yasiga boqlik. Agarda etil spirtini kondagi kontsentratsiyasi 1-2 gG'l yoki 1-2 mg% bo'lsa mastlik xolati, 3-4 gG'l yoki 3-4 mg% bo'lsa xayot uchun xavfli bo'lgan zaxarlanish va 5-8 gG'l yoki 5-8 mg% bo'lsa-agonal-o'lim xolati yuzaga kelishi mumkin.

Alkogolizmning alomatlaridan biri xumor kilishdir. Buni abstinentsiya xolati deyiladi. Bu xumor natijasida odam turli kingir ishlarga (ugirlik, talonchilik va b.) kul urishga majbur buladi. Abstinentsiyaning engil shaklida xarakat kuzgalishi, kaltirash, xavotirlanish, vaximaga tushish, uykusizlik xolati kuzatiladi. Alkogolizmga duchor bulganlarda birinchi galda markaziy nerv sistemasi faoliyatining buzilishi asta-sekin zurayib boradi, intellektning aynishiga, degradatsiyaga (odam kiyofasining buzilishi) olib keladi. Kayfiyati buzilib turadigan, atrofdagi xodisalarga kizikmaydigan, oila, bola-chakaga e'tiborsiz, yurish-turishi, fe'l-atvori uzgaradi, beparvo va daydi bulib koladi. Ish kobiliyati yukoladi, akliy, ma'naviy va boshka xususiyatlari pasayib ketadi. Uning fikrida fakat ichkilik topish ustivor bulib koladi. Borib-borib ogir ruxiy kasalliklar (psixoz) ro'y beradi. Kuziga bulmagan narsalar kurinadi, turli tovushlar eshitiladi (gallyutsinatsiya). Shu bilan bir katorda ichki a'zolar va tizimlarda xam noxush xolatlar kuzatiladi. Yurak-tomir, xazm va endokrin tizimlar, ayniksa jigar faoliyati tubdan izdan chika boshlaydi. Bularga yurakning yog bosishi, miokardiodistrofiya, miokard infarkti, barvakt ateroskleroz, gipertoniya, gastrit, yara kasalligi va jigar kasalliklari misol bula oladi. Shuning bilan birga organizmning yukumli kasalliklarga karshi kurashish kobiliyati pasayishi natijasida bu odamlar xar xil xastaliklarga chalinadigan buladi va shu sababli ularning umri ancha kiskaradi. Alkogolga ruju kuyganlarda endokrin bezlar, jumladan jinsiy bezlar faoliyati susayadi. Ayollar xomila paydo bo'lgan vaktida etil spirtini istimol kilsalar, xomilada akliy va fizik etishmovchiliklar, tuqma defektlar va teratogen xamda embriotoksik ta'sirlar yuzaga chikishi mumkin.

Etanol:

1. qomilani o'sishini susaytiradi;
2. Mikrotsefaliya-miyani xajmini kichiklashtiradi;
3. Xarakat-koordinatsiyani buzadi
4. Yuz o'rta kismini yaxshi rivojlanmasligi;
5. Bo'qinlarni to'la rivojlanmasligi, shuningdek tuqma yurak poroklari, akliy etishmovchiliklari xam kayd etiladi.

Alkogolizmni davolash ikki yunalishda olib boriladi. Birinchisi abstinentsiya xolatiga karshi choralar, ikkinchisi-ichkilikka intilishni, organizm talabini pasaytirish tadbirlari. Shu maksadda trunkvilizatorlar-benzodiazepin unumlari (xlordiazepoksid, diazepam va b.), vitaminlar (tiamin) ishlatiladi. Ushbu dori vositalari abstinentsiyaning kechishini engillashtirsa xam, uning kaytalanishini oldini olmaydi.

Alkogolga intilishni kamaytirish maksadida asosan teturam (antobus, disulfiram) preparati kullanadi. Bu dori vositasi spirtli ichimlik ichmaydigan odamlarda xech kanday uzgarish bermaydi, lekin uni kabul kilingandan keyin ichkilik ichilsa turli noxush xolatlarni keltirib chikaradi. Bezovtalik, boshni lukillab ogrishi, yuzni kizarishi, kungil aynash, kusish, terlash, gipotenziya, es-xushni kirdi-chikdi bulishi, nafasni kiyinlashishi va boshka uzgarishlar kuzatiladi. Teturamning bunday xolatga sabab bulishi, uning spirtni parchalaydigan alkogoldegidrogenaza fermenti ta'siri natijasiida xosil buladigan atsetaldegidning metabolizmini tuxtashi bilan boglik. Organizm uchun zaxarli bulgan bu modda yigilib boradi. Chunki teturam ta'sirida alkogoldegidrogenaza fermentining faolliigi susayadi. Atsetaldegid intoksikatsiyasi yukorida keltirilgan uzgarishlarni keltirib chikaradi. Teturam kabul kilingandan keyin oz mikdorda alkogol berish va buni natijasida buladigan

noxush xolatlarni bulishi odamda ichimlikni ta'mi va xidiga nisbatan salbiy shartli refleks xosil kiladi. Pirovardida odam spirtli ichimliklarni kutara olmaydigan bulib koladi.

Teturam preparati - me'da-ichakdan tez suriladi, lekin uning samarasi 12 soatdan keyin ruyobga chikadi. Preparatni organizmdan chikib ketishi juda sekin, shuning uchun ta'siri uzok davom etadi. Teturam bilan davolash asosan statsionar sharoitda olib boriladi, chunki davolash davomida turli kutilmagan nojuya xolatlar, asoratlar bulishi mumkin. Bundan tashkari, preparatni berishdan oldin bemor tekshiruvdan utkazilib, ayrim kasalliklarda (kandli diabet, tireotoksikoz, gipertoniya, kardioskleroz, miya tomirlari aterosklerozi va b.) teturam tavsiya etilmaydi. Yana teturam tabletka shaklida radoter nomi bilan chikariladi. Bu preparat mushaklar orasiga kuyish (implantatsiya) uchun muljallangan. Bundan asosiy maksad teturam ta'sirini uzaytirishdir. Ushbu preparat “Esperal” nomi bilan xorijiy davlatlarda (Frantsiya) chikariladi. Uzbekiston davlat reestriga va asosiy preparatlar ruyxatiga kiritilgan.

Tsiamid preparati - tarkibida kaltsiy sianamid va limon kislota saklaydi. Ta'sir mexanizmi va ishlatilishi buyicha teturamga yakin.

ALKOGOLIZMGA qarshi PREPARATLAR:

TETURAM (TETURAMUM) tabletkada 0, 15 va 0, 25 g dan chikariladi.

RADOTER TABLETKASI (TABULETTAE RADOTERI) –sterillangan tabletkalar 0, 1 g dan flakonda 10 donadan chikariladi.

TsIAMID (CYAMIDUM). Tabletka shaklida 0, 1 g dan chikariladi.

BIOTREDIN (Biotredin) - 0,1 g L-treonin va 0,005 g piridoksin gidroxlorid saqllovchi tabletkalar.

GLITsIN (Glycinum) -almashinadigan aminokislota. 0,1 g tab. chiqariladi.

LIMONTAR (Limontar) -0,25 g. tab. 0,2 g yantar kislota va 0,05 g limon kislota saqlaydi.

METADOKSIL (Metadoxil) -etanol parchalanishini tezlashtiradi. 500 mg. tab. ampulada 5 ml dan chiqadi (300 mg metadoksin saqlaydi).

LIDEVIN (Lidevin) -teturamni V gurux vitaminlar bilan kompleksi. Tabletkasida 0,5 g teturam; 0,5 mg adenin va 0,3 mg nikotinamid bor.

TALVASAGA qarshi MODDALAR FARMAKOLOGIYASI

Ma'ruza rejasi:

1. Talvasa xakida tushuncha va uning turlari.
2. Talvasa-tutkanok va unga karshi ishlatiladigan preparatlar xakida tushunchalar.
3. Parkinsonizm va uning tutkanokdan farki, parkinsonizmida ishlatiladigan preparatlar xakida tushunchalar.
4. Bu preparatlarni ishlatilishi, ta'sir mexanizmi va ularning nojo'ya ta'sirlari.

Tutkanok surunkali psixo-nevrologik kasallik bulib, kuprok bolalar orasida uchrab turadi (1% atrofida). MNS-ning ba'zi bir jaroxatida va uning kasalliklarida asosiy simptomlardan biri talvasa xolati xisoblaniladi. Bunda bosh miyada patologik kuzgalish uchogi xosil bulib, vakti-vaktida kuzgalish impulslari kuchayadi va tarkalib xuruj keltirib chikaradi. Talvasa MNS-ning kuchli ko'zqalishidan yuzaga chikishi mumkin. Masalan: tutkanokda, stolbnyakda, eklampsiyada va dorilar bilan zaxarlanganda (strixnin,

korozol va b.k.) yuzaga chikadi. Talvasaning kelib chikishida MNS neyronlaridan atsetilxolinni ajralib chikishini oshib ketishi va xolinesteraza fermentining faoliyatini kamayishi sababchi bo'ladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra MNS-sidagi tormozlanishni yuzaga chakiruvchi mediator GAMK-ni (q-aminomoy kislota) kamayishi, glyutamin kislota Vitamin V6 larni etishmovchiligi, katexolaminlar va serotonin almashinuvinining buzilishi xam o'ziga xos rol o'ynaydi. Talvasa-2 xil bo'ladi:

1. Tonik tirishish. Bu skelet mushaklarining (xam bukuvchi, xam yozuvchi mushaklarining) bir vaktida kiskarishidan yuzaga chikadi. Bunda butun organizm bo'ylab kuchli zo'rikish kayd etiladi. Orka miyadagi motoneyronlarning doimiy ko'zqalishidan yuzaga chikadi. Bunda uxlatuvchi-barbituratlar va orka miyaning pastsinaptik tormozlanishini yuzaga chikaruvchi GAMK preparatlari beriladi.

2. Klonik tirishish. Bu bukuvchi va yozuvchi skelet mushaklarining galma-galdan kiskarishidan yuzaga chikadi. Bu o'rta va oralik miyani ko'zqalishidan yuzaga keladi. Ba'zan kuchli ovoz orkali ko'zqalishda, elektr toki o'rganda xam yuzaga chikadi.

Tutkanok kasalligi quyidagi 3 kurinishda namoyon buladi: 1. Katta tutkanok xuruji (grand mal), 2. Kichik tutkanok xuruji (petit mal), 3. Psixomotor ekvivalent xolati.

Katta tutkanok - xuruji birdan boshlanib, bemor xushidan ketadi va yikiladi, tana mushaklari tartibsiz kiskarib (tonik kiskarish), tutkanok tutadi. Ogzidan kupik ajrash bilan bir necha dakika davom etadi. Talvasa tugagach kasal uykuga ketadi. Tutkanokning tez-tez kaytarilishi (epileptik status) ogir xolatlariga sabab buladi.

Kichik tutkanok - xurujida esa bemor bir necha soniyaga xushini yukotib, bir nuktaga tikilib koladi, yikilib tushmaydi, savollarga javob kaytarmaydi. Kupincha yuz mimik mushaklarini titrashi kuzatiladi. Bemor atrofidagi odamlar kupincha bunday xurujni sezmay koladilar.

Psixomotor ekvivalent - xolatida esa tutkanok tutish bulmaydi. Lekin, ma'lum vaktlarda buladigan xayol parishonlik xurujida (ayniksa tunlari) bemorning xarakati, yurish-turishi va ayrim ishlarni notuqri bajarishi mumkin (masalan, transportga tushib aylanib kelishi, uylamay-netmay xatti xarakatlar kilaverishi va boshkalar). Xuruj tugagach bemor xech narsani bilmaydi va eslay olmaydi.

Talvasa xolatida juda ko'p dori moddalari (MNS susaytiruvchi va uning ko'zqaluvchanligini kamaytiruvchi, xarakat markazlarini susaytiruvchi, uxlatuvchi, narkozlovchi, kuraresmon va boshka) ishlatilishi mumkin.

Talvasa va titrokka karshi ta'sir kursatadigan dori vositalari kimyoviy tuzilishi va farmakologik ta'siri, ishlatilishi buyicha turlichadir.

Tutkanokka karshi preparatlarning asosiy guruxlari:

Barbituratlar (fenobarbital, benzonal),

Gidantoin unumlari (difenin),

Oksazolidindion unumlari (trimetin),

Suktsinimidlar (etosuksimid, pufemid),

Iminostilbenlar (karbamazepin),

Benzodiazepinlar (klonazepam),

GAMKergik jarayonlarning stimulyatorlari (atsediprol, vigabatrin),

Neyromediator aminokislotalar ingibitorlari (lamotridjin),

Xar xil tuzilishga ega preparatlar (xlorakon, metindion).

Bir kator uxlatuvchi, tinchlantiruvchi dori vositalari, xususan, barbituratlardan fenobarbital, yukorida kayd etilganidek, 1912 yilda tutkanokka karshi ishlatilgan. 25 yil davomida uning 35 xil unumlari tekshirishdan utkazilgan. 1990 yilgacha asosan 16 dori vositalari tutkanokni davolashda ishlatilgan. Bulardan 13 tasi barbituratlar, gidantoinlar, oksazolidindionlar, suksinamidlar va atsetilmochevina unumlari xisoblanadi. Ular asosan bosh miya pustlok kismidagi xarakat zonalarining kuzgaluvchanligini zaiflashtiradi, shu bilan birga talvasaga sabab bulgan patologik uchokdan impulsar tarkalishini (irradiatsiyasini) susaytiradi. Preparatlar ta'sirida neyron devori pardalari barkarorlashadi, bu esa uz navbatida refrakter davrni uzaytiradi va neyronlararo impulsar utishini kamaytiradi. Xullas, talvasa va titrokka karshi kullanadigan dori vositalarining ta'sir mexanizmi xozirgacha batafsil urganilmagan. Umuman olganda, ularning ta'siri turlicha bulib, neyrofiziologik va neyrokimyoviy jarayonlarga karatilgan. Jumladan, bu dori vositalari ta'siri bosh miyadagi tormozlovchi mediator xisoblangan gamma-aminomoy kislotasining (GAMK) ortishi bilan tushuntiriladi. Bundan tashkari, ularning ta'siri nervlar oxiridagi adenozin uch fosfatazaga karatilgan bulib, mediator ajralishini buzadi degan fikr xam bor. Kiskacha kilib aytganda dori vositalarining ta'siri natijasida GAMK-tormozlovchi mediatorni mikdori oshib, kuzgalishni utishi kamayadi va tok ionlarini bir me'yorda bulishini ta'minlaydi. Bu degan suz tutkanokka karshi ishlatiladigan dori vositalarining davo kursatishining mexanizmi ular ta'sirida neyronlararo kuzgalishning kamayishi, neyronlar kuzgalishining zaiflashishi, tormozlanishning kuchayishi va tormozlovchi neyronlarning kuzgalishi bilan tushuntiriladi.

Bunda tutkanok xurujining nechoglik tez yoki kam bulib turishi, kancha vakt davom etishi va uning turiga karab preparatlar tanlanadi. Bemorga davo kursatishda bir necha preparatlardan yoki tarkibida bir necha dori vositalari saklagan (piraminal, difenin, glyuferol va b.) preparatlardan foydalanish yaxshi samarali xisoblanadi.

Shuni aytib utish kerakki, talvasaga karshi kullanadigan mavjud dori vositalari bemorni darddan butunlay forig kilib yubormay, kasallik xurujini ancha kamaytiradi, uning kechishini engillashtiradi, davom etishiini kiskartiradi. Preparatlar uzok vakt beriladi. 1-1,5 oylik tanaffusdan keyin davo kilish kaytariladi.

Nojuya ta'siri va asoratlari kupchilik preparatlarga xos bulib, ular birinchidan, preparatning kimyoviy tuzilishiga, dozasiga, berilish muddatiga boglik bulsa, ikkinchidan, bemorning dorilarga nisbatan sezuvchanligiga, chidamligiga, kasallikning turiga va kechishiga boglik. Kupchilik dori vositalari bosh aylanishi, uykuchanlik, kul barmoklarining titrashi, ataksiya, kungil aynashi, gemerolopiya (kurishning buzilishi), fotofobiya (nurdan kurkish), dermatit, leykopeniya va boshkalarni keltirib chikaradilar. Bunday uzgarishlar ruy bersa, dori preparatini berish vaktincha tuxtatiladi, zarur choralar kuruladi. Bemorni boshka preparatlar bilan davo kilinadi.

Tutkanokka karshi dori vositalari Uzbekiston davlat reestriga kiritilgan va asosiy preparatlar ruyxatida kayd etilgan kuyidagi dorilar taalukli.

Fenobarbital-uxlatadigan ta'sirga ega bulgani uchun katta tutkanok xurujiga davo kilishda uning kichikrok dozasi (0, 05) foydalaniladi va ancha samarali xisoblanadi. Preparat bilan uzok muddat davo kilishda uning kumulyatsiyaga va karamlikka sabab bula olishini nazarda tutish lozim. Davo davrida bemorda uykuchanlik xolati kuzatilishi mumkin.

Difenin-fenobarbital singari eng eski preparat bulib (1958 y), uxlatuvchi ta'siri bulmasligi bilan boshka dorilardan ajralib turadi. Bosh miyaning xarakat markaziga bulgan ta'siri kuchlirok. Tutkanokning katta xurujlarida keng mikyosda ishlatiladi va ancha samarali xisoblanadi. Uning ta'siri natriy, kaliy va kaltsiy ionlariga, xujayra parda potentsialiga,

aminokislotalar va neyromediatorlarga (noraderenalin, atsetilxolin, GAMK) karatilgan. Difenin bromidlar, fenobarbital va trankvilizatorlar (nozepam) bilan birga kushib berilishi mumkin. Difenin jigar va buyrakning ogir kasalliklarida, yurak faoliyatining etishmovchiligida tavsiya etilmaydi.

Benzonal-fenobarbitalga uxshab tutkanokka karshi ta'sir etadi, lekin uning uxlatuvchi-tinchlantiruvchi ta'siri kuchsizrok. Tutkanokning katta xurujlarida boshka preparatlar (geksamidin, karbamazepin, difenin) bilan birga ishlatiladi.

Shuni aytib utish kerakki, barbituratlar (fenobarbital, benzonal) ayniksa benzonal jigar mikrosomal fermentlari faolligini oshiradi. Ular induktorlar xisoblanadi. Shuning uchun ularni boshka preparatlar bilan tavsiya etilganda bu nazarda tutilishi kerak. Aks xolda kushib ishlatilayotgan dorilarning samarasi bulmasligi mumkin.

Geksamidin-uzining ta'siri buyicha fenobarbitalga uxshab ketadi, lekin unga karama-karshi ularok, uxlatuvchi-tinchlantiruvchi xususiyati yuk va kumulyatsiya keltirib chikarmaydi. U asosan tutkanokning katta xurujida tavsiya etiladi.

Karbamazepin-tutkanokka karshi yukori samaraga ega. Bundan tashkari antidepressiv va kisman ogrik koldiruvchi xossaga ega. Preparat psixomotor kuzgalishda (asosan katta xurujli tutkanokda) kullanadi. Kichik tutkanokda xam samaralidir. Yosh bolalarga xam tavsiya etish mumkin.

Natriy-valproat preparati-tutkanokning katta va kuprok kichik shakllarida ishlatiladi. Uning bunday ta'sir etishi tormozlanish mediatori xisoblangan gamma aminomoy kislotasining (GAMK) metabolzmini ta'minlaydigan GAMK-transferaza (GAMK T) faolligiini kamaytirishi bilan boglik. Buning natijasida GAMK yigila borib pre va postsinaptik kutblanishni va postsinaptik parda kuzgaluvchanligini kamaytiradi.

Keyingi paytda shunga yakin GAMKergik preparatlar olingan (vigobatrין, gavapentin va b.). Natriy valproat keng mikiyosda ishlatiladigan asosiy preparatlardan xisoblanadi.

Xlorakon-yukorida keltirilgan preparatlarga nisbatan ancha xavfsiz, nojuya ta'siri deyarli bilinmaydi, terapevtik ta'sir doirasi keng bulgan preparat. Bemorlar xlorakon bilan davolanishni engil utkazadi. Preparat asosan katta xurujlarda va psixomotor ekvivalent xolatida tavsiya etiladi.

Trimetin-oksazolidin unumi xisoblanadi. Preparat orqa miya polisinaptik reflekslarini susaytiradi, neyronlar labilligini kamaytiradi. Neyronlardan natriy ionlarini faol ajralishi jarayoniga ta'sir etmaydi. Tutqanoqning kichik xurujlarida juda faol. Trimetin-me'da-ichak yo'llarida yaxshi suriladi, jigarda parchalanadi va metabolitlar xolida buyrak orqali chiqib ketadi.

Nojo'ya ta'sirlari: sedativ ta'siri bor, gernalopiya (shapkurliK0 chaqiradi, allergiya berishi mumkin, aplastik anemiya va agronulotsitoz chaqiradi. Buyrak va jigarga salbiy ta'sir etadi.

Etosuksimid-kichik xurujlarda samarali. Trimetinga qaraganda kamroq zaqarli, buyrak, jigar, qon yaratuvchi a'zolarga salbiy ta'siri kamroq. Xolsizlik, bosh aylanishi, dispepsiyalar chaqiradi.

PARKINSONIZMGA KARSHI ISHLATILADIGAN DORI VOSITALARI

Parkinsonizm-surunkali kechib, ekstrapiramid tizim yadrolari shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. Asosiy belgilari: tana mushaklarining tonusini oshishi, kiskarish xolatiga tushib kolishi (rigidlik), notugri xarakat bulishi (akineziya) va titrash (tremor) bilan namoyon buladi. Bu kasallik kupincha miya kon tomirlarining aterosklerozi natijasida va boshka miya kasalliklarida kelib chikadi. Yoshi utib kolgan odamlarda kuprok uchraydi.

Ma'lumotlarga karaganda, bu kasallikda miya tukimasida (bazal gangliylarida) dofamin kamayib ketishi aniklangan. Bundan tashkari, ekstrapiramidal tizimda va miya pustlok osti tugunchalarida xolinergik va dofaminergik jarayonlarni buzilishi, anikrogi, xolinergik faollikni oshishi va dofaminning funktsional faolligini kamayishi aniklangan. Bu kasallikda asosan orka miya va bosh miya poyasining neyronlariga ta'sir etib, ularni kuzgaluvchanligini kamaytiradigan va shu bilan bir katorda orka miya refleksini susaytiradigan dori vositalari kul keladi. Demak, bu xastalikning davosi uchun ikki tizimni muvozanatini saklab turadigan yoki dofaminergik va xolinergik tizimga ta'sir etuvchi preparatlar ishlatilishi urinlidir. Shu maksadda quyidagi preparatlar ishlatiladi:

Dofaminergik retseptorlarni kuzgatuvchi (dofaminergik) preparatlar (levadopa, nakam, madopar, midantan, gludantan, pergolid, memantin).

Xolinergik tizimni tormozlaydigan (atsetilxolinergik) preparatlar (tsiklodol, triperidin, tropatsin, biperiden, etpenal, didipel, dinizin).

Bemorga davo kursatishda bu dori preparatlari uzok vakt davomida beriladi va ular almashtirib turiladi.

Levadopa. Preparat gematoentsefalik tusikdan utib, neyronlarga kira oladigan va dofaminni kupaytiradigan dori vositasi xisoblanadi. Dofaminni oshishi esa kasallik alomatlarini kamaytiradi. Levadopa xarakatsizlanishga (akineziya) kuprok, mushaklarning tonusi oshishiga (rigidlik) kamrok, mushaklar titrashiga (tremor) yanada kuchsizrok ta'sir etadi. Preparatning ta'siri sekin-asta namoyon bulib, bir xaftadan keyin boshlanadi va bir oy mobaynida samarasi yuzaga chikadi. Dori ta'sirida nutk yaxshilanadi, sulak okishi kamayadi. Levadopa bilan davo kilishda uning dozasini oshirib turish tavsiya etiladi. Preparat ovkatdan keyin ichiladi. Kupincha levadopa markaziy va periferik xolinoblokatorlar bilan birga beriladi. Uning karbidopa dori vositasi bilan birga kushilgan preparati (karbidopaQlevadopa) Respublika davlat reestriga kiritilgan.

Midantan-dofaminergik retseptorlarni sezuvchanligini oshiradi, neyronal depodan dofaminning ajralishini kupaytiradi, uning kaytadan depoga surilishini kamaytiradi. Preparat ta'sirida akineziya va rigidlik ancha kamayadi. Tremorga deyarli ta'siri yuk.

Tsiklodol. Farmakologik ta'siri bo'yicha markaziy va periferik ganglioblokator xisoblanadi. Bunda xarakatlantiruvchi impulslarni neyronlararo utishi tusiladi. Natijada rigidlik va akineziya kisman kamayadi. Titrok xolatiga esa ta'siri kuchlirok. Preparat ogiz orkali kabul kilinganda sulak okishi kamayadi, terlash xam kisman kamayadi. Preparat glaukoma kasalligida, taxiaritmiyada, adenomada ishlatilmaydi.

Tsiklodol Uzbekiston davlat reestriga va asosiy dori vositalari ruyxatiga trigeksifenidil nomi bilan kiritilgan.

Dinizin. Farmakologik ta'siri bo'yicha amizilga va diprazinga yakin. Markaziy va periferik xolinoretseptorlarni (kuprok n-xolinoretseptor) bloklaydi. Parkinsonizm va Parkinson kasalligida beriladi. Titrash xolatlarini kamaytiradi.

Tutqanoqqa qarshi ishlatiladigan dori vositalarining ishlatilishi

Preparatlar	Katta tutkanok	Kichik tutkanok	Psixomotor ekvivalent xolati

Fenobarbital	++++	+	0
Difenin	++++	-	+++
Benzonal	+++	-	+
Geksamidin	+++	0	-
Xlorakon	+++	+	+++
Trimetin	+	++++	+
Karbamazepin	++	+	+++
Lamotridjin	+++	+	-
Valproat kislota			+
Bromidlar	+++	+++	
	+	-	0

«+» belgisining mikdori ta'sir kuchini kursatadi

«-» ta'siri yuk

«0» ogirlashtiradigan ta'sir

TUTqANOqqA qARShI VOSITALAR

ATSEDIPROL (Acediprolum) -Valproat natriy. Tab. 0,3 g. va 5 % siropi flakonlarda chiqadi.

BENZOBAMIL (Benzobamylum) - Benzamil. Tab. 0,1 g. dan chiqadi.

BENZONAL (Benzonalum) - Benzobarbital. Tab. 0,05 va 0,1 g chiqariladi.

GEKSAMIDIN (Gexamidinum) -tab. 0,125 va 0,25 g chiqadi.

DIFENIN (Dipheninum) - Fenitoin. Tab. 0,117 g. dan chiqariladi.

KARBAMAZEPIN (Carbamazepinum) - Finlepsin.0,2 g tab. chiqariladi.

KLONAZEPAM (Clonazepamum) Tab. 1 mg dan chiqariladi.

METINDION (Methindionum) - Inteban. Tab. 0,25 g chiqadi.

MIDOKALM (Mydocalm) - Mideton. 0,05 g dan drajeda, 10 % 1 ml ampulada chiqariladi.

PUFEMID (Puphemidum). Tab. 0,25 g dan chiqariladi.

SUKSILEP (Suxilep) - Etosuksimid. Kapsulada 0,25 g dan chiqadi.

TRIMETIN (Trimethinum) - Tridion. Kukun xolida chiqariladi.

FENOBARBITAL (Phenobarbitalum). Kukun, 0,005 g tab. bolalar uchun, 0,05 va 0,1 g kattalar uchun chiqariladi.

GLYUFERAL (Gluferalum)-Kombinirlangan preparat. Tab. fenobarbital - 0,025 g, bromizoval - 0,07 g, kofein benzoat natriy- 0,005 g, kaltsiy glyukonat - 0.2 g. saqlaydi.

PAGLYUFERAL-1,2,3 (Pagluferalum-1,2,3). Tab. 1, 2 i 3, fenobarbital - 0,025; 0,035 yoki 0,05 g, bromizoval, kofeinbenzoat natriy, papaverin gidrokslorid, kaltsiy glyukonat saqlaydi.

FALILEPSIN (Fali-Lepsin) fenobarbital va psevdonorefedrin saqlaydi. 0,1 g tab.da chiqariladi.

XLORAKON (Chloraconum) - Beklamid 0,25 g tab.da chiqariladi.

ANALGETIK DORI VOSITALARINING FARMAKOLOGIYASI

Ma'ruza rejasi:

1. Analgetiklar xakida kiskacha ma'lumotlar.
2. Narkotik analgetiklar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Morfin va uning farmakodinamikasi, ta'sir mexanizmi, kumulyatsiyasi, nojo'ya ta'sirlari va ularning oldini olish va davolash.
4. Morfin o'rnida ishlatiluvchi narkotik analgetiklar farmakologiyasi, ularning ijobiy va salbiy tomonlari.

Analgetiklar deb oqrik koldiruvchi dorilarga aytiladi. Ular organizmda ro'y beradigan turli xildagi oqriklar yuzaga chikkanda ishalatiladi. Oqrik esa turli xil kasalliklarning simptomlaridan biri bo'lib xisoblanadi. Oqriklar fiziologik nuqtai-nazardan karalganda, biron-bir organ yoki to'kimalarning jaroxatlanganini bildiruvchi signal-xabarchidir. Oqriklar ko'pincha uykusizlikdan, ichki organ funktsiyalarini buzilishidan, MNS va OIS-ni jaroxatlanishidan va b.k.-lardan yuzaga chikadi. Kuchli oqriklarda shok xolati rivojlanishi mumkin.

Organizmda oqrikni sezuvchi "notsitseptorlar" deb ataluvchi aloxida retseptorlar bor. Bular afferent nerv tolalarida bo'lib, terida, mushaklarda, sustav kapsulasida, suyak ustki kavatida, ichki organlarda va b.k. keng tarkalgan. Notsitseptorlarni mexanik, ximik va termik ta'sirotlar kiktiklaydi, ba'zan patologik protsesslar xam (masalan: yalliqlanish) oqrik sababchisi bo'lib koladi.

Ba'zi endogen moddalar (bradikinin, gistamin, serotonin, K ionlari va b.k.) xam notsitseptorlarni kiktiklab oqrikni yuzaga chikaradi. Oqrik koldiruvchi dorilar esa narkoz chakiruvchi va uxlatuvchi dorilardan farkli o'larok oqrik koldirishdan boshka sezuvchanliklarni va ongni o'zgartirmaydi.

Oqrik kelib chikishiga, xarakteriga, ta'sir davriga va intensivligiga qarab turli turli xildagi oqrik koldiruvchi dorilar ishlatiladi.

Bu dorilar o'zining farmakologik ta'sirining xarakteriga karab 2 gruppaga bo'linadi:

1. Narkotik oqrik koldiruvchilar;
2. Nonarkotik oqrik koldiruvchilar.

Narkotik analgetiklar tasnifi:

1. Morfin guruxi preparatlari-morfin, morfilong, omnopon, kodein, etilmorfin gidrokslorid, nalorfin, pentazotsin, nalbufin, buprenorfin, butorfanol. DNS-kontinus,
- 2.fenilpiperidin va boshka opioid sintetik analgetiklar-promedol, prosidol, fentanil, remifentanil, loperamid, piritramid, tramadol, tilidin, estotsin,
3. Opiat retseptorlar antagonistlari-nalokson, naltrekson.

Narkotik oqriq koldiruvchi dorilarni asosiy kismini opiy unumlari tashkil etadi. Narkotik analgetiklar MNSga yaqqol susaytiruvchi ta'sir etadi. Bundan tashqari ular kayfiyatni kutarib, eyforiya chaqiradi. Bu esa jismoniy va ruxiy qaramlik rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Morfin - opiyning asosiy alkaloidi. Opiy tarkibida 20 dan ortiq alkaloidlar bo'lib, morfin 10 % ni tashkil etadi.

Morfinning susaytiruvchi ta'sirlari:

a) morfinning asosiy ta'siri uning oqriq koldirish xususiyatidir. Morfinning bu ta'siri 3-5 soat davom etadi va teri ostiga yuborilganda 1-15 min, oqiz orkali yuborilganda esa 2-3 min ichida yuzaga chikadi. Morfinni oqriq qoldiruvchi ta'siri 2 ta asosiy komponentdan iborat:

1. oqriq impulslarini afferent yo'llar markaziy qismida neyronlararo o'tishining bloklanishi,

2. oqriq sezgisini sub'ektiv-emotsional qabul qilishni, oqriqni baqolashni va unga reaksiyani o'zgarishi.

Morfinni analgetik ta'sirida miyada endogen ajralib chikadigan polipeptidlar (endorfin, enkefamin va b.k.) o'ziga xos rol o'ynaydi. Endogen enkefamin va endorfin analgetik ta'sirga ega bo'lib, ular organizmda enkefalinaz ta'sirida parchalanib ketadilar.

Morfin o'z strukturasi bo'yicha enkefalin va endorfingga yaqin bo'lib, bular ta'sir etadigan opiatli retseptorlarga ta'sir etib analgetik ta'sirni kuchaytiradilar. Bundan tashkari morfin organizmda enkefalinaz fermentlarini inaktivatsiyalab enkefalin va endorfinlarni ta'sir kuchi va davrini oshiradilar. Umuman morfin endogen antinotsitseptiv tizimni faollashtiradi. Morfin MNS turli qismlarida oqriq sezgisini neyronlararo berilishini buzadi. U orqa miya orqa shoxlari neyronlari faoliyatini nazorat qiluvchi supraspinal yadroga ta'sir qiladi. Bu yadroga morfin ta'sir ettirilganda analgeziya rivojlanadi. Morfin spinal neyronlarga bevosita susaytiruvchi ta'sir etadi.

Morfin oqriq sezgilarini bosh miya, ayniqsa talamus soxasida berilishini buzadi. Talamus yadrolari va bosh miya po'stloqi o'rtasidagi aloqani buziladi. Bir vaqtda nerv impulslarini kollateral yo'llardan retikulyar formatsiyaga berilishi bloklanadi. Morfin nerv tizimi oliy bo'limlarida oqriq sezgisini qabul qilinishini qam o'zgartiradi.

b) Morfinni tinchlantiruvchi ta'siri miya po'stloqi, miya stvoli retikulyar formatsiyasi, limbik tizim va gipotalamus faolligini susaytirishi bilan boqliq. Morfinni tinchlantiruvchi ta'siri bemorni kayfiyatini oshirishi, ruxiy kayfiyatini yaxshilanishini bilan namoyon bo'ladi. Bunday xolatga eyforiya xolati deymiz. Ba'zi odamlarda bu xolatning teskarisi kayd etiladi, ba'zan esa yuzaki uyku chakiradi. Odamning morfinga karam bulib kolishi-morfinizm shu eyforiya bilan boglik. Morfinizmda aqliy va jismoniy qobiliyat susayib, ozish, soch tukilishi, qabziyat kuzatiladi. Narkomaniyaga qarshi kurash qozirda muxim masala bo'lib qoldi.

v) Uxlatuvchi ta'siri. Morfin urtacha terapevtik dozada odamda mudrok xolatini keltirib chikaradi, ayrim xollarda esa uxlatib xam kuyadi. Uyku juda engil va yuzaki bulib, anik tushlar kurish bilan davom etadi. Uyku tez-tez bulinib turadi. Uykuning bunday uziga xos

engil bulishi morfin ta'sirida markaziy nerv tizimining gipnotik markazlarining kuzgaluvchanligini oshishi bilan tushuntiriladi.

g) Morfinni MNS-dagi ta'sirlaridan yana biri termoregulyatsiya markaziga susaytiruvchi ta'siridir. Shuning uchun xam morfin katta dozalarda temperaturani tushiradi va antidiuretik gormon-vazopressinni mikdorini oshiradi. Shuni xisobiga diurez kamayadi.

d) Morfin nafas markazini susaytiradi. Markazni ko'zqaluvchanligi kamayadi. SO₂ kontsentratsiyasiga va reflektor ta'sirlarga moilligi kamayadi. Nafas olish soni kamayadi, ammo nafas olish amplitudasi oshadi, keyinchalik Cheyn-Stoks simptomi yuzaga chikadi. Morfin bilan zaxarlanganda o'lim nafas markazi falajlanishi bilan boqliq.

e) Yo'tal markaziga ta'siri. Morfinning susaytiruvchi ta'siri natijasida yutal reflekslari ancha kamayadi. Shuning uchun xam morfinning yutalga karshi ta'siri yakkol kurinadi.

yo) qusish markaziga ta'siri. Kupchilik xollarda morfin kayt kilish markaziga susaytiruvchi ta'sir etadi. Lekin, ayrim odamlarda va ayniksa itlarda bu markaz kuzgalib. kayt kilish kuzatiladi. Morfinning bu ta'siri bosh miyaning IV korinchasi ostida joylashgan «Trigger zona»sidagi xemoretseptorlarni kuzgalishi bilan tushuntirish mumkin.

g) morfin OIS xarakatini, sekretsiasini o'zgartiradi: OIS xarakatining tonusi va ichakdagi suvni so'rilishi oshadi, peristaltikasi va sekretsiasini kamayadi. Ichak xarakatini kamayishi, suvlarni so'rilishini oshishi suvsizlangan massani oshirib yuboradi. Bu esa kabziyatni yuzaga chikaradi.

Qo'zg'atuvchi ta'siri:

a) Kuz xarakat nervi markazi kuzgalishi natijasida kuz rangdor pardasidagi aylanma sillik mushaklarining kiskarishi xisobiga kuz korachigi torayadi. Yorug'likka bulgan refleks saklanadi.

b) Adashgan nerv markazining kuzgalishi natijasida yurak urishi sekinlashadi (bradikardiya), nafas yullari toraygani uchun nafas olish kiyinlashadi, sulak okishi oshadi, ayrim xollarda qayt kilish shu nerv faoliyatiga boglik bulishi mumkin.

Morfin bronxlarni mushaklarini, peshob chikarish kanalini, bachadonni va Oddi sfinkterini tonusini oshirib yuboradi. Bronxlarning tonusini oshishida morfin ta'sirida ajralib chikadigan gistaminni roli kattadir. Morfin turli xil travmalarda, kuyish va og'rik kayd etiladigan boshka kasalliklarda, kolika-sanchiklarda, operatsiyaga tayyorlashda va undan keyin, hamda xavfli o'smalarda ishlatiladi.

Uni tuqrukda kayd etiladigan oqriklarni koldirishga ishlatilmaydi, chunki xomilada asfiktsiya chakirishi mumkin. Shuningdek morfinni 2 yoshgacha bo'lgan bolalarga va 60 dan oshgan qariyalarga berish man etiladi. Shuningdek, bronxial astmada, insult, bosh miya jaroxatlanishida, nafas etishmovchiligi, yurak faoliyatining utkir va surunkali etishmovchiligi va umuman nimjonlikda morfin berilmaydi.

Morfin asosan jigarda parchalanadi (konyugatsiyaga uchraydi) va buyrak (80-90 %)orkali, kisman (10%) o't-safrosi bilan chikib ketadi.

Nojo'ya ta'sirlari: ko'ngil aynash, kabziyat, nafasni sustlashishi va unga nisbatan moillikni yuzaga kelishi.

Ko'riladigan amallar: me'dani yuvish, adsorbentlar berish, tuzli ich suruvchi dorilar va nafasni ko'zqotuvchi analeptiklar berish.

Oqir axvolda: morfin antogonistini, plazma o'rinbosalarni, konni va NaCl eritmalarini yuborish, kerak bo'lsa gemodializ kilish. Nalorfin 5%-1 ml amp. morfin chakirgan nafas sustlashligini kaytadan o'z xoliga keltirishi mumkin, lekin narkoz, uxlatuvchi dorilar va etanollar bilan yuzaga kelgan nafas sustlashligiga ta'sir etmaydi.

Morfin o'rnida promedol, omnopon, pentozotsin, fentanil va boshkalar ishlatiladi. Bulardan pentozatsin nafasga kamrok ta'sir etadi va unga moillik kam bo'ladi.

Omnopon - morfin kabi ta'sir ko'rsatadi. Unda 5 ta opiy alkaloidlar bo'lib, shundan 45-50 % ni morfin, 30-35 % ni qolgan alkaloidlar tashkil etadi. Preparat morfinga karaganda ichki organ sillik muskullariga kamrok ta'sir etadi. Bunda spazmolitik ta'sir ko'prok chikadi.

Sintetik preparatlardan promedol to'qridan-to'qri oqrik koldirish kobiliyati morfından 2-4 marta kam bo'lib, spazmolitik ta'siri xisobiga OIS-dagi sillik mushaklarning bo'shashtirishi natijasida bu organlarda yuz berayotgan oqriklar kamayadi.

Tramadol. Sintez yuli bilan olingan analgetik. Turli sababga kura kelib chikkan kuchli va urtacha ogriklarni koldiradi. Ta'siri 15-30 dakikadan keyin boshlanib, 3-5 soat davom etadi. Sedativ ta'siri bor. Terapevtik dozada nafas markazini susaytirmaydi. Eyforiya va karamlik deyarli bilinmaydi. Dori vositalari Uzbekiston davlat reestriga va asosiy preparatlar katoriga kiritilgan.

Fentanil- analgetik aktivligi bo'yicha morfından 100-400 marta kuchlidir, chunki uning oqrik koldiruvchi dozasi juda kichik, lekin ta'sir vaqti qisqa (20-30 daqiqa). Fentanil nafas markazini yaqqol susaytiradi. Bradikardiya beradi. Karamlikka sabab bulishi mumkin. Fentanilning analgetik ta'sirini kuchaytirish va uzaytirish maksadida u neyroleptik guruxiga taalukli droperidol preparati bilan birga yoki ketma-ket yuboriladi. Boshkacha aytganda neyroleptoanalgeziya sifatida kullanadi. Asosan kuchli ogriklar bilan kechadigan xolatlarda (miokard infarkti, xavfli usmalar, ogir jaroxatlanish, shikastlanish va b.), shokni bartaraf etish va boshka maksadlarda anesteziologiyada, travmatologiyada ishlatiladi (1-2 ml 0, 25 % droperidol, 1-2 ml 0, 005 % fentanil mushaklar orasiga yuboriladi). Fentanilning nojuya ta'siri: sulak ajralishi, bronxlar torayishi va bradikardiyanı bartaraf etish maksadida 0, 1 % atropinning 1 ml eritmasi yuboriladi. Xozirda bu ikkala preparat qo'shib, talomanal (innovar) preparati nomi bilan chiqarilgan.

Pentazotsin- analgetik faolligi morfından kamroq. qaramlik va qabziyat qolatlarini kamroq chaqiradi. AG`B ni kutaradi va taxikardiya chaqiradi. Nafas markazini kamroq susaytiradi. preparatning kamroq bo'lsada narkotik analgetiklarga antagonistik ta'siri bor.

Nalokson gidroxlorid. Opiat retseptorlarini antagonisti xisoblanib, morfin keltirib chikargan uzgarishlarni bartaraf etadi. Preparat asosan narkotik analgetiklar bilan utkir zaxarlanishda tavsiya etiladi. In'ektsiya kilinganda ta'siri tez (1-3 dakika) boshlanib; 1-4 soatgacha davom etadi.

Kodein. Farmakologik ta'siri va ishlatilishi buyicha morfından fark kiladi. Uning ogriksizlantirish, eyforiya, uxlatuvchi, nafasni susaytiruvchi ta'siri ancha kam. Lekin uning yutal markaziga susaytiruvchi ta'siri yaxshi seziladi. Shu sababdan kodein tibbiyot amaliyotida yutalga karshi dori vositasi sifatida keng ishlatiladi. Bu borada kodein boshka yutalga karshi kullanadigan preparatlar (glautsin, libeksin, tusupreks va b) orasida eng samarali xisoblanadi.

Narkotik analgetiklarni berish birdan tuxtatilsa abstinentsiya sindromi kuzatiladi. Bu xarakt quzqalishi, agressivlik, uyqusizlik, qurquv xolatları bilan namoyon bo'ladi. Mushaklar qisqarib, tirishish kuzatiladi. diafragma mushakları spazmi tufayli o'lim xolati qam kuzatilishi mumkin.

Morfin guruxiga kiruvchi preparatlarning farmakologik ta'siri bo'yicha taqqoslanishi

Preparatlar	Ogrik qoldiruvchi ta'siri	Nafas markaziga ta'siri	Yutal markaziga ta'sir	Sedativ ta'sir	Eyforiya xolati	Ta'sir muddati	Karamlik xolati
Morfin	+++	+++	+++	++	+++	+++	+++
Omnopon	++	++	+	+	+	+++	++
Promedol	++	+	+	+	+	+++	+
Tramadol	++	+	+	++	+	+++	+
Fentanil	++++	+++	+++	+++	+++	+	++
Kodein	+	-	+++	+	+	+++	+
Etil-morfin	+	-	+++	+	+	+++	+

NONARKOTIK ANALGETIKLAR

Reja:

1. Nonarkotik analgetiklar xakida tushuncha.
2. Bu preparatlarning asosiy ishlatilish soxalari;
3. Yalliqlanish va uning o'ziga xos belgilari.
4. Nonarkotik analgetiklarning tasnifi, ularning ishlatilishi, ijobiy va salbiy xossalari.
5. Bu preparatlarning prostoglandinlar sinteziga ta'siri va analgetiklarning ta'sir mexanizmidagi roli.

Nonarkotik analgetiklar narkotik analgetiklardan o'zining asosiy xususiyatlari bilan fark kiladilar.

Bular:

1. Analgetik ta'siri kamroq
2. Og'riq qoldiruvchi ta'sir mexanizmi periferik nerv tizimiga yo'naltirilgan
3. Uxlatuvchi ta'siri yo'k
4. Nafasni susaytirmaydi
5. Yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega.
6. Urganish chaqirmaydi
7. Karamlik chaqirmaydi

Демак, бу препаратлар оғрик колдириш, хароратни тушириш ва яллиғланишга karshi ta'sirga egadirlar. Shu ko'rsatilgan ta'sirlardan birontasi preparatlarning turiga karab

ularda ko'prok kayd etilishi mumkin. Bu preparatlar travmalar, operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan kuchli oqriklarda deyarlik ta'sir etmaydilar.

Preparatlar yalliqilanish bilan boqlik oqriklarda yaxshi yordam berar ekan, yalliqilanishga xos belgilarni bilishimiz shart:

1. To'kimalar kizaradi (rubor);
2. To'kimalar shishadi (tumor);
3. To'kimalarning xarorati ko'tariladi (color);
4. Shu erda oqrik paydo bo'ladi (dolor);
5. Shu to'kima faoliyatiga boqlik organ faoliyati buziladi yoki butunlay yo'koladi (funccia laesa);

Nonarkotik analgetiklarga kuyidagi grupp preparatlari kiradi:

Zamonaviy YaqNPlarni asosini karbon va enolin kislota unumlari tashkil etadi.

I. Karbon kislota unumlariga:

1. Salitsil kislota unumlari (atsetilsalitsil kislota, diflunizol, Bekartan va tosibenlar).
2. Sirka kislota unumlari (indometatsin, Sulindak, tolmetil, Ibufenak, Fenklorak, Sofenak, Pranoprofen va b.
3. Propion kislota unumlari (Ibuprofen, Naproksen, Ketoprofen, Pirprofen, Surgam, Fenoprofen va b.
4. Antranil kislota unumlari (flufenam, mefenam kislota, Valtaren, Aktal, Tolfenam kislota va b.)
5. Nikotin kislota unumlari (niflum kislota, Kloniksin va b).

II. Энولين кислота унумларига

1. Pirazon unumlari (fenilbutazon, Oksifenilbutazon, Amidopirin, Butadion, Tomanol, Bumadizon va b).
2. Oksikam unumlari (Piroksikam, Izoksikam va Sudoksikamlar).

Narkotik analgetiklarning ta'sir mexanizmi prostoglandinlar sintezini kamaytirish bilan boqliq. Ma'lumki, prostoglandinlar notsitseptorlarni kimyoviy va mexanik omillarga sezuvchanligini oshirib yuboradi. Prostoglandinlar sintezini susayishi oqriq sezuvchanlikni kamayishiga olib keladi. Nonarkotik analgetiklar yalliqilgan organ va to'kimalarda kayd etilayotgan oqriklarni yaxshirok oladi. Ular sezuchan nerv tolalari oxiridagi retseptorlarni stimulyatsiyalovchi bradikinin ta'sirini susaytiradilar yoki butunlay olib tashlaydilar. Natijada oqrik sezilarli darajada kamayadi. Nonarkotik analgetiklar shishni kamaytirib, retseptorlar oxirlarini mexanik bosilishini bartaraf etadi, bu xam oqriq sezgisini birmuncha susayishiga olib keladi. Fenatsetin va paratsetamolda oqriq qoldirishning markaziy komponenti borligi aniqlangan, chunki ularda periferik ta'sir yo'q, lekin yaxshigina oqriq qoldiradi.

Odam tanasining xarorati 36, 5-36, 80 S atrofida buladi. Shunday xaroratda odam organizmidagi a'zolar va tizimlarning faoliyati, kimyoviy va biokimyoviy jarayonlar, moddalar almashinuvi, oksidlanish-kaytarilish jarayonlari va boshkalar normal davom etib boradi. Tana xarorati asosan ikkita manba: a) jigarda tuxtovsiz bulib turadigan ekzotermal kimyoviy va biokimyoviy reaksiyalar xisobiga, b) tana mushaklarining kiskarishi vaktida-kuvvat ajralib chikishi xisobiga ta'minlanadi. Bundan tashkari, endokrin bezlar va doimo ishlab turadigan a'zolar xisobiga xam tana issiklik bilan ta'minlanadi. Nonarkotik analgetiklar isitmani tushiruvchi ta'siri prostoglandinlar sintezini kamayishi bilan boqliq. Prostoglandinlarni kamayishi gipotalamusda joylashgan termoregulyatsiya markazini ta'sirlanishini kamaytiradi. Prostoglandinlardan E1 ayniqsa pirogen xususiyatga ega. Isitma

tushishi issiqlikni chiqarilishi kuchayishi bilan xam boqliq. Teri tomirlari kengayadi, ter ajralishi kuchayadi, natijada tana xarorati tushadi. Gipotermik samara faqat tana xarorati baland bo'lganda kuzatiladi, normal xaroratda nonarkotiklar tana xaroratini o'zgartirmaydi.

Preparatlarning yalliqlanishga karshi ta'siri buyrak usti bezlarining pustlok kismidan ishlanib chikadigan gormonlar metabolizmini susayishi bilan boqliq. Shuning xisobiga gidrokortizonning kondagi mikdori ortadi. Bu esa kon tomirlari utkazuvchanligini susaytiradi va yalliglanish jarayonining kamayishiga olib keladi. Bundan tashkari, nonarkotik analgetiklarning yalliglanishga karshi ta'siri ushbu jarayonda katnashadigan siklooksigenazani ingibirlanishi bilan boqliq SOG-2 yalliqlanishdagi prostoglandinlarni ishlab chiqarilishiga yordam bersa, SOG-1 esa me'dani ximoya qiluvchi, trombositlar faoliyatini va buyrakda qon aylanishini, bachadon qisqarishini yaxshilovchi prostoglandinlarni sintezini kuchaytiradi. Gastropatiyalar, nonarkotiklarni uzoq qabul qilgan ayollarda bachadon faolligini sustligi SOG-2 bilan birga SOG-2 ni xam ingibirlanishiga boqliq. Shu sababli keyigi yillarda selektiv (TsOG-2 ingibitori) ta'sirga ega nimesulid, meloksikam, nabumeton, etodolak preparatlari yaratildi.

Salitsilatlar-yalliglanishga karshi ta'siri birinchi urinda turadi, ikkinchi urinda esa isitma tushiruvchi va oxirgi urinda ogrikni koldiruvchi ta'siri turadi. Salitsilatlar nafasni stimullaydi, bu ayniqsa katta dozalarda kuzatiladi. Preparatlar nafas markaziga bevosita qo'zqatuvchi ta'sir etadi, shuningdek, to'qimalarda ko'mir kislota xosil bo'lishi kupayishi xam nafas olishni reflektor qitiqlaydi. Nafasni chastotasi va amplitudasi oshishi respirator alkalozga olib keladi, lekin bu buyrak tomonidan tezda bartaraf etiladi. Salitsilatlar yurak-qon tomir tizimiga kam ta'sir etadi. Faqat yuqori dozalarda bevosita tomir kengaytiruvchi ta'sirga etadi. Preparatlar jigarga ta'sir etib, o't ajralishini kuchaytiradi. Buyrakda uratlar va fosfatlarning reabsorbtsiyasini susaytiradi. Peshob kislota ekskretsiyasini kuchaytirishi esa podagrada foydali xisoblanadi. Salitsilatlar trombositlar agregatsiyasiga qarshilik qiladi, natijada qon ivishi susayadi. Salitsilatlar katta dozalarda aminokislotalar, yoq kislotalarni sintezini kamaytiradi, parchalanishini tezlashtiradi. Salitsilatlar katta dozalarda ishlatilganda gipofizdan AKTG gormoni chikishini kupaytiradi. Ular qandli diabetda qondagi qand miqdorini kamaytiradi.

Salitsilatlar me'da-ichakda tez va to'la suriladi, to'qima barerlaridan yaxshi o'tadi. Jigarda parchalanib, buyrak orqali chiqib ketadi. Salitsilatlar revmatik kasalliklarda, nevrалgiyalarda, mialgiyalarda, bo'gim oqriqlarida ishlatiladi. Tana xaroratini tushirish uchun faqat juda yuqori xaroratlarda berish tavsiya etiladi.

Salitsilatlar dispepsiya, kusish, kungil aynish chaqiradi. me'da-ichak shilliq qavatini shikastlab, gastrit, yara kasalligini chaqiradi. Bu Allergik reaksiyalar, eshitishni pasayishi, quloq shanqillashiga olib kelishi mumkin. Ular kuchsiz bo'lsa qam immunodepressiv, mutagen ta'sirlarga ega. Gastrit, yaralarda, xomilador va emizikli ayollarga, 2 yoshgacha bolalarga, leykopeniyalarda, jigar, yurak, buyrakni oqir shikastlanishlarida berish mumkin emas.

Anilin unumlariga fenatsetin va paratsetamol preparatlari kiradi, bular asosan ogrik koldiruvchi va isitma tushiruvchi ta'sirga ega. Shuning uchun xam ular kupincha bosh, tish ogrigida va uncha kuchli bulmagan boshka xil ogriklarda ishlatiladi. Bu preparatlar farmakologik xossalari, ishlatilishi jixatidan bir xil. Ular me'da-ichakdan tez suriladi va kon'yugatsiyalanib buyraklardan chikib ketadi.

Terapevtik dozalarda ishlatiladigan bulsa, anilin unumlari deyarli nojuya ta'sir kursatmaydi, kungilsiz asoratlar bermaydi. Lekin uzok vakt davomida berilsa, ayniksa, fenatsetin dozasi oshirilib yuborilsa, konda metgemoglobin va sulfgemoglobin xosil bulib,

gemolitik kamkonlik vujudga kelishi mumkin. Bunday xollarda dorilarni berish tuxtatiladi. Simptomatik davo kilinadi (1 % li metil kuki venaga yuboriladi, kon kuyiladi va boshkalar).

Pirazonon unumlariga analgin, amidopirin, butadion, antipirin kiradi. Bu preparatlarning asosiy farmakologik xossalari:ogrik koldiruvchi, isitma tushiruvchi va yalliglanishga karshi ta'sir kursatishdan iborat. Ogrikni koldiruvchi ta'siri buyicha pirazonon unumlari nonarkotik analgetiklar ichida birinchi urinda turadi. Ular yalliglanishga alokador va nevrologik xususdagi ogriklarni (tish ogrigi, bosh ogrigi, miozit, nevrit, artrit va poliartritlar, pleksit va boshkalar) yaxshi koldiradi. Analgin xattoki buyrak toshi, ut toshiga alokador kuchli ogriklar maxalida xam ishlatiladi. Uni narkotik analgetiklar, neyroleptiklar, xolinolitiklar, spazmolitiklar va boshkalar (tempalgin, baralgin va b.) bilan birga ishlatish mumkin.

Pirazonon unumlari isitma tushirish va yalliglanishga karshi ta'siri buyicha salitsilatlariga yakinlashadi. Shu sababli bu gurux preparatlari revmatizm kasalligida xam tavsiya etilishi mumkin. Butadion uzining farmakologik xossasi buyicha yalliglanishga karshi ancha samarali preparat xisoblanadi. Shuning bilan bir katorda pirazonon unumlari nojuya ta'sirga xam ega. Masalan, amidopirin va analginni uzok vakt yoki katta dozalarda ishlatilsa, kupincha ok kon tanachalari kamayib, agronulotsitoz yoki leykopeniya boshlanadi. Bu xolat bemor organizmi uchun ancha xavfli xisoblanadi. Chunki organizmning kasallikka nisbatan karshiligi ancha pasayadi va kupincha organizm xar xil yukumli kasalliklarga chalinadigan bulib koladi, xattoki sepsis boshlanishi xam mumkin. Shuning uchun bu preparatlarni ishlatish davomida kondagi leykotsitlar soni nazorat kilib turiladi. Agar amidopirin va analgin shunday asoratlarni keltirib chikaradigan bulsa, darxol ularni berish tuxtatiladi va tegishli davo chorasi kilinadi; kon kuyiladi, pentoksil, leykogen preparatlari, zaruriyat bulsa, antibakterial preparatlar beriladi.

Ayrim xollarda pirazonon unumlari allergiya xolatlarini xam keltirib chikarishi mumkin. Bunday xolatda preparatlarni ishlatish tuxtatilib, allergiyaga karshi preparatlar (dimedrol, pipolfen, suprastin va boshkalar) beriladi. Butadion tibbiyotda asosan revmatizm va podagra kasalliklarida buyuriladi. U pirazonon unumlari ichida asorati va salbiy ta'siri kuprok bulgan preparatlardan xisoblanadi, ayni vaktida u maxalliy ta'sir xam kursatadi. Shuning uchun xam butadion och koringa, naxorga berilmaydi. Aks xolda preparat korin ogrigi, kungil aynashi, kusish, me'dadan kon ketishi va boshkalarga sabab bulishi mumkin. Ayrim xollarda butadion shish kelishi, allergik reaksiyalar boshlanishi, agronulotsitoz va aplastik kamkonlik boshlanishiga sabab buladi. Shuning uchun kamkonlikda, me'da-ichak kasalliklari, yurak faoliyatining kamchiligi va jigar kasalliklarida butadion berilmaydi. Nojuya ta'siri va asoratlari boshlanganida butadion berish tuxtatiladi. Simptomatik davo kilinadi (kon kuyiladi, kon stimulyatorlari, allergiyaga karshi dori preparatlari buyuriladi). Butadion analgin bilan birga reopirin nomi bilan chikariladi.

Keyingi vaktida farmakologik ta'siri buyicha nonarkotiklarga yakin turadigan, lekin ta'siri ancha kuchli preparatlar olindi, ular revmatizmga karshi ishlatiladi. Indometatsin, brufen, naproksen, diklofenak-natriy va boshkalar shular jumlasidandir.

Indometatsin-indol sirka kislota unumi bulib, yalliglanishga karshi ta'siri buyicha ancha samarali (salitsilat va butadiondan kuchli) preparat xisoblanadi. U ogrik koldiradi, xam isitma tushiradi. Indometatsin revmatizm va unga uxshash buqim kasalliklari (artrit, poliartritlar), podagra keng kullaniladi.

Indometatsinning nojuya ta'siri xam bor. U kungil aynashi, kayt kilish, bosh ogrigi, bosh aylanishi, ayrim xollarda esa agronulotsitoz va aplastik kamkonlikka sabab bulishi mumkin. Umuman indometatsin ancha naf beradigan dori preparati bulishi bilan birga, bir

kadar zaxarli xamdir. Indometatsin xam, aspirin singari, me'da-un ikki barmok ichak yara kasalligida berilmaydi.

Diklofenak (ortofen). Yalliglanishga karshi, ogrik koldiruvchi va isitma tushiruvchi ta'sir etadi. Yalliglanishga karshi va ogrik koldiruvchi ta'siri buyicha aspirindan, butadiondan va ibuprofendan kuchli. Revmatizmga karshi samarasi buyicha prednizolon va indometatsindan kolishmaydi.

Brufen (ibuprofen). Fenilpropionat kislota unumi bulib, yalliglanishga karshi ta'siri buyicha butadionga yakinlashadi, lekin salitsilatlardan kuchli. Brufen indometatsinga nisbatan xavfsiz. Nojuya ta'siri va beradigan asoratlari uncha kup emas-asosan me'da-ichak tizimi faoliyatining izdan chikishiga sabab bulishi mumkin. Bemorlar bu preparatni kuprok xush kuradi.

Naproxen-naftil propionat kislota unumi. Yallig'lanishga karshi va ogrikni koldiruvchi preparat. Ta'siri uzokrok chuziladigan bulgani uchun bir kecha-kunduzda fakat ikki marta buyuriladi. Ogrik koldiradigan ta'siri ancha sezilarli.

ANTIDEPRESSANTLAR, LITIY PREPARATLARI VA NOOTROPLAR

Odamning ruxiy faoliyati ikki jarayon: tuygu-xissiyot va fikrlashdan iborat. Tuygu-xissiyot asosan MNTni pustlok ostidagi limbik tizim-orka gipotalamus va talamus faoliyati, yukori darajali nozik, nafis, axlokka oid tuygu-xissiyotlar miya pustlogining faoliyati, fikrlash, asosan miya pustlogi, gipotalamus xamda gippokamp faoliyati bilan boglik. Miya pustlogining faolligiga asosan retikulyar formatsiya ta'sir kiladi.

Ma'lumki, odamning ruxiy xolati oliy nerv faoliyatining ancha murakkab kurinishi bulib, ichki va tashki muxitda bulayotgan xodisalarni tugri talkin kila bilish va bularga baxo berib, tegishli munosabatda bulish kobiliyatiga boglikdir. Odamning yurish-turishi, uzgalar bilan munosabati, jamiyatda tutgan urni, ish faoliyati va boshkalar uning ruxiy xolatiga kup tomondan boglik buladi. Bu xolatning xar xil sabablarga kura buzilishi ruxiy kasallikka olib kelishi mumkin. Bunday xastaliklarning kelib chikishida irsiy omil, yoshlikdagi tarbiya, ijtimoiy omillar va atrofdagi nobop muxitning ta'siri katta.

Shizofreniya surunkali kechadigan ogir kasallik bulib, vakti-vaktida xuruj kilib turishi va xurujlari turlicha namoyon bulishi bilan ta'riflanadi. Masalan, uning maniakal, paranoid, depressiv shakllari bor. Kasallik xuruj kilib kolgan maxalda psixomotor kuzgalish xolati vujudga keladi. Shunday vaqtda antidepressantlar va litiy preparatlari ishlatiladi.

Antidepressantlar deb, ruxan tushkunlik xolatini, kayfiyatni yaxshilaydigan preparatlarga aytiladi. Ma'lumki, ayrim ruxiy xolatlar ruxiy tushkunlik, kam xarakatchanlik, kam xafsalalik va kayfiyatning buzilishi bilan kechadi. Ruxiy tushkunlikning (depressiya) ogir shakllari xayot uchun xavfli xisoblanadi. Chunki ayrim xollarda (shizofreniyada) odam uz joniga kasd kilishga intiladi.

Antidepressantlarning ta'sir mexanizmiga kursa tasnifi kuyidagicha:

1. MAO ingibitorlari-kaytmas (nialamid) va kaytar ta'sirga ega (pirazidol, tetrindol, inkazan, moklobemid, befol) preparatlar,

2. Neyronal kayta ushlanish ingibitorlari -tanlamasdan (imipramin, dezipramin, klomipramin, opipramol, amitriptilin, azafen, ftoratsizin, maprotilin) va tanlab ta'sir kursatuvchi (trazodon, fluoksetin, fluvoksamin, sertralin, paroksetin) preparatlar,

3. Xar xil guruxga mansub vositalar (tianeptin, sidnofen).

Monoaminooksidaza (MAO) ingibitorlari. MAO ingibitorlari serotonin va noradrenalinni oksilovchi dezaminlanishini susaytiradi, natijada ular miya to'qimasida to'planadi. Bu preparatlar GAMK almashinuviga xam ta'sir etadi degan fikr bor. Antidepressiv ta'sirdan tashqari MAO ingibitorlari psixostimullovchi xususiyatga xam ega, eyforiya, qo'zqalish, uyqusizlik chaqiradi. MAO ingibitorlari rezerpinni sedativ, gipotenziv samalariga antagonistik ta'sir etadi. MAO ingibitorlari adrenomimetiklarni pressor effektini kuchaytiradi, gipotenziv ta'sir etadi. Preparatlar MAOdan tashqari jigar mikrosomal fermentlarini qam ingibirlaydi va dorilar ta'sirini uzaytiradi. MAO ingibitorlari zaxarliligi kuchli bo'lgani uchun ishlatilishi cheklangan, ayniqsa jigarga salbiy ta'sir etadi, MNSni qo'zqatib, titrash, tirishish, uyqusizlik chaqiradi.

Ushbu gurux preparatlari ichida nialamid kup ishlatiladigan bulib, terapevtik ta'siri 8-14 kun davomida asta-sekin yuzaga chikadi. MAO fermenti tusilishi 11-12 soat davom etadi. Kasallarni davolash uchun 1-4 oy zarur buladi.

Antidepressant xisoblangan nialamid preparati MAO fermentiga ta'siriga kura ipraziddan kuchsiz va zaxarliligi xam kamrok. Rezerpin ta'siri bilan boglik bulgan tushkunlik xolatini yukotadi. Nojuya ta'siri ancha kam.

MAO ingibitorlari guruxiga pirazidol va inkazan preparatlari xam kiradi. Pirazidol MAO fermentini tusishi bilan birga noradrenalinning presinaptik parda orkali kaytadan utishini tormozlaydi. Ta'sir doirasi ancha keng. Ruxiy tushkunlikning xar xil shakllarida keng ishlatiladi. Pirazidol sedativ ta'siriga ega, M-xolinobloklovchi ta'siri yo'q. Preparatni bemorlar yaxshi qabul qiladi.

Inkazan antidepressiv ta'siriga kura pirazidolga yakin. Rezerpinning antagonisti bulgan fenamin, L-Dofa, 5-oksitriptofan ta'sirini kuchaytiradi. Xolinolitik ta'siri yuk.

Keyingi gurux boshkacha nom bilan uch siklik antidepressantlar xam deyiladi. Bu guruxga kiruvchi preparatlar MAO fermentiga ta'sir etmay, markaziy nerv tizimidagi adrenergik jarayonlarni zuraytiradi. Anikrogi, ular ta'sirida mediator bulgan noradrenalinning depodan sinaptik bushlikka chikishini orttiradi, uning kaytadan depoga utishini sekinlashtiradi va shu sababli mediatorning mikdori kupayishi xisobiga miyadagi adrenoretseptorlar kuzgaladi. Bundan tashkari, uch siklik preparatlar ta'sirida serotoninergik jarayonlar zurayadi degan fikrlar xam bor. Seratoninning limbik tizimga tormozlovchi ta'sirining kuchayishi xam antidepressantlar ta'sir mexanizmida aloxida axamiyatga ega. Bu guruxga asosan imizin va amitriptilin kiradi.

Imizin (imipramin) preparati-antidepressiv, birmuncha sedativ va ayrim xollarda esa psixostimullovchi ta'sir kursatadi. Antidepressiv samarasining mexanizmi yukorida kayd kilingan adrenergik jarayonlarning zurayishi bilan boglik. Sedativ samara (mexanizmi yukorida bayon kilingan) esa imizinning markaziy M-xolinoretseptorlarini tusuvchi ta'siri bilan ta'riflanadi. Preparatning psixostimullovchi ta'siri ayrim xollarda bilinar-bilinmas umumiy kuzgalish, kayfiyatning yaxshilanishi, uykuning buzilishiga olib kelishi mumkin. Imizin periferik M-xolinolitik xossasiga xam ega. Shuning uchun kasallarni davolashda atropinga xos bulgan uzgarishlar xam bulib turadi. Bundan tashkari, antidepressant kisman papaveringa uxshash va gistaminga karshi ta'sir kursatadi.

Me'da-ichak tizimidan imizin yaxshi suriladi. Terapevtik samarasi asosan 2-3 xaftadan keyin boshlanadi. Preparat tanada metabolizmga uchrab, metabolitlar, kon'yugatlar va kisman uzgarmagan xolda peshob bilan chikariladi. Imizinning nojuya ta'siri kupincha, atropinga uxshash, periferik ta'siri bilan boglik buladi (ogizning kurishi, taxikardiya, kuz korachigining kengayishi, akkomadatsiyaning uzgarishi va boshkalar). Allergik reaksiyalar,

kungil aynishi va boshka uzgarishlar xam kuzatiladi. Markaziy nerv tizimi faoliyatining buzilishi uyqusizlik, umumiy kuzgalish, xavotirlanish va dovdirashga sabab bulishi mumkin.

Bunday nojuya xolatlarida preparat berish tuxtatiladi. Me'da faollangan kumirli suv bilan chayiladi, tuzli surgilar beriladi. Ushbu xolatda barbituratlar, aritmiya va taxikardiyada esa antixolinesteraza preparatlari tavsiya etiladi.

Amitriptilinning farmakologik ta'siri imizinga yakin. Lekin amitriptilinda antidepressiv ta'sir kuchlirok va psixosedativ samara bilan birga kechadi. Psixostimullovchi ta'siri esa yuk. Bundan tashkari, amitriptilinning M-xolinolitik va antigistaminlik ta'siri imizinnikidan kuchlirok. Amitriptilinning psixosedativ ta'siri markaziy M-xolinolitik xossasi bilan boglik bulsa kerak degan fikr bor. Bunday xususiyatlarning borligi sababli bemorlarni davolashda preparat samarasi imizinga nisbatan tezrok yuzaga chikadi. Nojuya ta'siri imizinnikiga uxshash.

Litiy preparatlari. Litiy tuzlari maniakal xolatlarni oldini olish va davolashda ishlatiladi. Ta'sir mexanizmi noradrenalinning nerv oxirlaridan ajralishini kamaytirish yoki uning parchalanishini tezlashtirish bilan boglik deb xisoblanadi. Enteral yuborilganda yaxshi suriladi, tanada bir tekis taksimlanadi. Filtratsiya yuli bilan buyraklar orkali chikib ketadi. Yarim chikarilish davri 24 soatga teng. Parxezda natriy xlorid mikdorini oshirish yuli bilan eliminatsiyasini tezlashtirish mumkin. Neyroleptiklardan samarasining sekin rivojlanishi (2-3 xaftada), maniyalarda (maniakal-depressiv psixozlarda) tanlab ta'sir kursatishi va sedativ ta'siri yukligi bilan fark kiladi. Litiy tuzlari kichik terapevtik ta'sir kengligiga egaligi sababli doim kondagi mikdori nazorat ostida bulishi lozim (1, 6 mekvG`l dan oshmasligi kerak). Litiy tuzlarining nojuya tomonlari:dispepsiyalar, mushaklarning zaiflashishi, tremor, poliuriya, chankoklik, bukok rivojlanishi. Litiy tuzlari tanada tuplanib, zaxarlanishlarga olib kelishi mumkin, bunda diareya, kusish, ataksiya, tirishishlar va dizartriya kuzatiladi. Ogir xollarda esa karaxtlik va ulim bilan yakunlanishi mumkin. Zaxarlanishlarda asosiy yordam litiyni tanadan chikishini tezlashtirishga karatiladi (diuretiklar, gemodializ va xak.). Amalda litiyning bir necha tuzlari ishlatiladi (karbonat, xlorid, yodid, atsetat va sitrat). Ularning ichida kuprok tarkalgani litiy karbonat xisoblanadi.

Litiy karbonat. Preparat psixomotor kuzgalishida kor kiladi. Ta'sir mexanizmi uncha anik emas. Litiy preparatlarining xususiyatlaridan biri shuki, u xar xil maniya xolatlarida, ya'ni kasallik ta'sirida bemor uzini buyuk odam deb biladigan ulugvorlik vasvasasi, manmanlik,ta'kib vasvasalarida kuprok naf beradi.

Nootropilar. Nootrop-termin-nomi 1972 y piratsitam preparatining avtori K.Jiurdjsa tomonidan berilgan. Bu yunoncha so'z bo'lib (noos-fikr yuritish va tropos-intilish) asosan _ bu moddalar ruxiy va akliy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Ular xotirani va akliy faoliyatni yaxshilaydi va miyani gipoksiyaga chidamliligini oshiradi.Bemorlarda fikr yuritish funktsiyasini va ekstremal ta'sirlarga nisbatan rezistentligini oshiradi.

Bu gruppaning asosiy preparatlariga.

1. piratsitam-kapsula
2. nootropil.
3. aminolon
4. natriy oksibutirat
5. Fenibut-por.
6. pantagam kiradi.

Bu grupp preparatlari farmakologik ta'siri bo'yicha boshka psixotrop preparatlardan farklanadi. Bular kuchli darajada ruxiyatini stimullaydi, MNS-ga sedativ ta'sirlar

ko'rsatmaydi. Shu bilan birga bu moddalar markaziy neyronlardan o'tuvchi ko'zqalish protsesslarini zo'raytiradi, natijada MNS-dagi miya, po'stoKlari orasidagi biridan-biriga o'tadigan informatsiyalarni o'tishini engillashtiradi.

Nootroplar MNS-da moddalar almashinuvini va ularni kon bilan ta'minlanishini kuchaytiradi. Nootroplarning yana bir xarakterli ta'siri-bu uning gipoksiyaga karshi ta'siridir. Ular to'kimalarni O₂-ga nisbatan bo'lgan talabini kamaytiradi va ularning gipoksiyaga chidamligini oshiradi.

Bu preparatlar miyaning bioelektrik faolligini o'zgartmaydi. Uxlaturvchi va oqrik koldiruvchi ta'sirga xam ega emas va birga ishlatilganda ularning ta'sirini o'zgartirmaydi. Ular vegetativ nerv sistemasiga xam ta'sir etmaydilar.

Nootrop moddalar gamma aminomoy kislotasiga yakin bo'lsa xam, ularni mikdorini MNSda oshirmaydi, lekin ular miyadagi GAMK-ergik retseptorlarni tormozlanish protsessini kuchaytiradi. Ular dofamin sintezini kuchaytiradi va noradrenalin mikdorini oshiradi. Ular moddalar almashinuvini yaxshilab glyukozaning to'kimalarga o'tishini orttiradi, adenozintrifosfat sintezini oshiradi va membranalar o'tkazuvchanligini mustaxkamlaydi. Nootrop moddalarni "neyrometabolik" moddalar deb xam ataladi.

Ular asosan geriatriyada va pediatriyada ko'prok ishlatiladi. Ular nerv sistemasining turli kasalliklarida ayniksa kishini ruxi, eslash va fikr yuritish kobiliyatlar buzilganda, MNS-ning turli travmalarida, aterosklerozlarda va astenik xolatlarda ishlatiladi. Shuningdek turli xil IBS-da, yosh bolalarda serebrostenik, entsefalopatiyada, fikr va eslash xolatlari bo'zilganda va intellektual etishmovchiliklarda ko'llaniladi.

Nootrop moddalar MNS-da ko'zqalish protsessini oshirib yuborishi mumkin, uykuni buzilishi, allergik reaksiyalar, OIS-ning turli xil buzilishlari kabi nojo'ya ta'sirlarni yuzaga chikarishi mumkin. Bu preparatlarni 1 yoshgacha bolalarga berib bo'lmaydi.

Nootrop moddalar ichida natriy oksibutirat o'ziga xos axamiyatga ega. U gipoksiyaga karshi ta'sirga ega bo'lib, organizmni O₂-ga bo'lgan chidamliligini oshiradi, ayniksa miyani, yurakni, ko'z setchatkasini. Shuningdek u sedativ va markaziy mushaklarni bushashtirish (miorelaksatsiya) xususiyatlariga xam egadir. Preparat katta dozalarda uyku chakirishi, xattoki narkoz xolatini yuzaga chikarishi mumkin. Preparat analgetik ta'sirga ega bo'lmasa xam uxlaturvchi va narkoz chakiruvchi preparatlarni ta'sirini kuchaytiradi.

NEYROLEPTIKLAR, TRANKVILIZATORLAR VA SEDATIV DORI VOSITALARI.

Ma'lumki, psixotrop preparatlar o'zlarining kishi ruxiga ta'siriga karab ikki katta gruppaga:

1. Психоседатив ва
2. Psixostimulyatorlarga bo'linadi.

Bugungi ma'ruzamiz asosan psixosedativ preparatlarga baqishlanadi. Bularga:

1. Neyroleptiklar;
2. Trankvilizatorlar
3. Sedativ dori vositalari kiradi.

Neyroleptiklar psixozlarni davolash uchun ko'llanilsa, trankvilizatorlar va sedativ dorilar qo'rquv, vaxima, ich-ichidan sikilish va nevrozlarni davolash uchun ishlatiladi.

I. Neyroleptik dori vositalari kimyoviy tuzilishiga ko'ra 3 gruppaga bo'linadi:

- 1). Fenotiazin unimlari;
- 2). Butirofenon unimlari;

3). Rauvolfiya alkaloidlari.

Fenotiazin unimlariga aminazin, etaperazin, meterazin, triftazin va ftorfenazinlar kiradi. Bu grupp preparatlarining klassik vakili bo'lib aminazin xisoblaniladi. Shuning uchun xam fenotiazin unimlarining farmakologik xususiyatlarini aminazin misolida ko'rib chikamiz. Aminazinning asosiy ta'siri sedativ va tinchlantiruvchi ta'sirdir. Uning bu ta'siri psixozlarda, badjxil kasallardagina yuzaga chikmay, balki soqlom odamlarda xam kayd etiladi.

Preparat uzok ko'llanilganda uning sedativ ta'siri yuzaga chikmasligi mumkin, lekin uning psixozga karshi ta'siri koladi. Aminazinning tinchlantiruvchi ta'siri barbutiratlardan farkli o'larok ataksiya va xarakatning koordinatsiyasini buzilishi bilan birga bo'lmaydi. Preparat terapevtik dozada shartli reflekslarni susaytiradi, shartsiz reflekslarga esa ta'sir etmaydi.

Bu grupp preparatlar kishilarda xarakat aktivligini susaytiradi. Ularning asosiy farmakologik ta'sirlar quyidagilardan iborat:

q- adrenolitik, kayd kilishga karshi, gistaminga karshi, gipotermik, maxalliy oqrik koldiruvchi, M - xolinolitik va gangliolitik.

Aminazin fonida adrenalin reaksiyasi kamayadi, ba'zida gipotenziv reaksiya beradi. Tana xaroratiga t-ra tushiruvchi dorilar kabi fakat tana t-rasi ko'tarilganda emas, balki normal t-rada xam ta'sir etadi. Shuning uchun xam uni xirurgiyada ko'l keladigan, tana xaroratini sun'iy pasaytiruvchi litik aralashmalarga ko'shiladi. Preparat maxalliy oqrik koldiruvchi preparatlarning ta'sirini xam oshiradi. Bu preparatlar antiadrenergik, antigistamin, antiserotonin va antixolinergik ta'sirlarga egadir. Shuning uchun xam Preparatning psixozga qarshi ta'sir mexanizmda uning MNS-ning limbik kismidagi dofaminergik retseptorlar faoliyatining susaytirish kobiliyati asosiy rolni o'ynaydi.

Chunki bu preparatlarning farmakologik ta'sirida miyadagi retikulyar farmatsiyani tormozlash kobiliyati yotadi. Natijada periferiyadan miyaga kelayotgan ko'zqatuvchi impulslarning xarakati kamayadi.

Aminazin sillik muskullar tonusini, kon bosimini pasaytiradi, yurak urishini tezlatadi, aritmiyaga ijobiy ta'sir etadi, atropin kabi so'lakni, bronxlardagi ajrilmalarni, OIS-si bezlarini sekretsiyasini susaytiradi. Preparatni 6-7% jigarda ushlanib koladi va gidroksillanish yo'li bilan glyukuron kislotasiga boqlanib organizmdan sekinlik bilan chikib ketadi. Aminozinni berishni to'xtatilgach 6-12 oydan keyin xam uni yoki uni metabolitini siydikda aniklash mumkin. Aminozinni tutkanokning barcha turlarida, barbutiratlar va etanol bilan zaxarlanganda, jigar xastaligida va yurak etishmovchiligi (porok serdtsa)da berib bo'lmaydi.

Fenotiazinni boshka unimlari xakida aloxida jadvalga karang. Fenotiazin unimlarining boshka vakillarining kusishga karshi ta'siri kuchli bo'lib, periferik ta'sirlari (xelinolitik, gistaminga karshi, spazmolitik va b.k.) aminazinga karaganda kuchsizrok bo'ladi. Bu preparatlarning kusishga karshi ta'sirida ularning kayd kilish markazidagi Trigger maydonini bloklash kobilyati yotadi.

Neyroleptiklar analeptiklarga, MNS ko'zqatuvchi preparatlarga karama-karshi ta'sir etadi. Shu bilan birga bu preparatlar analgetiklar, uxlatuvchi dorilarni, narkoz dorilarni, alkagolni va maxalliy oqrik koldiruvchi preparatlarning ta'sirini kuchaytiradi-potentsirlaydi.

Butirofenon unimlaridan neyroleptik dori sifatida galoperidol ishlatiladi. Preparat stress xolatlarida yaxshi yordam beradi. Tana xaroratini, kon bosimni tushiradi, yurak urishini sekinlatadi. Uxlatuvchi va analgetik preparatlar ta'sirini oshiradi, kusishni oldini

oladi. Galoperidol aminazindan farkli o'larok vegetativ nerv sistemasiga deyarlik ta'sir etmaydi.

Preparat - aminomoy kislota retseptorlarini saklovchi biologik membrana o'tkazuvchanligiga va dofamin retseptorlariga ta'sir etib bu retseptorlarning ko'zqaluvchanligini susaytiradi. Preparat shizofreniyani manikal formasida, ko'zqaluvchalikning turli formalarida va depressiya xolatida ishlatiladi. Preparatning ta'siri tez yuzaga chikadi va uzoq davom etadi. Galoperidolni kandagi mikdori kabul kilingandan so'ng bir necha kungacha kayd etiladi. Preparat sekin-asta siydik orkali chikib ketadi. Bu grupp preparatlarining ikkinchi vakili droperidoldir. Preparat kiska vakt ta'sir etadi. Boshka analgetik va uxlatuvchi dorilar bilan ko'shib ishlatiladi. Fentanil bilan ko'shib neyroleptoanalgeziyada ishlatiladi. Nojo'ya ta'sirlari: terida kizilchalar paydo bo'ladi, parkinson kasali belgilarini chaqiradi, leykopeniya, ko'rkuv-vaxima va uykusizliklar yuzaga chikishi mumkin.

Rauvolfiya alkaloidi va uning unimlari ichida neyroleptik ta'sirga ega bo'lgan preparatlarini klassik vakili bo'lib rezerpin xisoblanadi. Rezerpinni neyroleptik ta'siri aminazin va boshka fenotiazin unimlarining neyroleptik ta'siridan ancha past. Shuning uchun xam u psixoz va boshka ruxiy kasalliklarda kam ishlatiladi.

Rezerpinning asosiy ta'siri bu uning MNS-ni tinchlantiruvchi va kon bosimini tushiruvchi ta'siridir. Preparat uykusimon xolat, lanjlik (apatiya) va atrof-muxitga beparvolik xolatlarini yuzaga chikaradi, ammo bu paytda kasalning tashkaridan kilingan ta'sirlarga nisbatan javob berish kobilyati saklanib koladi.

Boshka neyroleptik dorilar singari narkotik, analgetik va uxlatuvchi dorilar ta'sirini oshiradi. t-ra tushadi, nafas sekinlashadi. Rezerpin ta'sirida parasimpatik nerv tonuslari oshib ketadi. Natijada mioz, ptoz, bronxlar sekretsiasini oshishi, OIS sekretsiasini va xarakatini oshishi, kon bosimini tushishi, bradikardiya va tomir tonusini oshiruvchi reflekslar pasayadi.

Rezerpinni yukorida sanab o'tilgan ta'sirlarida uning simpatik nerv granularidan katexolaminlarni ko'plab chikib ketishi katta rol o'ynaydi. Shuning uchun xam MNS-da rezerpin ta'sirida adrenal, narodrenalin va serotonin mikdori kamayib ketadi. Chunki ajralib chikkan katexolaminlar monoaminoksidaza ta'sirida parchalanib noaktiv formaga o'tadi. Bu esa rezerpinni neyroleptik ta'sirini yuzaga chikaradi.

Rezerpinni yurak-kon tomir sistemasining organik xastaligida, bradikardiyada, nefrosklerozda va MNS-ning sklerozida, OIS-da yarasi bor bemorlarga berib bo'lmaydi.

Trankvilizatorlar yoki anksilotiklar deb kishi ruxiga osoishtalik baqishlovchi, qo'rquv, xayajon va ruxan ezilish tuyqularini kamaytiruvchi dorilarga aytiladi. Demak bu preparatlar osoishtalik va tinch kayfiyatni yuzaga chikaradi. Trankvilizatorlarga turli ximik gruppalarining vakili bo'lmish kuyidagi preparatlar kiradi:

I. Asosiy trankvilizatorlarga yoki katta trankvilizatorlarga.

1. Xlordiazepoksid (elenium)
2. Seduksen (diazepam)
3. Tazepam
4. Fenozepam
5. Mezapam (rudotel)
6. Amizil kiradi.

II. Kichik trankvilizator - kunduzgi trankvilizatorlar

1. Mepratan

2. Trioksazin
3. Oksilidin

Trankvilizatorlarning ta'sir mexanizmidagi ularning talamus, gipotalamus, limbik sistemasiga ta'siri va bosh miyadagi benzodiazepen retsetorlari bilan boqlanishi yotadi, ya'ni trankvilizatorlar ko'rsatilgan sistemalardagi protsesslarni susaytiradi va ichki tormozlanishni oshiradi. Natijada ruxiy, emotsional va nerv faoliyatlari o'rtasida mutadillik yuzaga chikadi. Trankvilizatorlar kishi ruxiyatiga osoishtalik beradi. Ular kishi ongini, fizik va intellektual statusini deyarlik o'zgartmaydilar.

Demak bu gruppaga preparatlari kishilar ish kobilyatini buzmaydilar, balki ularning ish faoliyatini kuchaytiradilar. Chunki ular kishilardagi bezovtalik va ko'rkuv-vaxima xolatlarini bartaraf etadilar.

Shuning uchun xam ular endogen psixozlarga deyarli ta'sir etmaydilar, ammo tashkaridan bo'ladigan turli xil ta'sirlarga MNS-ning javob reaksiyasini susaytiradilar. Ular mana shu ta'sirlari bilan neyroleptiklardan farqlanadilar turli xil nevrozlarni davolash uchun ishlatiladilar.

Bizga ma'lumki ichki xayajonlanishda, bezovtalikda va turli xil ko'rkuv-vaximada mushaklar tonusi oshib ketadi. Trankvilizatorlar esa mushaklar tonusini susaytiradilar va normaga keltiradilar. Trankvilizatorlar (amizildan boshkasi) vegetativ nerv sistemasiga deyarlik ta'sir etmaydilar, lekin anksilotik va sedativ ta'siri xisobiga simpatoadrenal sistema faoliyatini susaytiradilar. Shuning uchun xam ular boshlanqich gipertoniyada, stenokardiyada, me'da-ichak yaralarida va boshka psixosomatik xolatlarda ishlatiladilar. Bu preparatlar OIS-da yaxshi so'riladi va 4-5 - 7-8 soat davomida ta'sir etadi. So'ngra metabolizmga uchrab (gidroksillanib) buyrak orkali chikib ketadi.

Amizil - atropinga o'xshash markaziy va periferik M-xolipolitik ta'sir ko'rsatadi. Ammo uning bu ta'siri atropindan 3 barobar kamrokdir. Amizil tirishishga karshi ta'sir etadi. Turli xil nevrozlarda, bemorlarni operatsiyaga tayyorlashda, parkinson va me'da-ichak yaralarida ishlatiladi.

Sedativ moddalarga MNS-ni tinchlantiruvchi moddalar kiradi. Ular miya po'stloqida tormozlanish jarayonini oshirib bu jarayonlarni chukurlashtiradi. Bu ta'sirlar MNS-dagi asosiy funktsiyalardan ko'zqaluvchanlikni oshib ketganida yaqqol seziladi. Sedativ moddalar terapevtik dozalarda uyku yoki narkoz xolatini chakirmaydi, lekin tormozlanish protsessini kuchaytirish va ko'zqaluvchanlik jarayonini susaytirish xisobiga MNS -dagi ko'zqalish va tormozlanish jarayonlari o'rtasidagi muazanatlarini mutadillashtiradi va uyku jarayonini normallashtiradilar.

Sedativ moddalar nevroz, nevrostepiya, uykusizliklarda ko'llaniladi. Ularga:

Natriy bromid,

Kaliy bromid,

Valeriana va uning unimlari, (karvalol, valokardin)

Arslonkuyruq preparatlari kiradi. fl. 25 ml.

Bromidlar OISda yaxshi so'riladi, ammo ularning tuzlari maxalliy kitiklash kobilyatiga ega. Shuning uchun ularni eritmasini ovkatdan so'ng yoki sut, slizlar bilan birga beriladi. Bromning xujayralar membranasidan o'tishi juda kiyin yuzaga chikadi. Shuning uchun ularning aksariyat ko'p kismi xujayralar tashkarisidagi suyukliklarda yiqiladi.

Bromning xujayra ichiga kirishini ko'zqatuvchi moddalar kuchayti-radi, sedativ moddalar esa susaytiradi. Masalan: kofeinning ma'lum dozasi bromni miya to'kimalariga o'tishini kuchaytiradi (Pavlov miksturasi), etaminal Na esa susaytiradi. Bromga nisbatan

yukori sezuvchanlik xam kayd etiladi. Bunda xusnbuzar, tumov, kon'yuktivit, shamollash belgilari, bronxit kabi simptomlar yuzaga chikadi.

romidlar OIS-da so'rilgandan so'ng, xujayralardan tashkarida taksimlanadi, buyrak orkali chikib ketadi. Bromidlar organizmda to'planib kolishi mumkin, chunki ularning $T_{1/2}$ q 12 kunga to'qri keladi, qolgan kismi esa 1 oy davomida saklanib koladi. Shuning uchun xam surinkali ko'llanilganda zaxarlanish mumkin. Bunga bromizm xolati deymiz. Bunda bo'shashish, xotirani susayishi, diqqatning kamayishi, tumov, kon'yuktivit, terida kichish, toshmalar paydo bo'lishi kuzatiladi. Bromizmni davolash uchun katta mikdorda xloridlar (NaCl, KCl bilan suv beriladi (3-5 l.). . (1-9g.)

Valeriana va arslonkuyrukning ta'sir etuvchi moddalari ulardagi spazmolitik ta'sirga ega barneol va izovalerian kislotalarining murakkab efir moylaridir. Bular yurak nevrozlarida yaxshi yordam beradi.

MNS- NI KO'ZG'ATUVCHI PREPARATLAR FARMAKOLOGIYASI".

Ma'ruza rejasi:

1. MNS-ni asosiy funktsiyalari va uning ko'zg'atuvchi preparatlari xakida tushuncha.
2. Psixostimulyatorlar va ularning farmakologiyasi.
3. Nootrop va GAMK to'kimalariga ta'sir etuvchi preparatlar va ularning farmakologiyasi.
4. Analeptiklar, ularning tibbiyotdagi roli va ularning farmakologiyasi.

MNS-ni ko'zqatuvchi preparatlar uning turli bo'limlariga ta'sir etib o'z ta'sirini yuzaga chikaradi. MNS kaysi bo'limiga bo'lgan ta'siriga karab bu grupp preparatlari 3 guruxga bo'linadi:

1. Asosan bosh miyaga ta'sir etuvchi preparatlar. Bularga psi-xostimulyatorlar, antidepressantlar va nootrop vositalar kiradi.
2. Asosan uzunchok miyaga ta'sir etuvchi preparatlar. Bularga analeptiklar va boshkalar kiradi.
3. Asosan orka miyaga ta'sir etuvchi preparatlar. Bularga strixnin va boshkalar kiradi.

Psixostimulyatorlar deb-kayfiyatni, psixomotor faollikni oshiruvchi, akliy va jismoniy charchokni yo'kotuvchi moddalarga aytiladi. Bularga ko'yidagi dorilar kiradi:

1. ksantinlar-kofein, kofein-benzoat natriy, etimizol, bemetil
2. arilalkilaminlar (fenilalkilaminlar)-fenamin, sidnokarb.

Bu moddalar tashki ta'sirotda sezgirlikni oshiradi, uykuqa talabni vaktinchalik kamaytiradi, simpatik nerv sistemasining faoliyatini ragbatlantiradi. Natijada moddalar almashinuvi oshadi, tezlashadi va yurak-tomir sistemasining faoliyati oshadi.

Psixostimulyatorlarning bir gruppasi nafakat miyani (MNS), balki boshka sistemalarga xam ta'sir etadi. Masalan: kofein va uning unumlari.

Fenilalkilaminlar va uning analoglari (fenamin, meridil va indopan) esa ko'prok miya po'stlogini stimulyatsiya kiladi.

Kofein -choy bargi, kofe, kakao urugi va kola urugidan olinadi. Kofeinni MNS ta'sir I.P.Pavlov tomonidan xar tomonlama o'rganilgan. Kofein miya po'stlogidagi ko'zgalish

protsessini kuchaytiradi. Natijada odamning asabiy-ruxiy faoliyati, akliy va jismoniy ish kobiliyati va xarakati oshadi; odam bardam bo'ladi, charchogi va uyku xolati yo'koladi, o'zini tetik xis kiladi va kayfiyati yaxshilanadi.

Kofein katta dozalarda miya xujayralarini charchatishi, tinkasini kuritishi va shuning natijasida miyaga susaytiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kofein uxlatuvchi va narkotik dori vositalarini ta'sirini ka-maytiradi, orka miyani reflektor ko'zgaluvchanligini oshiradi, nafas va kon tomirlarining markazini ko'zgatadi. Yurak faoliyati yaxshilanadi va uning urishi tezlashadi. Kofein normal kon bosimiga unchalik ta'sir etmasa xam, kollaps va shok xolatlarida kon bosimini ko'taradi. Preparat skelet mushaklaridagi va parenxematoz organlaridagi (yurak, buyrak, miya) arterial tomirlarni kengaytiradi korin bo'shligidagi organlarni (buyrakdan boshka) tomirlarini kiskartiradi. Shuning uchun xam kofein peshob ajralishini kisman oshiradi, elektrolitlar reabsorbtsiyasini kamaytiradi.

Kofein me'da sekretsiasini oshiradi, tormbotsitlar agregatsiasini kamaytiradi. Kofein nafas xarakatining tezlashuvi va chukurlashuviga sabab bo'ladi. Bu o'pka ventilyatsiasini kuchaytiradi, natijada SO₂ - karbonat angidrid mikdori kamayadi, bu esa kofeinni nafas markazini ko'zgatish ta'sirini oshiradi.

Kofein organizmdan metil gruppasini yo'kotib, mochevina xolida bo'yarak orkali chikib (8%) ketadi. Kofeinni MNS faoliyatini kuchaytirish ta'sir mexanizmida uning fosfodiesteraza fermentini funktsiasini susaytirishi katta rol o'ynaydi. Chunki bunda s-AMF ni parchalanishi buziladi, ayniksa miyada va yurakda s-AMF ni mikdori oshib ketadi. Bu esa glikogenoliz protsessini kuchaytirib yuboradi. Natijada kofeinni stimulatsiyalovchi ta'siri yuzaga chikadi.

Kofeinni surunkali kabul kilinganda uning ta'siri sekin-asta kamayib boradi. Kofeinni yurak-kon tomir sistemasini va MNS-ni funktsiasini susaytiruvchi turli infektsion kasalliklarda, uxlatuvchi va narkotik preparatlar bilan zaxarlanganda, MNS tomirlarining torayishida (migrenda), ruxiy va jismoniy ish kobiliyatining susayganida ishlatiladi. Klinikalarda kofeinni benzoat natriyli tuzi ko'prok ishlatiladi, chunki u yaxshi eriydi va organizmdan tezrok chikib ketadi.

Diuretin -teobromin bilan salitsilat Na-ni aralashmasidir. Fenamin -bu sintetik preparat bo'lib, o'zining farmakologik ta'siri bo'yicha adrenalina yaqin turadi. Fenamin adrenalin va naradrenalina karaganda mustaxkam va gematoentsefalik bar'erdan yaxshi o'taoladi. Shuning uchun xam fenaminni ta'siri uzok va ogiz orkali berilganda xam yuzaga chikadi.

Fenamin orka miya orkali MNS-ni kuchli ko'zgatish kobiliyatiga ega. Shu bilan birga preparat markaziy noradrenalinergik va dofaminergik retseptorlarni kitiklab, ulardan chikadigan katexolaminlarni mikdorini oshirib yuboradi. Fenamin bir vakti o'zida katexolaminlarni parchalovchi MAO-monoaminoksidaza fermentlarini ingibirlab, noadrenalin va dofaminni kaytadan neyronlarda ushlab kolishini tormozlaydi.

Fenamin periferik adrenergik ta'sirga xam egadir. U q va b -adrenoretseptorlarni kitiklaydi, periferik kon tomirlarni toraytiradi, yurak ishini zuraytiradi, kon bosimini ko'taradi, bronxlar mushagini bo'shashtiradi va ko'z korachigini kengaytiradi.

Fenaminni to'g'ri ishlatilsa MNS ko'zgalish protsessini oshiradi, xorginlikni bartaraf etadi, kayfiyatni oshiradi, odamni tetiklashtirib ish kobilyatini oshiradi va uykuga bo'lgan moillikni vaktincha kamaytiradi. Preparat uxlatuvchi va narkotik dorilar ta'sirini kamaytiradi va kiskartiradi. Fenamin anoreksogen ta'sirga xam ega, ya'ni ishtaxani kamaytiradi.

Keyingi yillarda fenaminni juda ko'p nojo'ya ta'sirlari xakida ma'lumotlar yigildi. Ayniksa preparatga nisbatan ko'nikish kabi xolatlarning rivojlanishi uning MNS ni stimulyatori sifatida ishlatilishi cheklab ko'ydi va dopinglar katoriga kiritildi.

Fenaminni noto'g'ri ishlatilganda yoki dozasi oshib ketganda bosh aylanishi, ko'ngil aynash, xolsizlanish, ishtaxani susayishi, uykusizlik, taxikardiya va aritmiya kabi nojo'ya ta'sirlar yuzaga chikadi.

Sidnokarb -eng ko'p ishlatiladigan psixostimulyator dorisi bo'lib, fenaminga karaganda kam zaxarli va periferik simpatotrop ta'sirlardan xoli preparatdir. Fenamindan farkli o'larok preparatga nisbatan eyforiya xolati yuzaga chikmaydi, lekin uning MNS bo'lgan ta'siri ko'prok va uzokrok bo'ladi. Alkagolizmga yaxshi ta'sir etadi.

Etimizol va bemetil -MNS stimulyatsiyasi bilan birga, organizmda ruy beradigan turli xil gipoksiyalarga yaxshi yordam beradi, organizmni kislorod etishmovchiligiga chidamliligini oshiradi va ish kobilyatini oshiradi. Preparatlar astenik xolatlarda, nevrozlarda va boshka xollarda ishlatiladi. Bemetil organizmni immunli tizimini xam oshiradi. Shuning uchun xam preparatni infektsion kasalliklarda xam beriladi. Bemetilni kabul kilinganda uglevodlarga boy ovkatlarni istimol kilish kerak.

Preparatni gipoglikimiyada berib bo'lmaydi. Bemetil ko'ngil aynash,kayd kilish, oshkozonda ba'zi patologik belgilar, yuzni tomirlarini konga to'lishi va bosh ogrigi kabi nojo'ya ta'sirlarni yuzaga chikarishi mumkin.

Analeptiklar asosan uzunchok miyada joylashgan markazlarga tanlab ta'sir kursatadigan preparatlardan. Analeptik suzi grekchadan olingan (analepsis) tiklovchi, tiriltiruvchi ma'noni bildiradi. Analeptiklarning asosiy farmakologik xossasi shundan iboratki, ular uzunchok miyada joylashgan nafas va tomirlarni xarakatlantiruvchi markazlar faoliyati susayib kolganida ularning funktsional xolatini, nafas va kon tomirlari tonusini tiklaydi yoki normal xolatiga keltiradi. Shu sababli bu guruxni aynan tiriltiruvchi preparatlar deb xam yuritiladi. Preparatlarning kupchiligi uzunchok miyadan tashkari markaziy nerv tizimining kupchilik kismiga sezilarli darajada kuzgatuvchi ta'sir kursatadi. Natijada refleks kuzgalishi, katta dozalarda esa umumiy titrok keltirib chikarishi mumkin. Kupchilik analeptiklar boshkaruvi markaziy tuzilmalarni bu xil kuzgatishi sababli modda almashinuvi oshadi, tananing, ayniksa bosh miyaning kislorodga bulgan muxtojligi xam ortadi.

Analeptiklar ta'sir mexanizmi va ta'sir etish joyiga karab ikki guruxga bulinadi: bevosita va bilvosita ta'sir etuvchilar.

Bevosita ta'sir etuvchi analeptiklar tugridan-tugri nafas va tomirlarni xarakatlantiruvchi markazlarni funktsional zaiflashgan xolatidan chikarib, nafas va kon tomirlari tonusini normallashtiradi, natijada nafas markazining SO₂ ga nisbatan sezuvchanligi oshadi. Bundan tashkari, refleks yuli bilan xolinoretseptorlardan va markaziy nerv tizimining yukori bulimlaridan kelayotgan impulslarga javoban kuzgalish zurayadi. Narkozlantiruvchi va uxlatuvchi preparatlar bilan zaxarlanganda analeptiklarning bunday ta'sirini olish uchun ancha kattarok dozada-umumiy kuzgatuvchi dozada yuboriladi. Kayta yuborish zaruriyati bulsa, unda ularning dozasi kamaytiriladi.

Bu guruxga kiruvchi analeptiklar ta'siri va yuboriladigan dozasi ga kura ikki guruxga bulinadi: ta'siri buyicha kichik va katta doiralik analeptiklar.

Birinchi guruxga strixnin, bemegrid, pikrotoksin kiradi. Bu dorilarni yuborishda dozasi tugri va anik bulishi zarur, chunki kattarok dozalarda yuborilsa, nojuya samara berishi mumkin. Kichikrok dozada esa ta'siri sezilmaydi.

Ushbu guruxga kiruvchi strixninning asosiy farmakologik ta'siri orka miyaga karatilgan. Uzunchok miya markazlariga xam ragbatlantiruvchi ta'sir kursatadi. Nafas va

kon tomirlarini xarakatlantiruvchi markazlar faoliyatini ragbatlantiradi (preparatning uzgacha ta'sirlari tugrisida keyingi badda ma'lumot keltirilgan).

Bemegrid asosan narkozga sabab buladigan va uxlatuvchi preparatlar bilan zaxarlanishda naf beradi. Uni boshka analeptiklar va yurak-tomir tizimiga ijobiy ta'sir etadigan dorilar bilan kushib berish mumkin. Bemegrid venaga sekinlik bilan yuboriladi

Ikkinchi xil, katta ta'sir doirali preparatlar guruxiga korazol, kofein va boshkalar kiradi. Bularni ishlatish ancha xavfsiz. Korazol shok xolatida, asfiksiyada va narkoz tufayli yurak faoliyati zaiflashib kolganida tavsiya etiladi. Bunda analeptik 10 % li eritmasi 1 ml dan venaga sekin-asta yuboriladi. Boshka xollarda preparat ogiz orkali kabul kilinishi mumkin.

Kordiamin nafas va kon tomirlarini xarakatlantiruvchi markazni kisman kuzgatadi. Shu sababli preparat kon aylanishi zaiflashganda, gipotoniyada 30-40 tomchidan ichiladi. Ayniksa, yurak faoliyati zaiflashib, kon bosimi tushib ketishi natijasida kuzatiladigan kiska muddatli bexushlik xolatlarida beriladi.

Kamfora markaziy nerv tizimining nafas va kon tomirlarini xarakatlantiruvchi markazlarini sezilarli darajada kuzgatadi. Bu esa uning bevosita ta'siri va kisman preparat yuborilgan joydan refleks yuli bilan sezuvchi nerv oxiri kitiklanishi xisobiga buladi. Kamfora kadimdan ishlatilib kelinayotgani bois ta'siri ancha ishonchli, bezarar va samarali preparatdir. U yurak-tomir tizimi faoliyatining utkir va surunkali susayishida, xar xil yukumli va boshka xil kasalliklarda, zaxarlanish tufayli kon bosimining pasayishida kup ishlatiladi. Kamforaning ta'sirida miokardning kiskarish kuchi oshib yurak faoliyati yaxshilanadi, tomirlar xarakati markazining kuzgalishi tufayli kon tomirlarining tonusi oshadi va kon bosimi tiklanadi. Kamforaning bunday ta'siri nafas olishning yaxshilanishi va upkada xavo almashinishining tezlanishi bilan bir vaktida kechadi. Kamfora zaxarsiz, davo kilish doirasi ancha keng bulgan analeptik. Bundan tashkari, maxalliy, tukimani kitiklaydigan ta'sirga ega bulgani uchun teriga surtish va ishkash bilan ogrik sezgisini kamaytirish uchun ishlatiladi. Buning uchun kamforaning spirtli eritmasi va liniment beriladi.

Kumir kislotasi (SO_2) nafas markazining fiziologik ragbatlantiruvchisidir. Bunday ta'sir bevosita nafas markaziga nisbatan buladi va kisman karotid xolinoretseptorlari orkali xam bajariladi. Bundan tashkari, SO_2 oz mikdorda miya kon tomirlariga bevosita ta'sir kilib, ularni kengaytiradi, miyada kon aylanishini yaxshilaydi. Nafas olishni ragbatlantirish uchun SO_2 ning 5-7,5 % ini saklagan gaz aralashmasi xidlanadi

Etimizol. S. V. Aniichkov raxbarlik kilgan laboratoriyada olingan va urganilgan sintetik preparat bulib, uziga xos nafas analeptigi xisoblanadi. Etimizol nafas markaziga tanlab ta'sir kursatish bilan birga trankvilizatorlarga xos farmakologik ta'sirlash xususiyatiga ega bulib, titrash xolatini keltirib chikarmaydi, uykuni bartaraf etmaydi, bezovtalik xolatini yukotadi.

Bilvosita ta'sir etuvchi analeptiklar-karotid sinusi –xemoretseptorlarini (N-xolinoretseptorlarni) kuzgatib, nafas markazining faoliyatini refleks yuli bilan tiklaydigan preparatlardan. Bunday ta'sir, birinchidan, bu markaz faoliyati kisman sustlashganda samarali bulsa, ikkinchidan, venaga yuborilgandagina yuzaga chikadi, uchinchidan, preparatlar ta'siri birinchi yuborilishida yaxshi bilinsa, kayta yuborilganida deyarli sezilmaydi. Narkoz moddalari va uxlatuvchi dorilar bilan zaxarlanganda uncha samara bermaydi. Bunday paytda kuprok nafas markazini bevosita kuzgatuvchi analeptiklar (kofein, korazol) naf kiladi. Bilvosita ta'sir etuvchi analeptiklarga lobelin, sititon va novshadil spirti kiradi.

Lobelin -alkaloid bulib, karotid sinusiga ta'sir etib, reflektor yul bilan nafasni kuzgatadi, vegetativ gangliylarni va xromafin tukimasini (buyrak usti bezi) xam ragbatlantiradi. Shu bilan birga adashgan nerv markazini xam kisman kuzgatishi bradikardiyaga sabab buladi. Kon bosimi bir oz tushib, keyinchalik kutariladi. Chunki lobelin simpatik nerv gangliysini xam kuzgatadi va adrenalinning ajralishini kupaytiradi. Shuning uchun yurak-kon tomir kasalliklarida extiyotlik bilan yuboriladi.

Tsititon- sitizinning 0, 15 % li eritmasidir. Ta'siri lobelinnikiga uxshaydi. Lekin nafas markaziga reflektor ta'siri lobelinnikidan kuchlirok. Kon tomirlarini kuprok kiskartirgani va kon bosimini kutargani uchun shok va kollaps xolatlarida xam ishlatilishi mumkin. Ateroskleroz va gipertoniya kasalliklarida tavsiya etilmaydi.

Novshadil spirti -xidlanganda yukori nafas yullaridagi sezuvchi retseptorlarni kitiklab, reflektor yul bilan nafas markazini kuzgatadi. Shu sababli kiska muddatga xushdan ketganda, mastlik xolatida beriladi.

Umumiy tonusni oshiradigan preparatlar. Bu guruxga xar xil usimliklardan va xayvonlarning organlaridan olinadigan, tarkibiga bir necha xil modda aralashgan preparatlar kiradi. Ularning kupchiligi xalk tabobati usuli bilan tayyorlangan va ishlatiladigan dorilardir. Ushbu preparatlar asosiy ta'sir mexanizmiga kura, markaziy nerv tizimi faoliyatini kisman kuzgatiб umumiy tonusni, kuvvatni sezilarli darajada oshiradi, charchashni kamaytiradi, yurak ishini ragbatlaydi, kon bosimini sezilarli darajada kutaradi, ishtaxani, akliy va jismoniy kobiliyatni birmuncha yaxshilaydi, organizmning salbiy ta'sirlarga chidamliligini oshiradi. Dorilarning bunday ta'siri aytilgan a'zo va tizimlar faoliyati susaygan bulsa, kuprok bilinadi. Bu preparatlarning ta'sir mexanizmi yaxshi urganilmagan. Lekin shuni aytish kerakki, bu erda endokrin tizimining faoliyati oshishi katta axamiyatga ega bulsa kerak. Dorilar akliy va jismoniy charchashda, kam kuvvatlikda, gipotoniya, impotentsiyada tavsiya etiladi. Gipertoniya, uykusizlikda, umumiy kuzgalish bilan boglik xollarda tavsiya etilmaydi. Balogatga etmagan yoshlarga berish mumkin emas.

"Гормонал ва антигормонал препаратлар фармакологияси"

Gormonal va antigormonal preparatlar

Gormonlar -BAM bo'lib, ichki sekretsia bezlaridan ajralib chikadi.i. Bundan 1 asr avval Klad Bernar ichki sekretsia bezlari funktsiyasini o'rganib ularni 2 gruppaga bo'ladi:

1. o'zida ajralib chikayotgan BAM (gormonal) ni ma'lum chikaruvchi yo'llar orkali chikarib, u yoki bu organlarga etkazib beradigan bezlar;

2. Uzidan ajralib chikarayotgan gormonlarni to'qridan-to'qrikonga o'tkazuvchi bezlar; Mana shu xususiyatiga karab K.Bernar Igruppa bezlarini tashki sekretsia bezlari deb, II gruppa bezlarini esa ichki sekretsia bezlari deb ataydi. Gormonoar funktsiyasini o'rganuvchi fanga endokrinologiya deyiladi.

Biz siz bilan shu endokrinologiya fanini bir bo'limi-gormonal preparatlarining farmakologiyasi ustida to'xtab o'tamiz.

Adabiy manbalardan ma'lumki tarixda ko'p bo'yi baland odamlar o'tgan. Masalan: Finlyaendiya episkopi Kayanusni bo'yi 283 sm bo'lgan,Rim imperatori Maksimilanniki-25 sm, Marianna Vedeniki-255 sm,S.Salimovani bo'yi 221 sm bo'lgan (Uzb.Respublikasida).

Shu bilan birga juda past bo'yili odamlar (liliputlar) xam bo'lgan. Savol to'qiladi: nima uchun shunday xollar kayd etib turiladiq

1886 yilda Frantsiyalik gistomorfolog olimi Per Mari oyoklarning oqriqi bilan boqlik kattalashganida gipofizni oldingi kismida kandaydir gistomorfologik o'zgarishlar ro'y berishini aniklagan. Bu o'zgarish bilan boqlik kasallikni u akromegaliya deb atadi, yani "akron"-grekchaga "oyok" va "megos" "katta" so'zidan olingan. Demak, akromegaliya uzun-katta oyok deganidir.

Keyinchalik bu xodisa gipofiz old kismida ajraladigan somatotrop gormoni bilan bog'liqligi aniklandi.

Per Marini ishi gipofizni chukurrok o'rganishga turtki bo'ldi...

Demak, gormonlar ichki sekretiya bezlar faoliyati natijasida paydo bo'lib, konga ajralib chikadi va turli organ va to'kimalarga ijobiy ta'sir etib, shu organ yoki to'kimalar funksiyasini rivojlantiradi.

Natijada organizmdagi doimiylikni yani gomeostazni ma'lum bir me'yorda saklab turiladi.

Demak, organizmni normal xolda boshkarib turuvchi 2 ta katta sistema bor:

1. MNS orkali boshkarib turish;
2. Ichki sekretiya bezlarining normal faoliyati orkali boshkarib turishdir.

Bu ikkala boshkarish sistemalari bir-biri bilan chambarchas boglangan. Ichki sekretiya bezlarining faoliyati MNS nazorati ostida boshkarib turiladi. Ichki sekretiya bezlari MNS-ni informatsiyasini turli organlarga etkazib turadi. Bu narsa gipotalamusning neyrosekretor xujayralaridan past molekulali polipeptidlar ajralib chikib, gipofiz old kismini ta'sir etib, uni ko'zqotadi va unda trop gormonlar xosil kiladi va konga o'tkazadi. Trop gormonlar esa organizmdagi ichki sekretiya bezlarning faoliyatini boshkaradi.

Gormonlar tarkibiga ko'ra uch gruppaga bo'linadi:

1. Oksil va polipeptid unumlardan iborat gormonal preparatlar
2. Aminokislota unumlaridan iborat gormonal preparatlar
3. Steroid birikmalardan iborat gormonal preparatlar.

Gormonlar gruppasiga aloxida ichki sekretiya bezlardan emas organizmdagi ko'pchilik to'kmalardan ajralib chikuvchi protoglonidlarni xam kiritish mumkin.

Gormonal preparatlar xayvonlar a'zosida: ichki bezlardan, siydikdan, xamdan sintez yo'li bilan olinadi. Gormonal preparatlar asosan organlarni ko'zg'atish, ular funksiyasini boshkarish uchun o'rindosh sifatida ishlatiladi. Ba'zan esa boshka kasalliklarni davolash uchun patogenetik davo sifatida xam ishlatiladi.

Demak, gormonlar asosan ichki sekretiya bezlarining faoliyati susayishdan kelib chikadigan endokrinologik kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi.

Ayrim xollarda ichki sekretiya bezlarini funksiyasi oshib ketganda xam turli kasallik kelib chikishi mumkin.

Bunda shu bezlarni funksiyasini kamaytiradigan, ularga karshi ta'sir etadigan - antigormonal preparatlar ishlatiladi.

Gormonlar ma'lum xujayra sitoplazmatik membranalaridagi retseptorlarga ta'sir etib adenilattsiklaza fermentini ko'zqatad va SAMF-ni sintezini ko'paytiradi, ba'zan (masalan: insulin) esa susaytiradi.

Steroid gormonlar membranadan xujayraga o'tib, u erda sitoplazmatik retseptorlar bilan boKlanib oksillar sintezini kuchaytiradi, ba'zan esa bor oksillarni konformatsiyasini o'zgartiradi.

Gormonlar Sa 5QQ ionlarini to'kimaga kirishga, undan chikib ketishiga va to'kima ichidagi tarkalishiga xam ta'sir etadi. Bu protsess esa to'kima retseptorlari o'rtasidagi muzzanatlarini boshkaradi.

Shuningdek gormonlar to'kimalarning o'tkazuvchanligini boshka biologik aktiv moddalar o'tishiga moillik-engillik tuqdiradi.

Masalan: insulin glyukozalarni to'kimalar ichiga o'tishini ta'minlaydi.

Ba'zi gormonlar to'kimalar ichiga o'tgach o'z ta'sirini ko'rsatadilar.

Masalan: steroidli gormonlar. Ular to'kima membranasidan o'tib to'kima ichidagi retseptorlar bilan bo'Klanib, to'kima yadrosini ichiga kirib boradi va u erda DNK va RNK - ga ta'sir etib oksillar sintezida ishtirok etadilar.

Gipofiz bezining gormonal moddalari.

Gipofiz butun ichki sekretiya bezlarini funktsiyasini boshkarib turadi. Shuning uchun xam uni butun ichki sekretiya bezlarini yuragi,matori deiladi. Gipofiz kichkina xajmdagi (1x1,5 sm) bez bo'lib 3kismdan iborat: oldingi kism, o'rta va orka kismalar. Uning oqirligi ,5 g atrofida, miyaning asosida joylashgan.

Undan ajralgan gormonlar to'qridan-to'qri konga tushadi.

Oldingi va o'rta kismi gipofizni bezli kismini tashkil etadi va uni adenogipofiz deyiladi. Orka kismini esa gipotalamusni nerv aksonlari tashkil etadi va u erda gipotalamusda xosil bo'lgan gormonlar okib kelib (nerv impulsleri orkali) yiKiladi va ularni neyrogipofiz deyiladi.

Neyrogipofizdan oksitotsin va antidiuretik gormon: pituitrin,vazopressinlar ajralib chikadi. Oksitotsin bachadonni, ayniksa xomilali bachadonni ko'zqatadi. Pitiutrin va vazopressin kichik dozada antidiuretik ta'sirga ega, katta dozada -ichak va kon tomir mushaklarini tonusini oshiradi.

Gipofizni o'rta kismidan intermedin gormoni ajralib chikadi.

Gipofizni oldingi kismidan 6 ta tropgormonlar ajralib chikadi.

Bularga:

1. Adrenokortikotrop gormon (AKTT);
2. Tireotrop gormon (TTT);
3. Somatotrop gormon (STG);
4. Laktotrop gormon (LTG);
5. Follikulotrop (stimullovchi) gormon (FSG);
6. Lyutiniziruyushiy gormon (LG).

1. AKTG-cho'chka va yirik kora mollarning gipofizidan olinadi. Bu gormon buyrak usti bezining maKizidan glyukokortikoidlarni ajralishini oshiradi va yalliqlanish xamda allergik kasalliklarda beriladi. Shuningdek miya shishlarida va miyada kon aylanishi buzilganda beriladi.

AKTG-ni kand kasallida, yosh bolalarda, oshkozon yarasi borlarda,psixozda va xomilador ayollarda berib bo'lmaydi.

AKTG differintsial diagnostikada xam ishlatiladi va buyrak usti bezining birlamchi ikkilamchi etishmovchiligini aniklashda, ya'ni shish yoki bu bezning giperplaziyasini aniklashda ishlatiladi.

AKTG ni mushaklar orasiga in'ektsiya kilinganda siydikni -17 oksi kortikosteroidni mikdori aniklanadi. Agarda 24 soat ichida bu moddaning mikdori normaga nisbatan 5% oshsa birlamchi etishmovchilik yoki giperplazmiya bo'ladi. 3 suikadan so'ng oshsa shish yoki ikkilamchi etishmovchilik bo'ladi.

2. TTG -kalkansimon bezlarda tiroksin sintezi uchun zarur fermentlarni aktivlashtiradi.

3. STG-oksillar sintezini kuchaytiradi, yoK almashinuvini oshiradi, konda kand mikdorini oshiradi. Gipofizlar pakanalarni davolashda ko'llaniladi.

4. LTG sifatida prolaktik ona sutini ko'paytirish uchun ishlatiladi.

5. FSG-lar ayollarda estrogenlar xosil bo'lishiga, erkaklarda esa spermatogenezni kuchaytirishda ishlatiladi.

6. LG-lar esa erkak va ayollarda bepushtlik kasalligida ishlatiladi.

Gipofiz o'rta kismidan olinadigan intermedin degan modda ko'z kuvvatini oshiradi, ko'z tur pardasida degenerativ o'zgarishlar paydo bo'lganda-gemeralopiyada ishlatiladi.

Bu gruppaga garmonlariga parakalkansimon bezlarining gormon moddasi kiradi. U - paratiroidin kaltsiy va fosfor almashinuviga ta'sir etadi. Bu modda konda Sa- ni ko'paytiradi, suyaklarda esa -kamaytiradi. Fosfor mikdori konda kamayadi.

Shuning uchun kam bu modda gipoparatiroidozlarda, spazmofiliyada vatetaniyani oldini olishda ishlatiladi.

Sizga ma'lumki miya suyukligida K 5Q G`Sa 5Q munosabati 2G`1 nisbatiga teng. Miya ko'zqalganda K 5Q ni mikdori oshib ketadi. Ammo bu munosabat ma'lum chegarada bo'lishi kerak. Agarda mana shu chegaradan o'tib ketsaorganizmda kuchli ko'zKalish yuzaga keladi va spazmofiliya bo'ladi.

Таъсир муддати 4-6 соат булиб, турли туқималарга енгил утади, хатто йулдош тусигидан утиши ҳам кузатилади. Танадан пешоб таркибида, кисман сафро таркибида чикиб кетади.

Эритромицинга нисбатан бактериялар сезувчанлиги тезда пасайиши туфайли препарат захирада сакланади ва пенициллин гурухи таъсир этмаган тақдирдагина тавсия этилади.

Эритромициннинг нокуя таъсирларидан аллергик реакциялар, диспепсия холати (меъда-ичак йуллари фаолиятининг бузилиши) нинг юз бериши ва ушбу антибиотикка нисбатан тургун булган бактерияларнинг янги тури пайдо булишини эслатиб утиш уринли булади.

Олеандомицин. Бактерия (*Streptomyces antibioticus*) махсулоти булиб, таъсир доираси буйича эритромицинга якин, препарат 4-6 соат давомида таъсир курсатади, кам захарли. Махаллий китикловчи таъсирга эга булган препарат сифатида захирада сакланади. Амалиётда унинг фосфатли тузи ишлатилади.

Цефалоспорин гурухи. Ахамиятга молик антибиотиклардан бири цефалоспорин гурухи саналади. Улар *Cephalosporium acremonium* замбуруглари махсулоти булиб, ярим синтез йули билан олинади. Ушбу антибиотиклар тузилишини 7-аминоцефалоспорин кислота ташкил этади.

Цефалоспоринлар бактерицид таъсирга эга. Улар пенициллин каби бактерия хужайраси деворининг синтезида катнашувчи фермент транспептидаза фаоллигини сусайтиради, таъсир спектрига кура ампициллинни эслатади.

Парентерал усулда кулланувчи цефалотин (кефлин) ва цефалоридин (цепорин) анча кенг таркалган. Уларнинг таъсирига граммусбат бактериялар ута сезгир. Ушбу антибиотиклар кислотали мухитга тургун булиши билан бир каторда, меъда-ичак йулида сурилиши суст, шунинг учун улар вена кон томирларига ёки мушаклар орасига юбориш учун мулжалланган.

Цефалоспоринлар асосан захирада сакланувчи антибиотиклардан булиб, пенициллинлар наф бермай колган такдирда, купрок пешоб чикариш йуллари касалликларида фойдалидир, чунки ушбу антибиотиклар пешоб билан бирга узгармаган холда ажралиб чиқади. Цефалотин хар 4-6 соатда, цефалоридин 6-8 соатда тавсия этилади.

Ушбу гурух антибиотикларидан цефатоксин (клафоран) грамманфий бактериялар цефалоспориноза ферменти таъсирига тургундир. Унинг таъсир спектри анча кенг булиб, яшил йиринг таёкчасига хам уз таъсирини курсатади.

Цефалексин (цепорекс)-нисбатан янги препарат булиб, энтерал усулда куллашга мулжалланган. Препаратнинг сурилиш муддати киска булиб, конда 1-2 соатдан сунг юкори микдорда тупланади. 15 % кон оксиллари билан бирикиб, 6 соат давомида буйрак оркали чикиб кетади. У таблетка, капсула ва суспензия шаклида ишлаб чикарилади.

Цефалоспоринларнинг нокуя таъсирлари куйидагилардан иборат: улар беморларда аллергик реакция кузгатади, буйрак фаолиятининг бузилишига (цефалоридин) сабабчи булади, махаллий таъсир курсатади (цефалотин), диспепсия холатига (цефалексин) олиб келади. Баъзан цефалоспоринлар таъсирига тургун булган бактериялар оиласи хосил булиши (суперинфекция) кузатилади.

Препаратлари:

Ампициллин натрийли тузи (*Ampicillinum natrium*). 6-[D-/- α -аминофенилацетамидо]-пенициллин кислотанинг натрийли тузи. 0, 25; 0, 5 г дан флаконда порошок холида эритувчиси билан бирга чикарилади. Буюрилиши: 250-500 мг дан кеча-кундузда 4-6 марта мушаклар орасига юборилади.

Ампициллин тригидрат (*Ampicillinum trihydraz*). 6-[D(-) α -аминофенилацетамид] пенициллин кислота тригидрат. 0, 25 г дан таблетка ва капсула холида чикарилади. Буюрилиши: 0, 5 г дан бир кеча-кундузда хар 4-6 соатда ичилади.

Бензилпенициллин натрийли тузи (Benzylpenicillinum-natrium). Бензилпенициллин кислота тузини могор замбуруги турлари ишлаб чикаради. 250000 ТБ, 500000 ТБ, 1000000 ТБ дан флаконда чикарилади. Буюрилиши: 250000 ТБ-500000 ТБ дан тери остига ёки мушак орасига юборилади. Бир кеча-кундузлик дозаси 10000000-20000000 ТБ.

Бензилпенициллиннинг новокаинли тузи (Benzylpenicillinum novocainum). Моногидрат бензилпенициллин кислота новокаин тузи. 600000 ТБ дан флаконда чикарилади. Буюрилиши: 300000-600000 ТБ мушаклар орасига кунига 2 марта юборилади.

Бициллин-1 (Bicillinum-1). Бензилпенициллиннинг N, N-Дибензилэтилен-диамин тузи. 300000-600000 ТБ дан флаконда чикарилади. Буюрилиши: 300000-600000 ТБ хафтада бир марта мушаклар орасига юборилади.

Бициллин-3 (Bicillinum-III). Бициллин-1, бензилпенициллиннинг калий (ёки натрий) тузи ва бензилпенициллиннинг новокаинли тузи аралашмаси. Чиқарилиши ва буюрилиши: бициллин-1 га ухшаш.

Бициллин-5 (Bicillinum-V). Бициллин-1 ва бензилпенициллин новокаинли тузининг 4:1 нисбатида аралашмаси. 1500000 ТБ флаконда чиқарилади (эритувчиси 5 мл дан ампулада). Буюрилиши: катта ёшдагиларга 1500000 ТБ дан 1 ойда 1 марта мушаклар орасига юборилади.

Оксациллин натрийли тузи (Oxacillinum-natrium). Моногидрат-3-фенил-5-метил-4-изоксазолилпенициллин натрийли тузи. Таблетка капсула холида ва флаконда 0, 25-0, 5 г дан чиқарилади. Буюрилиши: 0, 25-0, 5 г дан кеча-кундузда 4-6 марта овқатдан 1 соат олдин ва 2-3 соат кейин. Инъекция учун 2-4 г дан бир кеча-кундузда берилади.

Амоксициллин (Amoxicillin). Ярим синтетик антибиотик булиб, кенг спектрли бактерицид таъсирга эга. Таблеткада 0, 25 ва 0, 5 г дан чиқарилади. 1 таблеткадан кунига 3 марта берилади.

Феноксиметилпенициллин (Phenoxymethylpenicillini). Феноксиметилпенициллин кислота. 0, 1-0, 25 г дан таблетка холида чиқарилади. Буюрилиши: 0, 1-0, 25 г дан бир кеча-кундузда 4-6 марта ичилади.

Эритромицин (Erytromycinum). 0, 1-0, 25 г дан таблетка холида чиқарилади. Буюрилиши: 0, 1-0, 25 г дан хар 4-6 соатда ичилади.

Олеандомицин фосфат (Oleandomycini phosphas). 0, 125 г дан таблеткалар холида чиқарилади. Буюрилиши: 0, 25 г дан бир кеча-кундузда 4-6 марта ичиш учун.

Цефатоксим (Cephatoximum). Натрийли тузи холида флаконларда 0, 25; 0, 5; 1 ва 2 г дан чиқарилади. Мушаклар орасига юбориш учун 0, 5 г дистилланган сувда эритилади. Венага юбориш учун 0, 5 г порошоги 2 мл (ёки 1 г-4 мл ва 2 г 10 мл) дистилланган сувда эритилади.

Цефалексин (Cephalexinum). 7 [D- α -Аминофенол-ацетамидо]-3-цефем-4-карбон кислота моногидрати. Капсулаларда 0, 25 г; таблеткаларда 0, 5 г; порошок суспензия учун 2, 5 г флаконда чиқарилади. Капсула ва таблеткалар бир кеча-кундузда 1-2 г дан ичилади. Суспензия тайёрлаш учун 80 мл дистилланган сувда порошоги эритилиб махсус кошикча билан улчанади ва ичилади.

Кефзол (Kefzol). 3-{(5-метил -1, 3, 4-тиадиазол-2-ил) тиометил-7-2-1 Н-тетразол-1-ил ацетамидо} 3-цефем-4 карбон кислота. 0, 25-0, 5 г дан флаконда чиқарилади. Буюрилиши: 0, 5-1, 0 г дан венага ёки мушаклар орасига хар 6-8 соатда юборилади.

Аминогликозидлар. Стрептомицин-Actinomyces globisporus streptomycini нинг махсулотидир. 1943 йилда Ваксман томонидан кашф этилган. Стрептомицин

аминогликозидлар гурухининг асосий вакили булиб, бактерицид таъсирга эга. Препаратнинг таъсири асосан хужайра рибосомаларидаги оксил синтезини тухтатишида намоён булади. Унинг таъсир спектри кенг булиб, асосан сил таёкчаси, туляремия, вабо, яшил йиринг таёкчаси, патоген кокклар, брѳоцеллалар, граммусбат ва грамманфий бактерияларга карши самарали восита саналади. Унинг фаоллиги таъсир бирликларида (ТБ) улчанади, 1 таъсир бирлиги 1 микрограммга тенг.

Стрептомицин тузилишидаги альдегид гурухининг оксиметил гурухига кайтарилиши хисобига дигидрострептомицин олинган. Ушбу антибиотикка нисбатан бактериялар сезувчанлиги нисбатан тезрок пасая боради, хатто препарат иштирокидаги мухитда эркин ривожланадиган штаммлар пайдо булади. Меъда-ичак йулидан streptomyces кisman сурилади. Мушаклар орасига киритилгач 2 соатдан сунг конда юкори микдорда тупланади, 30 % гача кон оксиллари билан бирикиб, 2-4 соат давомида 50 % микдорда сакланиб туради, 8 соатгача препаратнинг маълум микдорини аниклаш мумкин. Асосан фильтрация усулида буйрак оркали танадан узгармаган холда чикиб кетади, озгина микдорда сафрo таркибида ичак бушлигига тушиши кузатилади.

Стрептомицин сил касаллигида самарали даво воситаси саналади. Шу билан бир вақтда ундан хаво ва пешoб йуллари яллигланиши касалликларини даволашда кенг кулланилади. Аммо унга нисбатан спирохеталар, патоген замбуруглар, риккетсиялар, айрим анаэроблар, содда хужайралилар тургун.

Стрептомицин эритмаси танага кун давомида 1-2 марта (мушаклар орасига) киритилади, танада бир текис таркалиб, турли бушликларга хам етиб боради. Мия пардалари яллигланишини (менингит) даволашда унинг хлор-кальцийли аралашмасидан фойдаланилади, чунки ушбу омукта мия пардаларига зарarli таъсирдан холи.

Препаратнинг нoжуя таъсирларидан аллeргик холатларни эслатиб утмок зарур (теридаги тошмалар, тана хароратининг ортиши, анафилактик шок). Шу билан бирга streptomyces ички кулок бушлигида тупланиб, эшитиш кобилиятини пасайтиришини унутмаслик даркор. Дори эритмалари махаллий огрик хиссига сабабчи булади, узок муддат давомида куллаш эса, унга нисбатан тургун булган бактериялар оиласининг пайдо булишига (суперинфекция) сабаб булади.

Неомицин- *Actinomyces fradiae* махсулоти булиб, узида А, В ва С неомицинларни саклайди. Неомицин сульфат кенг таъсир спектрига эга, унга граммусбат ва грамманфий бактериялар сезгирдир. Анаэроблар, хакикий вируслар, спирохеталар ушбу антибиотикка нисбатан маълум тургунликка эга. Бактериялар чидамлилиги унга нисбатан секин-аста намоён була боради. Меъда-ичак йулидан сурилиши чегараланган булиб, асосан ичак бушлигидаги бактерияларга (ичак таёкчаси, содда хужайралилар) таъсир курсатади. Препарат беморларни операцияларга тайёрлаш жараёнида узга антибиотиклар билан кушиб кулланилса, яхши наф беради. Неомицин тери касалликларида (йирингли тери яралари, сачратки ва бошкалар), айрим куз касалликларида (конъюнктивит) кулланилади.

Сиртга куллашда препаратнинг буйрак усти бези гормонлари билан биргаликда ишлатилиши алохида ахамият касб этади.

Буйрак фаолиятига зарarli таъсири булганлиги учун препарат парентерал усулда кулланилмайди. Шу билан бирга унинг эшитиш кобилиятини пасайтиришини унутмаслик керак. Неомицин буйрак ва эшитув нерви касалликларида тавсия этилмайди.

Гентамицин-*Micromonospora purpurea* ва *M. echinospora* маҳсулоти булиб, гентамицин сульфат тузи сифатида кулланилади. Кенг таъсир спектрига эга. Граммусбат ва грамманфий бактерияларга нисбатан таъсир этади. Бензилпенициллинга тургун булган бактериялар: яшил йиринг таёкчаси, ичак таёкчаси, стафилакокklar гентамицинга таъсирчандир, уларнинг препаратга нисбатан тургунлиги аста-секин намоён була боради. Бир соатдан сунг конда унинг юкори микдори тупланади ва 8-12 соат давомида сакланиб туради. Танадаги турли тусиклардан деярли утмайди ва узгармаган холда буйраклар оркали чикиб кетади. Препарат асосан грамманфий бактерияларга нисбатан кулланилганда самаралидир. Буйрак-таносил тизими касалликларида (пиелонефрит, цистит), сепсисда куллаш яхши самара беради. Препаратнинг кураресимон таъсири натижасида марказий нерв тизимининг VIII жуфт нервларини зарарлаши кузатилади. Ушбу зарарли таъсирлари препаратни узга аминокликозидлар билан кушиб куллаганда тезрок намоёнбулади.

Сизомицин-*Micromonospora inyoensis* маҳсулоти, гентамицинга ухшаш кенг спектрга эга. Бактерияларнинг унга нисбатан тургунлиги аста-секин юзага келади. Ичак йулларидан секин сурилганлиги учун, эритмалари асосан мушак орасига ёки веналарга киритилади. Хар 8 соат оралигида инъекция килинади, конда 25 % гача оксиллар билан бирикади.

Зарарли таъсири ва тавсиялари гентамицинга ухшаш.

Мономицин. Кенг таъсир спектрига эга булиб, граммусбат, грамманфий ва кислотали мухитга тургун булган бактерияларга карши таъсирга эга. Ичак бушлигидан секин сурилади, аммо мушаклар орасига киритилганда конда юкори микдорда тупланади. Буйрак оркали танадан чикиб кетади, кумуляция ходисаси кузатилмайди. Асосан йирингли касалликларда жигар-сафро йуллари, пешоб-таносил тизими яллигланиши касалликларини даволашда ахамиятли. Препарат жигар, буйрак, эшитув нерви касалликларида тавсия этилмайди.

Баъзан диспепсия холатлари, аллергик реакцияларга сабаб булади. Узок муддат ичида юкори дозаларда кабул килиш суперинфекция холатига (кандидоз) сабаб булади.

Препаратлари:

Стрептомицин сульфат (*Streptomycini sulfas*). 0, 25-0, 5 г дан флаконда чикарилади. Буюрилиши: 0, 5-1 г дан мушаклар орасига (сувли, изотоник ёки новокаинли эритма холида), бир кеча-кундузда юборилади.

Стрептомициннинг хлоркальцийли комплекси (*Streptomycini et calcii chloridum*). 0, 2 г дан флаконда чикарилади. Буюрилиши: стрептомицинга каранг.

Нетилмицин (*Netilmicin*). Аминокликозидлар гурухига тегишли. Граммусбат ва грамманфий микроорганизмларга бактерицид таъсир этади. Инъекция учун ампулаларда 1 мл дан (25-50 мг) чикарилади. Мушаклар орасига ва венага юбориш учун мулжалланган. Бир кеча-кундузлик дозаси 4-6 мг/кг тана огирлигига хисобида.

Неомицин сульфат (*Neomycini sulfas*). 0, 5 г флаконда, таблетка холида 0, 1 ва 0, 25 г 0, 5 % ва 2 % малхам. Буюрилиши: ичиш учун 0, 1 ва 0, 25 г. сиртга куллаш учун эритма 25-50 мл, куз томчилари (1 мл-5000 ТБ) сифатида.

Гентамицин сульфат (*Gentamycini sulfas*). 0, 08 г дан флаконда порошок холида; 0, 1 % суртма сифатида 15 г дан; 0, 3 % эритмаси 1, 5 мл тубикда томчилаб бериш учун чикарилади. Буюрилиши: 0, 4 мг/кг дан 1 кеча-кундузда мушак орасига юборилади; суртма сиртга сурилади.

Сизомицин сульфат (Sisomycini sulfas). Ампулада 1; 1, 5 ва 2 мл дан 5 % эритма холида чикади. Буюрилиши: мушак орасига 0, 001 мг/кг бир кеча-кундузда 3 марта веналарга бир марталик доза 5 % глюкозанинг 50-100 мл билан юборилади.

Мономицин (Monomycinum). 0, 25 г дан порошок холида флаконда ва 0, 25 г дан таблетка шаклида чикарилади. Буюрилиши: 0, 25 г дан кеча-кундузда 4-6 марта ичилади. 0, 25 г дан кунига 3 марта мушаклар орасига юборилади.

Тетрациклинлар. Тетрациклинлар кенг таъсир спектрли антибиотиклар каторига кириб, таркибида туртта конденсирланган 6 аъзоли халка тутати. Улар граммусбат ва грамманфий бактерияларга карши курашда самаралидир. Айникса, бацилляр дизентерия, корин тифи, ута хавфли юкумли касалликлардан-тоун, туляремия, бруцеллёз, вабо, трахомани даволашда фойдалидир. Граммусбат бактерияларга таъсири жихатидан улар пенициллин гурухига караганда нисбатан кучсизрок. Ушбу гурухга нисбатан секин-аста бактериялар тургунлиги юз бериши мумкин.

Тетрациклинлар таъсирида бактерия хужайраси рибосомаларида оксил синтезининг бузилиши юз беради, шу билан бир вақтда улар айрим металл ионларини (Mg, Ca) бириктириб, ферментлар фаоллигини сусайтиради, натижада бактериостатик таъсир юзага келади.

Препарат меъда-ичак йулларидан яхши сурилади, конда 2-4 соатдан сунг дорининг юкори микдори тупланади ва плазма оксиллари билан 20-80 % гача бирикади, узок муддат давомида жигарда, суяк тукумасида маълум микдорда сакланади. Тетрациклин турли тукума тусикларидан енгил утади. Танадан пешоб ва сафро таркибида чикиб кетади, шу билан бир вақтда ингичка ичаклардан кисман кайта сурилади.

Тетрациклинлар пенициллин ва стрептомицин гурухи моддаларига нисбатан микроблар тургунлиги хосил булганида айникса самарали. Улар асосан огиз оркали кабул килиниб, хар 4-8 соат оралигида тавсия этилади. Улардан морфоциклин кон томирларига киритиш учун мулжалланган.

Ушбу гурух препаратлари нохуш таъсирларга эга, улар жумласидан куйидагиларни эслатиш мумкин: аллергик реакциялар, тана хароратининг кутарилиши, диспепсия холатлари, окситетрациклин-жигар фаолиятига нисбатан зарарли. Хомиладорликнинг биринчи ярмида ва болаларга буюришда жуда эхтиёт булмок зарур.

Юкорида эслатиб утилганидек тетрациклинлар суяк тукумасида тупланиб негиз шаклланишига, тишларнинг усишига салбий таъсир курсатиши мумкин.

Тетрациклин гурухи модда алмашинуви жараёнларига хам таъсир курсатади: оксил синтези пасаяди, танадан сув, натрий, аминокислоталар ва айрим витаминлар чикишини тезлаштирати. Узок муддат куллаш окибатида ичак микрофлорасида фойдали сапрофитлар халок булиб, айнан шу гурух препаратларига нисбатан тургун булган бактериялар оиласи пайдо булишига сабаб булиши мумкин. Натижада кандидомикоз касаллиги авж олиши кузатилади, баъзан эса В гурухи витаминларнинг етишмаслиги каби аломатлар намоён булади.

Муолажа давомида препаратларни нистатин ва В гурухи витаминлари билан кушиб куллаш анча самаралидир.

Левомецетин. Левомецетин бактерия *Streptomyces venezuelae* махсулоти булиб, синтез йули билан олинган биринчи препаратдир. Катта таъсир доирасига эга булган препарат ичак гурухи бактерияларига карши самарали таъсир курсатади. Унга нисбатан граммусбат ва грамманфий бактериялар сезгир.

Препарат рибосомаларда оксил синтезини пасайтиради ва бактериостатик таъсир юзага келади. Левомецитин меъда-ичак йулларидан яхши сурилади. Конда 2 соатдан сунг юкори микдорларда тупланади ва хар 6 соат оралигида истеъмол учун тавсия этилади, асосан жигарда кимёвий узгаришларга учраб пешоб таркибида танадан чикиб кетади.

Левомецитин-асосий антибиотикларни куллаш мумкин булмаган холларда-корин тифи, риккетсиоз, бруцеллез, сальмонеллёз касалликларида кулланилади. Одатда, огиз оркали таблеткалар куринишида ёки махаллий таъсир учун эритмалар холида тавсия этилади. Парентерал йул билан киритиш учун левомецитин сукцинат натрий тузи таклиф этилган.

Левомецитин узига хос ноужа таъсирларга эга булиб, уларни назарда тутмок зарур. Даволаш давомида аллергик реакциялар, кон ишлаб чикарувчи аъзолар фаолиятининг бузилиши, баъзан фожиали туговчи апластик камконлик кузатилади. Шу билан бирга кандидомикоз касаллиги кузатилиши мумкин. Препарат билан даволаш муддатининг киска булиши мақсадга мувофик.

Полимиксинлар. Булар циклик полипептид хисобланиб хужайра мембранасининг бутунлигини бузади. Натижада хужайра компонентларининг атроф-мухитга чикиши кузатилади ва бактерия халок булади.

Полимиксин-М сульфат таъсирига грамманфий бактериялар сезгир булиб, айрим бактериялар тургунлиги секин-аста юз беради.

Препарат энтерал ва махаллий усулда танага киритиш учун тавсия этилади. Парентерал усулда куллаш кучли нефро ва нейротоксик холатларга сабаб булади. Асосан энтерал усул билан турли ичак касалликларида, жаррохлик амалиёти олдидан кулланилади. Махаллий усулда эса турли йирингли яраларни даволашда ишлатилади.

Полимиксин-М сульфат аллергик реакциялар келтириб чикармайди, айрим холларда диспепсия кузатилиши мумкин. Препарат буйрак касалликларида тавсия этилмайди.

Препаратлари:

Тетрациклин гидрохлорид (Tetracyclini hydrochloridum). 0, 1 г дан таблетка, 1 г дан 10000 ТБ бор 1 % суртма шаклида чикарилади. Буюрилиши: 0, 2-0, 25 г кунига 3-4 марта ичилади. Суртмаси сиртга кулланилади.

Метациклин гидрохлорид (Methacyclini hydrochloridum). 0, 15-0, 3 г дан капсулада чикарилади. Буюрилиши: 2 капсуладан кунига 2 марта овкатдан кейин (ёки овкат билан бирга) ичилади. Даво курсининг давомийлиги 5-7 кун.

Доксициклин (Doxycycline). 6-Дезокси-5-окситетрациклин гидрохлорид. Капсулада 0, 05 ва 0, 1 г, таблеткада 0, 1 г ва порошок ампулада 0, 1 г дан чикарилади. 8 ёшдан катталарга ичиш учун ва венага юбориш учун берилади. Биринчи кун кеча-кундузлик дозаси 0, 2 г (бир марта ёки 2 марта хар 12 соатда), кейинчалик 0, 1 г дан 1 марта.

Олететрин (Oletetrinum). Таркибида тетрациклин (2 кисм), олеандомицин (1 кисм) саклайди. 0, 125 г дан таблетка; 0, 25 г дан капсула шаклида чикарилади. Буюрилиши: 0, 25 г дан кеча-кундузда 4-6 марта.

Левомецитин (Levomycetinum). D-(-трео-1 пара-кетифенил 2-дихлорацетил-амино-1, 3-пропандиол. 0, 25-0, 5 г дан таблетка холида чикарилади.

Буюрилиши: 0, 25 г дан кеча-кундузда 3-4 марта ичилади.

Левомецетин стеарат (Levomycetini stearas). D-трео-1-пара-нитрофенил-2-дихлорацетил аминок-пропанидиол-1, 3, 3-стеарат. 0, 25 г дан таблетка холида чикарилади. Буюрилиши: 1 таблеткадан 3-4 марта ичилади.

Левомецетин сукцинат натрий (Levomycetinum succinas). Д(--)-трео-1-пара-нитрофенил-2-дихлорацетиламинопропандиол-1, 3, 3-сукцинат натрий. Флаконеда 1 г порошок холида чикарилади; 0, 5 % ли новокаин ампулада 5 мл дан эритма сифатида. Буюрилиши: 0, 5-1 г дан кунига 2-3 марта инъекция килинади.

Полимиксин «В» сульфат (Polymyxini “ “В” sulfas). 250000-500000 ТБ флаконеда чикарилади. Буюрилиши: мушаклар орасига, венага юборилади. 0, 5-0, 7 мг/кг дан кунига 3-4 марта мушаклар орасига юборилади. 20-50 мг препаратни 5 % глюкозанинг 200-300 мл да эритиб венага томчилаб юборилади.

Турли гурухларга мансуб антибиотиклар орасида ишлатилиши буйича эътиборга сазовор препаратлардан бири ристомин хисобланади. Ушбу антибиотик айниқса тилласимон стафилакокклар, пневмококк, стрептококклар, энтерококк, анаэроб ва кислотага чидамли бактериялар келтириб чикарадиган инфекцияда яхши наф килади.

Стафилакокк инфекциясида ишлатиладиган синтетик антибиотиклардан линкомицинни тавсия этиш мумкин. У граммусбат коккларга кучли таъсир курсатади. Захарли таъсири кам.

Фузидин стероид тузилишли синтетик антибиотик булиб, ишлатилиши ва фармакологик таъсири буйича линкомицинга якин.

Препаратлари:

Ристомин сульфат (Rystomycini sulfas). Флаконларда 100000 ва 500000 ТБ. Буюрилиши: факат веналарга юбориш учун 1000000-1500000 ТБ хар 12 соатда.

Линкомицин гидрохлорид (Lincomycini hydrochloridum). Капсулада 0, 25 г ва ампулада 1-2 мл 30 % эритма холида. Буюрилиши: веналарга юбориш учун 0, 6 г моддани 250 мл 5 % глюкоза эритмасида, бир кеча-кундузда 2 марта ичиш учун 0, 5 г 3 махалдан.

Клиндамицин (Clindamycin). Линкамициннинг 7-хлоризоокси унуми. Капсулада 0, 15 ва 0, 075 г (болалар учун), 15 % эритма ампулада 2, 4, 6 мл дан чикарилади. Капсулалари 0, 15 г дан хар соатда берилади. 0, 6-2, 4 г (кеча-кундузда) мушаклар орасига юборилади.

Фузидин натрий (Fusidinum natrium). Таблетка шаклида 0, 125 ва 0, 25 г. Буюрилиши: ичиш учун 0, 5-1 г 3 махал овкатдан сунг.

Замбуругларга карши антибиотиклар. Кенг таъсир спектрига эга булган антибиотикларни (тетрацилин, стрептомицин, левомецетин ва бошка) узок муддат истъемол килиш окибатида огиз бушлиги, меъда-ичак йуллари шиллик каватларида Candida оиласига мансуб булган замбуруглар колониялари пайдо булади; яъни кандидомикоз касаллиги юз беради. Баъзан ушбу замбуруглар кон оркали ички аъзоларга утиб, огир хасталикларга сабаб булади.

Бундай касалликларни даволаш учун куйидаги антибиотиклардан фойдаланилади.

Нистатин-кислотали ва ишкорий мухитда тез парчаланадиган, сув ва спиртда эримайдиган хусусиятларга эга. Шунинг учун конга сурилмай ичак бушлигида юкори микдорда туланади. Овкатдан бир соат олдин тавсия этилади. Хлорид кислота таъсиридан саклаш учун махсус кобикларда (капсула) чикарилади. Икки хафта давомида кулланилади, кам захарли булиб ножуя холатлар келтириб чикармайди. Терининг замбуругли касалликларида дорининг 4 % ли малхами тавсия этилади.

Леворин-препаратнинг натрийли тузи сувда эрувчан булиб, 500000 ТБ таблеткалари кеча-кундуз давомида 2-3 мартадан 10-12 кун муддатга тавсия этилади. Огиз бушлиги кандидомикоз касаллигида лунжда ушлаб туриш учун мулжалланган махсус таблеткалар мавжуд. Бунинг натижасида огиз бушлигида дорининг юкори микдорда тупланиши кузатилади. Сиртга куллаш учун малхамлар тайёрланган.

Куллашга тавсиялар-нистатинга ухшаш. Простата безининг аденома касаллигида ҳам берилади.

Амфотерицин В-кенг таъсир спектрига эга, захарли таъсири сезиларли булган антибиотик. Ички аъзолар замбуругли касалликларида ишлатилади. Ичакдан сурилмайди. Вена томирларига унинг аник дозаларидаги эритмалари (250 ТБ 1 кг тана вазнига нисбатан) томчилаб киритилади. Даволаш давомида кон манзараси, жигар буйрак фаолияти назорат килиб турилади.

Ушбу гурухга мансуб антибиотиклардан амфоглюкамин ва микогептин таъсир жихатидан юкорида таърифланган антибиотикларга ухшаш. Улар микроорганизм мембранаси уткузувчанлигини кучайтириб, хужайра ичидан озука моддаларининг чикишига сабаб булади. Натижада хужайра ички мухитида нафас олиш жараёнлари бузилиб, микозоцид таъсир юз беради.

Кимёвий тузилиши жихатидан бир оз фаркли булган антибиотик-гризеофульвин тери замбуругли касалликларида (дерматомикоз) кулланилади. Унинг таъсирида замбуруг хужайрасида булиниш жараёнлари бузилади, чунки препарат ДНК ва РНК синтезини тухтатади. Препарат асосан тери, соч, тирнок замбуругли касалликларида тавсия этилади.

Препаратлари:

Леворин (Levorinum). Сиртга куллаш учун порошок, 500000 ТБ таблетка холида чикарилади.

Буюрилиши: 400000-500000 ТБ дан кеча-кундузда 2/3 марта ичиш учун, 5 % суртма холида махаллий куллаш учун берилади.

Леворин натрийли тузи (Levorinum-natrium). 200000 ТБ дан флаконда чикарилади. Буюрилиши: 20000 ТБ хар бир мл да чайиш ва ювиш учун берилади. 100000-400000 ТБ хар 5 мл да ингаляция учун буюрилади.

Нистатин (Nistatinum). 250000-500000 ТБ дан таблетка, 10 % суртма шаклида 15 г дан чикарилади. Буюрилиши: 500000 ТБ дан кунига 3-4 марта ёки 250000 ТБ бир кеча-кундузда 6-8 марта ичиш учун.

Амфотерицин В (Amphotericinum-B). 500000 ТБ дан флаконда чикарилади. Томчилаб вена кон томирларига куйилади.

Амфоглюкамин (Amphoglycaminum). Таблетка холида 1000000 ТБ дан чикарилади.

Микогептин (Mycoseptinum). Таблетка холида 50000 ТБ дан ва малхам шаклида чикарилади.

Гризеофульвин (Griseofulvinum). Таблетка холида 0, 125 г. суспензия 100 мл. Буюрилиши: 1 таблеткадан 4 махал. Бир кеча-кундузда 0, 6 г. суспензия терига суртилади. Даволаш муддати 1 ойдан 3 ойгача.

Силга ва моховга қарши моддалар

Режа:

1. Сил касаллиги, келиб чиқиш сабаби ва уни даволашда кулланиладиган препаратлар
2. Мохов касаллигини келиб чиқиши ва даволаш

Сил-сурункали юкумли касаллик булиб, уни 1882 йили Р. Кох аниклаган микобактериялар келтириб чикаради. Касаллик тананинг ҳамма аъзоларида булиши мумкин. Лекин купинча упкани ва кисман буйракни жарохатлантиради.

Бутун дунё согликни саклаш ташкилотининг (ВОЗ) маълумотига караганда, ер юзида 15-20 млн сил билан огриган касаллар бор, хар йили 2-3 млн киши сил билан огрийди, 1-2 млн киши нобуд булади. Касалларнинг купчилиги (75 %) ривож топаётган мамлакатларда (Осиё ва Африкада) яшайди. Бу касаллик кейинги ун йилликда хам (1995-2004 й) кенг таркалган. Шунинг учун уни олдини олиш ва беморларни даволаш катта ахамиятлидир.

1940 йилгача беморларни даволаш асосан сифатли овкатланиш, оксигенга бой хавода булиш билан чегараланган холос. Чунки касалга даво киладиган дори-дармонлар деярли булмаган. Биринчи марта 1941 й. Бернгейм, 1946 йилда эса А. Коллиныш ва С. Гиллер парааминосалицилат кислотани синтез килишди. 1944 йилда Ваксман стрептомицинни ва нихоят 1952 йилда изониазид кислотанинг гидрозиди олинди. Сил касаллигида даво сифатида ишлатиладиган дори препаратларининг сони 20 тага якин. Кох микобактерияларининг кимётерапевтик дори моддаларига ва кислоталик шароитига чидамлилиги уларнинг кобиги бир неча липоид каватлардан ташкил топганлиги билан изохланади. Натижада купчилик ишлатиладиган препаратлар микроб танасига етарлича кира олмайди.

Сил микробактерияларига тсир этувчи дорилар олинисига кура 2 га булинади:

1. Синтетик моддалар- 1. гидразид изоникотин кислотанинг (ГИНК) унумлари : изониазид, фтивазид, 2. парааминосалицилат кислота унумлари- натрий парааминосалицилат, бепаск: 3. бошқа кимёвий моддалар-этионамид, тиоцетазон лар мансуб. Бу моддалар асосий сил, баъзида мохов пайдо қилувчи (кислоталарга чидамли) микробактерияларга карши таъсир қилади.

2. Антибиотиклар- стрептомицин сульфат, дегидрострептомицин, стрептомициннинг хлор-кальцийли комплекси, рифампицин, циклосерин, канамицин сульфат, флоримицин кабилар. Булар бактериостатик ва бактерицид таъсирга эга.

Кулланилиши буйича силга қарши моддалар 2 га бўлинади: 1- қаторли асосий моддалар: изониазид, стрептомицин, рифампицин, ПАСК; 2-қатор захира моддалар (слайд).

Силни даволашда аввал асосий моддалардан фойдаланилади. Микобактериялар ушбу моддаларга чидамли бўлиб қолган ҳолларда 2-қатор моддалари ишлатилади. 1-қатордагилар 2-қатор препаратларига нисбатан кам захарли, ножуя таъсирлари камроқ. Сил оғир касаллик ҳисобланиб, илк давридан даволанса тузалади. Бунинг учун давомли, микобактерияларнинг дориларга толерантлигини камайтириш мақсадида бир нечта дорини комплекс ҳолда, дори моддаси ножуя таъсир курсатса ундан воз кечмасдан биров вақтдан сунг куллаш тавсия этилади. Ножуя таъсирлари: аллергия, суперинфекция, жигарга, буйракга, асабга, қон яратилишига захарли таъсир курсатади.

ГИНК унумларининг таъсир механизми тулик аниқланмаган.

Изониазид микробактериялар мембраналар асоси микол кислота микдорини камайтириб, кимёвий тузилиши никотин кислотасига ухшаганлиги сабабли изоникотинат кислота, ундан изоникотинаденадкислота (ИНАД) сохта ферменти ҳосил бўлади. Бунинг таъсирида липид моддалар алмашинуви бўзилиб, сил микробактериялар бўлиниши ва пиридоксин алмашинуви ҳам бўзилиб, пиридоксин организмдан қўп микдорда чиқиб кетади. Изониазид (тубазид) таъсирида микобактерияларда пиридоксин алмашинувиgina эмас, балки бемор организмда ҳам пиридоксин алмашинуви бўзилиши натижасида ножуя таъсирлар келиб чиқади (неврит, бош оғриги, бош айланиши, уйқусизлик, аллергия ҳолат, рухий узғариш, анемия, агранулоцитоз, жигар ва буйрак шикастланиши). ОИТ да яхши сурилади, барча туқималардан ва тусиклардан (гематоэнцефалик, плацентар) осон утиб, жигарда ацетилланишга учрайди, буйрак орқали чиқиб кетади. Силнинг ҳар хил босқичларида оғиз орқали, тўғри ичакка, венага ҳамда мушаклар орасига, бушликларга юборилади. Препаратни тутканок, жигар, буйрак, атеросклероз касалликларида куллаш тавсия этилмайди. Фтивазид (изониазид+ванилин) изониазидга нисбатан таъсири суст, кам захарли бўлиб силни даволашда ва унинг олдини олишда кулланилади. Ларусан, салюзид препаратлари ҳам шу гуруҳга мансуб.

Парааминосалицилат кислота (ПАСК) унумларидан парааминосалицилат натрий ва бепаск моддалари сил микобактерияларига танлаб бактериостатик таъсир курсатади. Бу модда сил микобактериялари ривожини учун зарур ПАБК нинг урнини эгаллайди ва улар усишдан тўхтади. ПАСК хужайралар юзасидаги микобактерияларга таъсир этиб, хужайра ичидагига таъсир курсатмайди. Бу препаратнинг силга қарши таъсири изониазид, стрептомицинга нисбатан кам, шу сабабли узидан самаралироқ дорилар билан бирга кулланилади. ПАС натрий узгармасдан буйрак орқали чиқиб кетади. Ножуя таъсирлари: шиллик пардаларни китиклаши туфайли диспептик ҳолат, ошқозонда оғрик, ҳарорат кутарилиши, артрит, эозинофилия кузатилиб, қатта дозада калконсимон без фаолиятини сусайтиради. Ножуя таъсирларининг олдини олиш мақсадида овқатдан 1-2 соат сунг Вит В гуруҳи билан бирга берилади. Буйрак, жигар, меъда-ичак яра, микседема, юрак

етишмовчиликларида кулланилмайди. Бепаск хам ПАСК каби ножуя таъсирларни келтириб чикаради.

Антибиотиклар **гурухи-стрептомицин** (аминогликозидлар) сил микобактерияларига бактерицид таъсир килиб, парэнтерал, м/о га юборилади. 1-2 соатдан сунг конга сурилади. Плевра бушлигига, аъзо тукималарига яхши утади, аммо гематоэнцефалик тусикдан яхши утаолмайди. Шунинг учун сил менингитида стрептомициннинг хлор-кальцийли тузи орка мия каналига ишлатилади. Стрептомицин сульфатга микобактериялар тез урганиб колади, шу сабабли фаол моддалар билан бирга кулланилади. Препарат анча захарли, МНС зарарлаб бош айланиши, эшитиш кобилиятнинг пасайиши, аллургик реакциялар чакиради. Катта дозаларда бемо эшитмай колиши мумкин, чунки урта кулок суюклигида (ликворда) тупланиб колади. Баъзида рухий узгаришларни, куриш нервини хам жарохатлаши мумкин, тератоген таъсирга хам эга. Препаратни юборилганда конда эозинофиллар сонини текшириб бориш керак.

Дегидрострептомицин аллергияни камрок чакириб, ототоксик таъсири кучлирок. Дегидрострептомицин пантотенат камрок захарли. Сил менингитида кулланилади. Хомиладорликда, вестибуляр узгаришларда, аллургик касалликларда кулланилмайди. Циклосерин хужайра ташкарисидаги ва ичкарисидаги сил микробактерияларига таъсир этиб, уларнинг кобигини хосил булишини бузиб, бактериостатик таъсир курсатади. Изониазид, фтивазид, стрептомициндан кучсизрок, аммо уларга чидамли бактерияларга таъсир курсатади. ОИТ да яхши сурилиб, оксиллар билан богланмайди, ликворга яхши утади, кисман метаболизмга учраб буйрак оркали чикиб кетади. Препарат бош огриги, талваса тутиши, рухий узгаришлар келтириб чикариш каби ножуя таъсирларининг олдини олиш учун пиридоксин, глутамин кислота, АТФ лар билан бирга кулланилади.

Канамицин (аминогликозид) хам сил микобактерияларига карши самарали таъсирга эга булиб, бактериостатик ва бактерицид таъсир этади. Силни даволашда захира антибиотик, яъни юкорида келтирилган препаратлар таъсир курсатмаган холларда кулланилади. Препарат м/о, плевра бушлигига, аэрозол холида юкори нафас йуллари силида кулланилади. таъсири 1 соатда бошланиб, 6-12 соат давом этади, гематоэнцефалик тусикдан утмайди, буйрак оркали чикади. Бу захарли модда, нейротоксик, ототоксик таъсири стрептомициндан хам кучли булиб, кулок шангиллаши кузатилган вақтда тезда препарат беришни тухтатиш лозим. Буйрак, жигар, эшитиш фаолияти зарарланганда (жигар ва буйрак силидан ташкари) куллаш маън этилади. Ножуя таъсирларини камайтириш максидида пантотенат кальций билан бирга кулланилади.

Флоримицин -силга карши бошка моддаларга чидамлилик кузатилганда кулланиб айнан таъсирлари канамицинга ухшайди.

Рифампицин - ярим синтетик антибиотик, бактерицид ва бактериостатик таъсирга эга. ОИТ яхши сурилиб, огиз оркали берилганда 2-4 соатда юкори эффекти юзага чикиб, 8-12 соат давом этади. Препарат сафро, кисман пешоб, куз ёшлари ва бронхлар оркали чикиб кетади. Силининг барча турларида, айникса, упка силида кулланилиб сийдик, балгам, куз ёшини кизил рангга буяйди. Венага ва м/и га юборилиши хам мумкин. Диспептик холатлар, ошкозон ости беши, жигар зарарланиши, лейкопения, аллургик холатлар каби ножуя таъсирлари булиб, эмизикли болаларга, хомиладорларга, жигар ва буйрак касалликларида тавсия этилмайди.

Силга карши кимёвий тузилиши бошкача моддалар.

Этамбутол- ОИТ да яхши сурилиб, пешоб билан чикиб кетади. Рифампицин билан бирга яхши таъсирга эга. Препарат кулланганда йутал,балгам купайиши, диспептик холат, депрессия,куз хиралашиши кузатилади. Хомиладорликда ва куз касалликларида тавсия килинмайди.

Этионамид- синтетик модда,изониазид,стрептомициндан кучсиз булиб диспептик,депрессия,уйкусизликга сабаб булади. Бунинг олдини олиш максатида никотинамид,никотинат кислота кулланилади.

Тиоацетазон (тибон) факат сил ва моховга карши бактриостатик таъсирга эга булиб, силнинг упкадан ташкари (шиллик, сероз парадалар, лимфатик без силларида) кулланилади.ОИТ да яхши сурилиб, кучли захарли модда булганлиги сабабли лейкопения,агранулоцитоз,анемия,аллергия, буйрак ва жигар жарохатини келтириб чикаради. Шунинг учун хам бу ушбу касалликларда кулланилмайди. Сурхан-аджанта фирма лимитед томонидан тибинил-Р (рифампицин), тибинил-Э (этамбутол), тибинил П (пиразинамид) хамда буларнинг комбинирланган турлари силга карши тавсия этилган. Шунингдек, комбинирланган-пассомицин (ПАСК+дигидрострептомицин), стрептосалюзид (стрептомицин+сальюзид) препаратлари хам мавжуд.

Моховга карши дори воситалари

Мохов (лепра) микобактериялар келтириб чикарадиган сурункали огир касаллик. Моховнинг 4 тури маълум: лепраматоз, туберкулоид, аралаш ва оралик турлари.

Лепраматоз турида асосан тери ва нервлар узгариши кузатилади. Туберкулоид турида терининг айрим жойларида сезиш қобилияти йуколади, нервларнинг жарохатланиши купрок булади. Аралаш тури касалликнинг бошланишида булиб аниқ белгилари булмайди. Оралик турида беморнинг ахволи узгариб туради, иммунитет заифлашади. Даво килинмаса лепраматоз шаклига утиб кетади.

Мохов касаллигига дучор булган беморларни даволаш сульфон унумларидан олинган препаратлар ёрдамида бажарилади. Сульфонлар мохов бактериясига карши бактерицид таъсир курсатади. Таъсир механизми сульфаниламидларникига якин булиб, сульфонлар парааминобензой кислотасига ракобат килиб, унинг усиш омилини хосил булишига тускинлик килади. Сульфонлар узок ишлатилиши натижасида кумуляцияни келтириб чикариши мумкин. Чунки уларнинг танадан чикиб кетиши ният секин кечади.

Ножуя таъсири натижасида иштаханнинг йуқолиши, кунгил айнаши, кайт килиш, алергик холатлар кузатилади. Айрим холларда гепатит, психоз ва камконлик касалликлари кузатилиши мумкин.

Диафенилсульфон-сил ва мохов микобактерияларига бактерицид таъсир килади. Танага захарли таъсир курсатиши мумкин. Айниқса жигарни ва гемопозни издан чикаради. Препаратлар жигар, кон касаллигида, меъда-ичакнинг уткир хасталикларида ва юрак-томир тизимининг заифланишида тавсия этилмайди. Диафенилсульфон билан даво килишда амидопирин ва барбитуратлар бериш мумкин эмас.

Солюсульфон- мохов микобактерияларига танлаб таъсир киладиган препарат булиб, бошка дориларга нисбатан афзалрок. Фармакологик таъсири буйича кучлирок, ишлатилиши буйича резорбтив ва махаллий максатда буюрилиши мумкин булган дори. Шунинг учун солюсульфон моховга даво килишда энг куп ишлатиладиган асосий препарат хисобланади. Дапсон ва клофазимин препаратлари хам мохов микобактерияларига карши таъсир курсатади.

Препаратлари:

Диафенилсульфон (Diaphenilsulfonum). 4, 4-Диаминодифенилсульфон. 0, 05 г дан таблетка шаклида чиқарилади. Буюрилиши: схема бўйича 0, 05-0, 1 г дан кунига 2 марта ичилади.

Солүсульфон (Solusulfonum). 4, 4-ди-(3 фенил-1, 3-дисульфопропиламин)-дифенилсульфоннинг тетранатрийли тузи. 10 г дан кукун холида чиқарилади. Буюрилиши: 50 % сувли эритмаси мушак орасига схема бўйича юборилади.

Дапсон (Dapsone). Мохов ва сил микобактерияларига таъсир этади. Мохов касаллигини даволашда асосий дори воситаси ҳисобланади. Шу гуруҳнинг бошқа препаратлари билан ишлатилади. Таблеткада 0, 025; 0, 05 г дан чиқарилади. 4-5 ҳафта давомида ҳар 6 кунда танаффус қилинади.

Клофазимин (Clofazimine). Мохов микобактерияларига секинлик билан бактерицид таъсир этади. Капсулада 50-100 мг дан чиқарилади. 300 мг 1 ойда 1 марта шифокор назоратида, 50 мг дан уй шароитида кунига 1 марта берилади.

Метазид (Methazidum). 1, 1-Метил-бис-изониконитрозилгидрозон. 0, 1 ва 0, 3 г дан таблетка холида чиқарилади. Буюрилиши: 0, 5 г дан кунига 2 марта.

ПАСК-натрий (Natrii para-aminosalicylas). Пара-аминосалицил кислота-нинг натрий тузи. 0, 5 г дан таблетка ва кукун холида чиқарилади. Буюрилиши: 3-4 г дан кунига 3 марта ичилади. Венага 3 % эритмаси 250-450 мл томчилаб юборилади.

Стрептосалүзид (Streptosalezidum). Моносүльфат изоникотинол (2-карбок- сил-3, 4-диметоксибензол) гидразанинг стрептомицинли тузи. 0, 5 г дан флаконда чиқарилади. Буюрилиши: 0, 5-2 г дан бир кеча-кундузда мушак орасига юборилади.

Флоримицин сүльфат (Florimycinum sulfas). 0, 5-1 г дан флаконда чиқарилади. Буюрилиши: 0, 5 г дан кунига 2 марта мушак орасига юборилади.

Фтивазид (Phtivazidum). Изоникотин кислотанинг 3-метокси 4-оксибензилиденгидразида. 0, 1-0, 5 г дан таблетка шаклида чиқарилади. Буюрилиши: 0, 5 г дан кунига 2-3 марта ичиш учун.

Этионамид (Ethionamidum). Тиоамид-этилизоникотин кислота. 0, 25 г дан драже шаклида; 0, 5 г дан ампулада чиқарилади. Буюрилиши: 0, 25 г дан овқатдан сунг ичиш буюрилади.

Этамбутол (Ethambutolum) (+)-N, N-этилен-бис-[2-аминобутан-1-ола]. Таблеткада 0, 1; 0, 2 ва 0, 4 г чиқарилади. Ҳафтада 2-3 марта нонуштадан кейин ичилади. Рифампицин ва изониазид билан бирга ҳам тавсия этилади.

Протионамид (Protionamidum). 2-Пропал-тиокарбоилоил-4-пиридин ёки тиомид α -пропилизоникотин кислота. 0, 25 г дан таблеткада чиқарилади. Буюрилиши: 0, 25 г дан кунига 2-4 марта ичилади.

Циклосерин (Cycloserinum). Д-4-амино-3-изоксазолидинон. 0, 25 г дан таблетка ёки капсула шаклида чиқарилади. Буюрилиши: ичиш учун 0, 25 г дан кунига 3 марта.

Канамицин сүльфат (Kanamycini sulfas). 0, 5-1 г дан флаконда чиқарилади. Буюрилиши: 0, 5 г дан кунига 2 марта мушак орасига юборилади.

Рифампицин (Rifampicinum). 3 (4-метил-1-пиперазинил-аминометил)-рифамицин SV. Капсулада 0, 05 ва 0, 13 г дан; ампулада 0, 15 г дан чиқарилади. Капсулалари кеча-кундузда 0, 45-0, 9 г дан берилади. Венага 0, 3-0, 9 г (2-3 марта) бир кеча-кундузда юборилади.

Пиразинамид (Pirazinamidum). Пиразинкарбон кислота амиди. Таблеткада 0, 5 ва 0, 75 г дан чиқарилади. 1 г дан кунига 2 марта овқатдан кейин ичилади.

Силга қарши моддаларнинг таснифи

Олинишига кура	1-қатор моддалар	2-қатор моддалар
Синтетик моддалар	Изониазид (0, 1; 0, 3 г.таб, 10 % -5 мл. амп.) фтивазид (0,1-0,5г таб) натрий парааминосали- цилат (0,5 г.таб.,кукун)	Этионамид (0,25 г.драже, амп), этамбутол (0,1;0,2;0,4 г таб), Тиоацетазон, Этоксид (0,1; 0,2 таб)
Антибиотиклар	Стрептомицин рифампицин-капс,амп) (0,05	Канамицин сульфат (0, 5-1г.фл), флоримицин (0, 5-1г.фл), Циклосерил (0,25 таб,капс)

Маъруза N 43

Маъруза мавзуси:

"Туберкулёзга қарши дори воситаларининг фармакологияси"

Маърузани давом этиши - 2 соат.

Маъруза режаси:

1. Туберкулёз - сил касаллиги хақида тушинча.
2. Туберкулёз касаллигининг келиб чиқиш сабаблари ва уни олдини олиш масалалари.
3. Туберкулёзга қарши ишлатиладиган асосий ва резерв препаратларнинг фармакодинамикаси, ишлатилиши ва ножо'я таъсирлари.
4. Стрептомицин ва унинг унимларининг фармакологияси.

Маъруза кафедра
йиғилишида тасдиқланган
Баённома N2.3/I-1999 й.

Туберкулёзга карши дори воситаларининг фармакологияси

Хозир бутун дунёда о'пка касалликлари ко'пайиб бормокда ВОЗ бо'йича 1 млн одам сил касаллиги билан жарохатланган.

1 одам 1 кунда 1 минг литр хавони о'пка оркали о'тказиб туради. Яна ВОЗ берган маълумот бо'йича хар 1 сек.да 1 та одам сил касали билан жарохатланмокда.

Туризмни кучайиши, нафас билан хавони ифлосланиши, иктисодиётни оғирлашиши ҳам сил касаллини ко'пайишига олиб келади.

Касал одам бир кунда 8 млн-гача микробларини ташкарига чикаради. Бу ерда санитария ва гигиена катта рол о'йнайди. Шунинг учун ҳам 24 март бутун дунё бо'йича силга карши кун деб эълон килинган.

Жахон СоКликни Саклаш ташкилотини берган маълумотига караганда хар йили жахон бо'йича 1 млн одам туберкулёз (tbs) билан оғрийди, шундан 3 млн киши нобуд бо'лади (Фармация, 1999, N5,37-39 бетлар).

Бунинг асосий сабабларига МХД бо'йича куйидагиларни киритиш мумкин:

1. Бозор иктисодиётига о'тиш билан моиловий кризисларни;
2. Социал-демократик ҳолатининг о'зига хос формаларини мавжудлиги:
 - а) Яшаш учун зарур маКлабларининг о'та пастлиги;
 - б) Аҳолининг кенг микиёсдаги миграцияси;
 - в) еочоклар масаласини ко'пайиши;
 - г) Ишсизлар сонининг ошиб кетиши;
 - д) Аник бир яшаш жойнинг йо'клиги;
 - ж) Алкоголизмни, наркоманияни ко'пайиб кетаётганлиги ва шу билан боғлиқ турли хил хоинликлар, талофатлар, о'Криликлар ва о'лдиришларни ошиб кетиши.

3. Профилактика ишларини амалга ошириш учун аҳолининг ко'пчилики кисмини жалб этаолмаслигимиз. Шунинг учун ҳам баъзан о'лганларни ёриб ко'рилгандагина уни tbs билан оғриб о'лгани аникланмокда. Бирор дардга касалликга карши инсон организмни о'з ички резервлари хисобига курашади ва уни олдини олишга ҳаракат килади.

Бу борада Гиппократни ушбу ибораси жуда о'ринлидир:

"Природа, никем не изученная, делает то, что нужно". "Хечким томонидан о'рганлмаган табиат, керакли нарсани килади".

Tbs-ни *Mycobacterium tuberculosis* юзага чикаради. Tbs билан одамнинг хамма органлари зарарланиши мумкин, аммо хаммадан ко'прок одам о'пкаси жароҳатланади.

Шуни эсда тутиш керакки Tbs билан хамма хам зарарланиши мумкин, лекин бу юзага чикмайди, чунки организм о'зининг ички резервларини (фагоцитоз, антитела ишлаб чиқариш) ишга солиб Tbs ни ривожланишига йо'л ко'ймайди.

Tbs-ни даволашда организмни ички резервлари билан бирга Tbs таёкчаларини хаётичилигини йо'котувчи дориларни бирга ишлатиш керак бо'лади.

Tbs таёкчалари катага чидамли бо'либ, улар о'зларида турли хил липоидларини саклагани учун Tbs га карши препаратларани микробактериялар ичига киришни кийинлаштирадilar.

Бундан ташқари Tbs билан жароҳатланган то'кималарга . Tbs учун ишлатилаётган препаратларини кондан о'тиши анча оғир о'тади. Чунки Tbs билан жароҳатланган то'кималар атрофида яллиғланиш ва инфильтрация хисобига "биологик то'сик" то'кима хосил бо'лади.

Бу то'сик орқали химиотерапевтик препаратлар то'кима ичига яхши о'та олмайди. Tbs _ та ё _ кчалари эса факат то'кима ичидагина бо'лади ва ривожланади. .Шунинг учун хам Tbs билан жароҳатланган беморларни эрта диагностика қилиш ва даволаш (хали "биологик то'сик" яхши ривожланмаган вақтда) яхши натижалар бериши мумкин. Tbs касалликларини даволаш эса, айниқса у ривожланган бо'лса, бир неча ойлаб давом этади. (6-9

ва 12 ой), суринкали Tbs касалларида эса даволаш муддати 1-2 йил давом этиши мумкин.

Tbs бактериялари (таёкчалари) эса 2-4 ой ичида ишлатилаётган Tbs-га карши _ препаратларга ко'никиб ва о'рганиб қолиши мумкин. . Шунинг учун хам эффектив даво ни юзага чиқариш учун Tbs _га карши препаратлардан бир нечасини бирга ко'шиб ишлатиш лозим бо'лади. Чунки бундай _килинганда . Tbs бактерияларининг ривожланишини _ турли стадия ва процессларига таъсир этиб . уларни о'лдириш ёки ко'пайишини то'хтатиш мумкин.

Ёки Tbs билан жароҳатланган беморни Tbs-га карши актив препарат билан даволашни бошлаб маълум вақт о'тгандан кейин (препаратга ко'никиш бошлангач), кучсизрок Tbs-га карши препаратлар билан даволашга о'тиш керак бо'лади. Яни: аввал _ 1 катор (асосий) . Tbs-га карши препаратларини _ со'нгра 2 катор . (резервдаги) препаратларни бериш керак.

Tbs-ни даволашдаги натижалар

Бактериологик анализлар ва рентгенологик назорат остида контрол қилиб борилади. . Олинган натижаларга қараб беморни даволашни давом эттириш ёки эитирмаслик масалалари ҳал этилади.

Тбс-га қарши ишлатиладиган препаратлар 2 гурппага бўлинади.

1. Тбс-га қарши ишлатиладиган асосий, ёки 1 қатор препаратлари:

Бу гурппа препаратларига нисбатан беморлар тезроқ қониқиб қолади.

2. Тбс-га қарши ишлатиладиган резерв ёки 2 қатор препаратлари:

Бу гурппа препаратлари анча захарли бўлиб, уларга микробларни қониқиши секинроқ юзага чиқади.

1 қатор препаратларига:

1) Стрептомицин ,5-1 г.(4-5 йиллардан ишлатилади.) (1944 й.Ваксман).

2) Рифампицин ,3-,75 г. оҚиз орқали. [грамм+] таъсир этади.

Тбс микроорганизми ичида РНК синтезини сусайтиради.

3) Изониазид (тубазид (ИНК) ,1-,2 ва ,3 г табл. Баъзан ректальна ва венага бериш мумкин. Микроб фосфолипид мембранасини бузилади.

4) Фтивазид ,5 табл.

5) На парааминосалициловой кислота (1941-1946 й. Бернегейм ва Гиллерлер).

6) Бипаск.

7) Солузид ,5 табл.

8) Солюзид (эручан) soluble 5%-1-2 мл.

1%-1 мл

Порошокда.

9) Метазид ,1; ,3 ва ,5 г табл.

1) ГИНК-гидрозид изоникотиновая кислота (ИНГА)

Изониазид ОИС орқали берилганда 1-2 соат ичида қонда унинг максимал концентрацияси юзага чиқади. Ацетилланиш процесси билан унинг инактивацияси юзага чиқади.

Бу препаратлар бактериостатик ва бактерицид таъсирга эга. Улар оксил синтезига таъсир этади.

Изониазид ва унинг унимлари (.фтивазид, солюзидлар, метазид)

Тбс-нинг барча турларига берилади. Улар . Тбс та .ё қчаларини деворига ва ичига кириб, у ерда оҚир металллар билан хелатли бирикмалар ҳосил қи-

_либ .Tbs _ та .ё _кчаларини ривожлантирувчи ферментларини ишдан чиқаради.

Яна шуни айтиш керакки Tbs-га қарши препаратларини, айниқса шу группа препаратларини қўлланилганда, организмда витамин В 46 ни етишмовчилиги қайд этилади. Чунки: организмда

_Пиридоксаль + АТФ - Пиридоксальфосфат+АДФ ...

Бу процесс эса пиридоксалькиназа таъсирида бўлади.

_Изониазид эса шу фермент фаоллигини камайтиради. . Натижада пиридоксиндан _ фосфопиридоксални пайдо бўлиши бузилади, . пиридоксинни организмдан чиқиб кетиши кучаяди.

Бу процесс ҳам микроб, ҳам бемор организмда қайд этилади. Шунинг ҳисобига организмда витамин В 46 етишмовчилиги юзага чиқади.

Бу о'ринда витамин В 46 группага бой овқатлар, витаминлар, купир ва микроэлементлар (Си,Zn) берилади.

_Изониазид ва унинг унимлари барча барьералардан яхши о'тади.

Асосан буйрак, о'пка ва жигарда қўпроқ йиқилади. Улар жигарда инактивацияга учрайди. Буйрак ва қисман жигар орқали организмдан чиқиб кетади.

Бу группа препаратларининг ноқо'я таъсирлари: МНС функциясини бузилиши: бош оҚриҚи, уйқусизлик, эйфория; аллергия реакциялар,

диспепсик ҳолатлар, жигар (гепатит) ва буйракни, қон пайдо қилувчи органларнинг (анемия, агранулоцитоз) бузилиши мумкин.

Витаминлар алмашинуви (В 41 , В 46 , С, К ва бошқалар) бузилади.

_Стрептомицинда эса . вестубуляр (ички қулоқ) аппарат бузилади, қарлик юзага чиқади. Стрептомицин ҳамма органларга ва Tbs қавернала-рига яхши о'тади, агарда қаверна фиброз капсула билан о'ралмаган бўл-са. Препарат орқа мия суюқлигига ҳам яхши о'тади.

_ПАСК-нинг Na . 5+ ли тузини ва рифампицинни турли авторлар турлича изоҳлаб ҳам 1, ҳам 2 қатор препаратлар группасига қиритишади.

ПАСК ПАБК билан конкурент таъсирга эга. Яни:

ПАБК ПАСК

Нормада + фол.кислота.

Фолиновая кислота

Пурин пиримидин

РНК ДНК

Натижада Tbs таёкчаларини о'сиши учун зарур бо'лган ПАБК о'рнини ПАСК эгаллаб микроблар о'сишини то'хтади.

_Рифампицин . кучли Tbs таёкчаларига, айникса локал формадаги Tbs-да, таъсир этади, кам захарли. Препарат ёш ва балоКатга етган беморларда яхши ёрдам беради.

Аммо унинг гепатотоксик таъсири бор.

2 сатор Tbs препаратларига куйидагилар киради:

- 1) Этамбутал (Диамбутол ёки миамбутол) ,1-,4. РНК синтезини сусайтиради. Организмда 2 валентли метал тузлари билан (Mg, Cu, Zn, ва Fe) билан боКланиб РНК синтезида иштирок этувчи ферментларни ишдан чикаради.
- 2) Этианомид ,25 табл. (тионид, трекатор, низотин, ,5 пор. фл. суспензия килиб юборилади).
- 3) Протионамид (тривентикс) ,25 таб., дражада.
- 4) Тиаоацетазон ,1-,5 табл.
(тибон, тебетин, тубегал, контебен)
Бошкаларига караганда захарли.
- 5) Циклосерин ,25 табл. ва капсулада.

Препаратда кумуляцияланиш кобилияти бор.

Бактериялар кобиКини ишдан чикаради.

ОИС яхши со'рилади.

6) Канамицин моносульфат ,125-.25 табл.

Бактерияларда оксил синтезини бузади.

7) Флоримицин ёки биомицин ,5-1 г флаконда мушаклар орасига юборилади.

Бу препаратларнинг хаммаси жигарга нисбатан захарли таъсир этади, чунки улар жигарда метаболизмга учрайди ва асосан буйракдан, хамда ОИС-дан чикиб кетади.

Буларнинг хаммаси диспептик ҳолат (5% якин) юзага чикаради.

Шунингдек 1 катор Тbs препаратларини ножо'я таъсирларини кайд этиши мумкин. Яни нервритлар, ототоксик ва нейротоксик симптомлар, вестибуляр аппаратга таъсир, ко'зни ко'риш (этамбутал) кобилиятига, жигар функциясига (рифампицин) таъсир этади ва суперинфекция (рафампицин, стрептомицин ва канамицин) ҳолатини юзага чикаради.

Стрептомицин ва унинг унимлари группаси.

Бу группага: стрептомицин сульфат ,25; ,5 ва 1г флаконда.

Стрептомицин сульфат -//-/-

Стрептомицин хлоркальций комплекси ,1; ,2 ва ,5 г.фл.

дигидрострептомицин сульфат ва -//- -/- пантотенатлар киради.

Бу группа препаратлар асосан грамм (-), қисман грамм (+) ва кислотага чидамли бактерияларга таъсир этади. Жумладан Тbs таёкчала-

рига. Улар бактерицид таъсирга эга бо'либ _рибосом даражасидаги оксил _синтезига таъсир этади.

В/м юборилганда тез со'рилади, 12-24 соатда бурак оркали фильтрация йо'ли билан чикиб кетади. Шунинг учун буйрак хасталигида препаратнинг ножо'я (нейротоксик, ототоксик) таъсирлари юзага чиқади.

Препаратга микроблар тезда о'рганиб қолади (2-6 ой ичида), лекин у гематоэнцефал барьердан яхши о'таломайди. Уни орқа мия каналига юбориб бо'лмайди. Ўпкага аэрозол (3-5 мл) юбориш мумкин.

Орқа мия каналига стрептомицин хлоркальций комплексини (NaCl ва ,25% ва ,5% новокаин эритмасида) 2,-3 мл ҳисобида юбориш мумкин.

Ножо'я таъсирлари:

Стрептомицинни икки катор Тbs га қарши препаратлари билан ком-

бинацияда бериш мумкин, лекин 2 катор препаратлари ичидаги антибиотиклар (канамицин, флоромицин) билан бирга бериб бо'лмайди. Чунки бу антибиотикларда ҳам ото-ва -нефротоксик хусиятлари бор.

Стрептомицин ОИС микрофлораларни активлигини сусайтиради, натижада турли хилдаги панос (ич кетиш)лар юзага чиқади.

Бу препаратларни берганда VIII пар нерв функциясини назорат қилиб бориш керак, чунки вестибуляр аппаратини функциясини бузиши ва эшитиш ҳолатини сусайиши қайд этилади, баъзан қарлик юзага чиқади.

Тбс касаллиги узок даволанади. Стрептомицинни узок ко'лланганда контактли дермотитлар юзага чиқади.

Препаратга аллергия реакциялар юзага чиқиши мумкин.

Бунда дегидро стрептомицин пантатенат яхши ко'л келади.

Туберкулезга қарши препаратларни ҳозирги кунда қуйидагича гурппага бо'линади:

1 гурппа- қучли таъсирга эга препаратлар. Буларга изониазид ва рифампицин қиради.

2 гурппа- о'ртача таъсирга эга препаратлар. Буларга этамбутал, стрептомицин, этионамит, канамицин, циклосерин, флоримецинлар қиради.

3 гурппа- қучсиз таъсирга эга препаратлар. буларга ПАСК ва тиоацетазон қиради.

2Маъруза N 44

Маъруза мавзуи:

2"Спирохетларга (захм, сифилисга) ва вирусларга
2карши препаратлар фармакологияси"

Маърузани давом этиши -2 соат.

Маъруза режаси:

1. Спирохетлар устида тушинча.
2. Спирохетларга карши препаратларни кашф этилиши ва П.Эрлих кашфиёти.
3. Висмут препаратлари ва уларнинг ишлатилиши, ножо'я таъсирлари.
4. Вирусларга карши воситалар, уларнинг ишлатилиши ва ножо'я

таъсирлари.

2Маъруза кафедрада
2йиКилишда тасдиқланган
2Баённома N18.2.1999 й.

СПИРОХЕТОЗАЛАРГА (ЗАХМ, СИФЛИСГА) ВА ВИРУСЛАРГА КАРШИ ПРЕПАРАТЛАР ФАРМАКОЛОГИЯСИ.

Абу Али ибн Сино XI асрдаёк захм-сифилисга карши симобни тавсия этган. П.Эрлих 1891 йилда безгакка карши ко'к метиленни, 197 й. да эса захмни даволаш учун маргумушнинг органик моддаси-сальварсанни таклиф этади ва биринчи бо'либ, химиотерапия со'зини тиббиётга киритади. Сифилисга карши маргумуш ва унинг унимлари орасидан кидириш бошланади. Бу ишни П.Эрлих олиб боради. Синтезни асосини маргумушнинг органик бирикмаси атоксил (парааминофенил маргумуш кислотасини натрийли тузи) ташкил этади. Сифилис спирохеталарига таъсир этувчи ва организм учун кам захарли маргумуш препаратини олиш учун П.Эрлих 66 та маргумуш препаратини синтез қилади ва 66 синтезда сифилисга таъсир этувчи сальварсанни 197 йилда олади. Унинг сувда эрувчи формасини 1912 йилда неосалварсан (новарсенал) ни олинади. Захм ёки сифлис касаллигини ок спирохета (*Shirocheta pallida*)лар юзага чиқаради. Касалликни 4 та стадияси мавжуд:

1. қаттиқ шанкр даври;
2. Терига кизил тошмалар тошиш даври;
3. Суяк ва ички органлардаги гуммалар даври;
4. Ривожланган паралич даври.

Захмни даволаш учун аввал симоб препаратларида фойдаланилган.Аммо улар захарли бо'лгани учун маргумушдан фойдалана бошладилар. Бунинг учун 197 йилда П.Эрлих 66 препарат сальварсанни синтез қилди ва беморларни даволашда ишлатилди. Аммо бу препарат ҳам захарли бо'либ чикди. Янги препаратни излаш давом эттирилди ва 1914 йилда 914препарат новарсенол олинди ва беморларни даволаш учун тавсия этилди.Уларнинг таъсир механизми ко'йидагича:

Яъни маргумуш микроорганизмни кобиғига кириб, уларнинг ичидаги актив ферментларни SH группаси билан бирикиб уларнинг активлигини йо'котади.

_Сальварсан таркибида 51% маргумуш бор. У организмда оксидланиб арсеноксидга о'тади ва микроорганизмларни о'лдиради. Шунингдек бемор организмга ҳам зарарли таъсир этади. Сальварсан сувда секин эрийди, хаво ва куёш нури таъсирида парчаланиб токсик ҳолатга о'тади.

_Неосальварсан ёки новарсенол таркибида 2% маргумуш бор бо'либ, кам захарли, 15-6 гр. дан порошок ҳолида ампулада чиқарилади. Ишлатишдан аввал инъекция учун сув билан эритилади. Бунинг учун ампуладаги порошок ҳолати текшириб ко'рилади. 5 мл сув ко'шиб, чайкатилади, шиша таёкчалар ёрдамида аралаштирилади. Со'нгра 5 мин давомида венага юборилади, чунки эритма хавода оксидланиб,ишлатиб бо'лмайдиган ҳолатга келиб қолади. Бемор ҳарорати 37,5 С дан юқори бо'лса уни бериб бо'лмайди. Болаларга ва хомиладор аёлларга берилмайди. Осарсол- таблеткаси 1-2,5 г. Бу препарат захмни тери, кечикиб кетган формаси, нервдаги формасида ва ёш болалардаги туғма захм-ларда яхши ёрдам беради. Осарсол сувда яхши эримади, лекин ишкорий муҳитда эрийди. У о'зида 27% мургумуш саклайди.

Ҳозирги кунда иккиламчи ва учламчи сифлисларни даволашда ишлатилади. Уни овқатдан 1 соат олдин оғиз орқали 5 кун давомида маълум схема билан берилади.

Бу препаратларни ишлатилганда геморрагик энцефалит, сальварсанли дерматит, сарик касаллиги, гепатит, пониневрит ва ярали стамотитлар кайд этилиши мумкин.

Хозирги кунда захмни даволаш учун бензилпенициллин ва унинг унимларидан, ҳамда висмут препаратларидан фойдаланилади. Висмут препаратлари ҳам маргумуш препаратлари каби спирохеталарни ичидаги ферментларини SH группаси билан бирикади ва уларни активлигини йо'котади. Натижада спирохеталар холок бо'ладилар. Висмут препаратлари со'рилгач, асосан ОИС-нинг шиллик, жигарда, буйракда ва суяк то'кималарида ко'прок то'планадилар ва шу органларни жарохатлайдилар. Натижада стамотитлар, оч рангли хошиясимон (каёмок) белгилар, милкда ва тишларда " висмутсимон каёмок" лар пайдо бо'лади.

Висмут препаратларига куйидагилар киради:

Биохинол-1 мл. фл.

Бисмоверол -1 мл,фл.

Биохинол ва бисмоверол моновисмут тартаратни шафтоли ёғи билан нейтралланган взвесь (коришма) бо'либ, унинг хар 1 мл-да ,5 г висмут метали бор. Бу препаратларни 4-5 С гача киздириб, аралаштириб, со'нгра мушаклар орасига контрол-назорат остида чукуррок килиб юборилади. Бунда биохинолни 2-3 мл дан 3 кунда 1 марта, бисмоверолни эса 1-1,5 мл хафтада 2 марта юборилади.

Биохинол - йод, висмут ва хининни 8% нейтрал шафтоли ёғидаги коришмасидан иборат. Бунда йод-54-56% ни, висмут-23,5 -25% ва хинин-19% ни ташкил этади, ёки 1 мл суспензияда ,2 г висмут бо'лади.

Таъсир механизмида: висмут спирохаталарни о'лдиради, йод-захм тукумаларини со'рилишини тезлатади, хинин эса-организмни тонусини оширади.

Бисмоверол -моновисмут кислотасининг висмутли тузини шафтоли ёғи оливка ёғидан эритмаси.

Бунинг хар 1 мл-да ,5 г висмут бор.

Вирусларга карши воситалар:

Вируслар жуда майда микроорганизмлар бо'либ бактериал филтрлардан хам о'тиб кетади. Улар хужайраларнинг о'зидаги оксил синтезлайдиган препарат хисобига ко'паяди. Бу вируслар о'зида РНК ва ДНК тутувчи гурухларга бо'линади. Вирусларга танлаб таъсир килувчи дорилар ва уларнинг яратиш жу

да мушкул иш. Лекин вирусларнинг айрим турларига танлаб таъсир этувчи препаратлар мавжуд. Бу препаратларнинг бир гурухи вирус касалликларининг олдини олиш учун, иккинчи кисми эса уларни даволаш учун ишлатилади.

Вирусларга карши препаратлар таъсир механизмига ко'ра куйидаги 5та гурухларга бо'линади:

1. Вирусларни хужайрага ёпишиши ва ичига киришига карши ва улардан вирус геномларини ажралиб чикишига карши таъсирга эга препаратлар. Амантадин ёки мидантан ,1 таблетка.

2. Вирус оксилларини синтезида иштирок этувчи ферментларга карши таъсир этувчи препаратлар: гуанидин.

Вирусларга карши ишлатилган биринчи препарат Г.Домарк (1946)томонидан турмушга тадбик этилган тиосемикарбазон дир.

Бу группа препаратлар вирусларга нисбатан кам активликга эга бо'либ, асосан тbs га карши ишлатилади. Шу препаратнинг унимларидан бири Руминияда " _Фарингосепт" . номи билан чикарилади ва юкори нафас йо'ллари касаллигида тил остига шимиш учун берилади. Кейинчалик ме-

тисазон ва идоксуридин синтез килиб олинди. Булар ко'прок махаллий йо'л билан (кератитларда) ишлатилади. 1964 йилга келиб амантадин ёки мидантан синтез килиб олинди.

Ацикловир- нуклозид дезоксигуанидин фл. ,25г (25 мг) по 5 фл.

NaClда табл.,2г. 3% ко'зга ишлатилувчи малхам.

Ганцикловир-фл.,546г. extempore эритилади, укол учун сувда эритилади ва факат венага юборилади.(рН= 9-11,) Оксолин вирусларни о'лдириш кобилиятига эга. Уни ко'з, тери ва бурунни ренит вирусли касалликларида ишлатилади. Шунингдек

уни грипп профилактикасида ҳам берилади. Препарат кератоконъюнктивитда, кератитда, вирусли ринитда, сугалларда ишлатилади.

Кератитларда янги эритилган ,2% сувдаги эритмаси ишлатилади. Муддати холодильникда 1 кунга тенг. Шунингдек ,25% малхами ҳам ишлатилади. Уни кечаси ко'зга суриб ко'йилади.

Лишайни турли турларида 1% ва 2% малхамни ишлатилади.

Со'галларга эса 1%, 2% ва 3% малхам сурилади, 2-3 марта 1 ой давомида малхам сурилиб устига вошанли коғоз ко'йилади. Вирусли ринитда ,25-,5% малхам ишлатилади.

3. Нуклеин кислота синтезига яъни ДНК ва РНК га карши таъсир этувчилар.

Идоксуридин ,2% эритма, ко'зга томизилади.

Видарабин (ДНК га) Актиномицин-Д (РНК)

4. Вибрионларнинг жойлашишига халакит берувчилар:

Метисазон ,2 таблет. чечакга (оспа) карши ишлатилади.

5. Хужайраларни вирусларга чидамлилигини оширувчилар.

Алпизарин ,1 табл. 2-3% мазь.

Интерферонлар порошок холида 2 мл-ли амп. чикарилади.

Бу биоген аминлардан иборат бо'либ, организмда вирусларга карши (эндогенли препарат) ишлаб чикарилади ва организм хужайраларини вирусларга чидамлилигини оширади. Улар вирусли гриппда, учукли касалликларда, кератитларда, тери ва жинсий органлар шиллик пардаларининг учукли касаллигида, вирусли гепатитда ва темираткида яхши ёрдам беради. Уларни махаллий ва парентерал йо'л билан ко'лланилади.

Ножо'я таъсири: температура ко'тарилиши ва укол о'рнида оғрик бо'лиши мумкин.

Интерферон кичик ММ эга оксиллардан иборат бо'либ, унинг ММ 15-25. Бу препарат биринчи марта 1957 йилда очилган. Яъни вирус билан жарохатланган то'кима о'зидан-о'зига хос оксил ажратиб чикаради ва бу оксил вирусларни ривожланишини то'хтатиш қобилятига эга. Демак, интерферон организмни ички химоя схемасининг унимидир. Шунинг учун у иммунномодуляция таъсирига эга.

Хозирги кунда интерфероннинг турли формалари мавжуд:

7a 41 ва 7a 42 -интерферон.

7b -интерферон.

7g -интерферон.

Булардан 7a 41 -интерферон 7b -лимфоцитлардан, 7b -интерферон фибробластдан, 7a 42 -интерферон эса Т-лимфоцитдан ажралиб чиқади.

Ген инженерия йо'ли билан Реаферон олинган. Реаферон -ген инженерия йо'ли билан олинган 7a 41 -интерферондир махаллий, кузга ва мушак орасига юборилади.

Препарат ампулада чикарилади ишлатишдан аввал 1 мл NaCl да эритиб олинади.

Флаконда-Вирусли гепатитда ишлатилади, яъни ампулада 1 млн МЕ чикарилади. 2 махалдан 5-6 кун давомида, со'нгра 1 махал яна 5 кун юборилади.

Госсипол-пахта чигитидан ва пахта илдизидан олинади. Препарат турли хил вирус штамларига химиотерапевтик таъсир этади. Хусусан у терилардаги вирус

штамларига, оғиз ва лаб атрофидаги герпесларга яхши таъсир этади. Препарат гармм (+) микробларга хамтаъсир ко'рсатади.

Госсипол 3% линимент холида ишлатилади. Уни осакровчи ли-шай,псориазаларда ишлатилади. Госсипол линеменидан жарохатли терига юпка килиб сурилади. 1 кунда 4-6 марта 1 курси 5-7 кун давом этади.

Герпитик керотитларда госсиполни натрий боротдаги ,1 % эритмасиши ишлатилади. Уни конъюктивал копчага 1 кунда 5-6 мартаба 1 томчидан 11-15 кун давомида томизилади.

Бу препаратни эркаклар учун контроцептик препарат сифатида хам ишлатилади, аммо бунинг о'зига хос салбий томонлари хам бор.

- 289 -

2Маъруза N 45

Маъруза мавзуси:

2"Малярияга карши препаратлар фармакологияси"

Маърузани давом этиши - 2 соат.

Маъруза режаси:

1. Малярия ва унинг турлари хакида тушинча.
2. Маляриянинг келиб чикиш сабаблари.
3. Безгакга карши ишлатиладиган дори воситаларининг фармакологияси (ишлатилиши, таъсири ва ножо'я таъсирлари).

2Маъруза кафедра
2йиКилишида тасдикланган

2"Малярияга карши препаратлар фармакологияси"

Малярия турли хилдаги юкори температура ко'тарилувчи касаллик бо'либ, унда жигар ва кора талок катталашиб кетади, баъзан эса МНС жарохатланади.

Малярия кадим зомонлардан Греция ва Рим врачларига маълум бо'либ, индейцлар уни даволаш учун хинин ишлатганлар. Факат 1638 йилдагина Еропалик олимлар, врачлар бу касалликга хининни даволовчи дори сифатида ишлатиш мумкинлигини аниклаганлар ва 164 йилда эса хинин сакловчи дарахт по'стлоКини Европага олиб келганлар.

_1816 йилда . рус олими Гизе Ф.И. хинин сакловчи дарахт по'стлоКидан тоза кристаллик _ хинин ажратиб олган. . Унинг синтез йо'ли билан олиш эса 1944 йилдагина ишлаб чикилган.

Малярия касалини чакирувчи микроорганизм 188 йилда Француз олими Шарл Лаверан томонидан кашф этилган.

Безгак (малярия) одамдан-одамга *Anopheles* оиласига кирувчи чивинлар оркали таркалади. Безгак таркатувчи микроорганизм-плазмодия доимо о'з эгасини о'згартириб туради.

Беморни чаккан чивин организмида безгак таркатувчи микроорганизмни жинсий ко'пайиш процесси ва ундан кейинги тараккиёти ри-

вожланади. Бу циклга _спорогония . цикли дейилади.

Кейинги бир ядроли касал таркатувчи безгак микроорганизмининг жинсий бо'лмаган ко'пайиш цикли- _шизогония ., умиртка поКоналилар организмда давом этади.

Бемор организмдаги безгак таркатувчи микроорганизмни ривожланиши процесси 2 циклдан иборат бо'лади:

1. То'кималардаги шизогония
2. Эритроцитлардаги шизогония.

Чивин одамни чаккач, безгак инфекцияси аввал то'кималарда ривожланади (асосан жигарда), со'нгра _ мерозоитлар . формасида эритроцитларга о'тиб эритроцитларда ривожланиш давом этади ва _ эркак ва а .ё _л формасидаги гаметоцитлар . хосил бо'лади. Бу процесс бир неча бор кайтарилади ва беморда безгак хуружини юзага келтиради. Чунки эритроцитлар ёрилиб ундан токсик вапиртин моддалар ажралиб чиқади.

Безгакга карши препаратлар қачон, қайси циклга ва қайси стадиясига таъсир этишига қараб бир неча таъсирга эга бо'лади:

1. Шизотроп таъсир;
2. Гамотроп таъсир;

Булар 2 га бо'линади:

гаматоцитли ва гамостатик таъсир.

Гамостатиклар эса яна 2 га бо'линади: дисфлангирующий ва кечикиб гамостатик таъсир этувчилар-споронтоцидлик таъсир деб ҳам юритилади.

Безгакга карши препаратлар, таъсир этиш формаларига ва қачон ишлатилишига қараб қуйидаги группаларга бо'линади:

1. еондаги (эритроцитдаги) шизонтоцидларга таъсир этувчи препаратлар;
2. То'кимадаги шизонтоцидларга таъсир этувчи препаратлар. Булар: бирламчи ва иккиламчи то'кималарга таъсир этувчиларга бо'линади:
3. Гамонтоцидларга таъсир этувчилар ва
4. Споронтоцидларга таъсир этувчилар.

Препаратларнинг классификацияси:

Препаратлар	Биологик активлиги	
	ёондаги шизон-тоцидлар	То'кимадаги шизонтоцидлар
Хлорохин	+++	-
Амодиахин	++	-
Хинин	++	-
Мефлохин	++	-
Хлоридин	+	-
Сульфадоксин	+	-
Дапсон	+	-
Тетрациклин	+	+
Доксициклин	+	+
Примахин	+	+

Безгак касаллигида ишлатиладиган дори воситалари

Безгак касаллигини келиб чиқишида плазмодийлар сабабчи бўлади. Уларни "плазмодий вивакс", "плазмодий овале" ва "плазмодий фалципарум" ҳамда "плазмодий малярия" лар чакиради.

Безгакни енгил (зарасиз) ва хафли (зарарли) тури мавжуд.

Безгак плазмодийси 2 циклда ривожланади:

I жинсиз (шизогония) циклда

II жинсли (спорогония) циклда

Жинсиз цикли одам танасида, жинсли цикли эса камар-чивин танасида о'тади. Тропик безгакда паразитроцитар тури бўлмайди.

Плазмодийни эритроцитар шакли ёрилиб, улардан мерозоидлар конга чиқиши одамда -"иситма хуружини" юзага чиқаради.

Параэритроцитар шакли плазмодийни эритроцитар ривожланиш даври-
ни ривожланишини кайталантиради ва натижада касалликни кайталашига
олиб келади.

Безгакни 3 кунлик, 4 кунлик ва тропик формалари тафовут этилади.

Чивин

Спорозоидлар (одам конига о'тади)

Плазмодийни параэритроцитар шакли (жигарда) ривожланади.	Плазмодийни преэритроцитар шакли (жигарда) ривожланади.	Хлоридин ,5 ва ,1 табл. Примахин ,3-,9 табл.
---	--	---

Эритроцитар шакли-Бунда меразоидлар ажаралиб чиқади. (давоми кейинги бетда).	Хингамин 5%-5 мл. ,25 табл. Акрехин ,1 Хинин ,25-,5 Бигумал ,5-,1 табл.
--	---

Эркак ва аёл жинсий хужайралар-гамонтлар (эритроцитда) хосил бо'лади.

Хлоридин
Примахин

Бундай одамни чивин чакканда улар чивин танасига о'тади ва жинсли ривожланиш ро'й беради.

Одамни чакса ундан яна таркалади.

Чивин чаккач (*Plos.vivax* и др.) спорозонтлар жигарга тушади.

I. У ерда _ презэритроцитар форма . ривожланиш бо'лади. Со'нгра етилиб улар бо'линади-мерзоитларга.

II. Мерзоитлар конга тушиб эритроцитларга о'тади ва _ эритроцитар _формадаги . ривожланиши бошланади.

III. Баъзан презэритроцитларни ривожланишидан кейин маълум қисм мерзоитлар яна жигарга кон оркали тушади ва у ерда узок ривожланиши (инкубацион) даврини о'тади. Бу даврда бирон бир клиник ҳолат кўринмайди.

Плазмодияни бу формасини _ параэритроцитар . формаси дейди.

Безгакнинг тропик формасида ривожланишнинг параэритроцитар формаси бўлмайди.

1. Презэритроцитар формасида:

_Бигумаль, Хлоридин.

2. Эритроцитар формасида:

_Хингамин, Галохин, Акрехин, Хинин, [Бигумаль, Хлоридин].

3. Параэритроцитар (жигарда) формада:

_Хиноцид и Примахин.

Жинсий формасида (гамоталарда):

4. _ Бигумаль, Хлоридин, . [Хиноцид, Примахин].

5. Тропик формаларида:

_Хлоридин+сульфаниламид .л _ар . _ (сульфапиридазин, диметоксин, сульфален ва б.к.) . _ берилади.

_Бигумаль . (,5-,1 табл,драже)-малярияни тропик формасида яхши таъсир этади. Уни хомиладор аёл ва болаларга ҳам берса бўлади. Уни шахсий профилактика учун ишлатилади. Оксиллар билан яхши боқланади. Эффе́кти секин юзага чиқади.

Бигумалдан конда _ циклогуанин . ҳосил бўлади. Бу эса малярияни кўзКотувчи плазмодияларни гемоглобинни қабул қилишига то'сқинлик қилади.

_Акрехин . (,1 табл.)-уч ва то'рт кунлик малярияни даволаш ва индивидуал профилактикаси учун ишлатилади. Препарат ОИС яхши со'рилади ва 5-8 соат давомида таъсир этади. Асосан буйрак ва о'т оркали чиқиб кетади. Препарат терини сарик ранга о'тқазиш ва "сохта сарик касали"

белгиларини юзага чикаради.

_Хингамин . (25 табл.5%-5 мл ампл.)-акрехин каби таъсирга эга бо'либ уни таъсири кучлирокдир. Уни малярияни хамма турида ишлатса бо'лади. ОИС яхши со'рилади катта дозаларда _ дерматит . чакириши мумкин, лейкопения, диспептик холатлар, массасини камайтиради. Препаратни жигар, буйрак ва юракларнинг органик ва функционал етишмовчилигида бериб бо'лмайди.

_Хлоридин . (5-,1 табл.)-о'тқир ва суринкали токсоплазмодияга яхши таъсир этади. Препарат болалар учун захарли таъсир этади. У эмбриотоксик ва тератоген таъсирга хам эга. Шунинг учун хам уни хомилани 9 хафтаси ичида бериб бо'лмайди.

Препарат хингамин каби таъсир этади, аммо уларнинг таъсири кучсизрокдир. Препарат РНК синтезини бузади.

_Примахин (3-,9 табл.) ва хинозид (5-,1 табл.)- малярияни жамоа точкасида ва о'ринларида профилактика максадида ишалади. Ко'прок рецидивни олдини олади. Препаратни бошка малярияга карши препаратлар билан бирга бериб бо'лмайди. Чунки бунда уларнинг захарлилиги ошиб кетади. Бу препаратлар эритроцитлар гемолизини, лейкопения ёки лейкоцитозни юзага чикариши мумкин.

2Маъруза N 46

Маъруза мавзуси:

2"Гижжаларга карши дори воситаларнинг фармакологияси"

Маърузани давом этиши - 2 соат.

Маъруза режаси:

1. Гижжаларга ва уларнинг турлари хакида тушинчалар.
2. Гижжаларга таъсир этувчи препаратлар, уларнинг таъсир механизмлари ва группаларга бо'линиши.
3. Содда тузилган жониворларга карши ишалтиладиган дори воситаларнинг фармакологияси ва уларнинг ножо'я таъсирлари.

2Маъруза кафедра
2йиКилишида тасдикланган
2Баённома N9.18/II-1999 й.

ГИЖЖАЛАРГА ҚАРШИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ФАРМАКОЛОГИЯСИ

Гижжа (гельмент) лар одам ва хайвон организмида текинхо'рлик килувчи чувалчангсимон жониворлар бо'либ, гельментоз касаллигини келтириб чикаради.

Ер шари ахолисининг 2/3 кismiида бу касаллик у ёки бу даражада кайд этилади.

Гельментлар то'кима суюкликлари билан озикланиб, то'кималарни механик шикастлантиради, организмни захарлайди, организмга ва конга инфекция туширади, камконлик ва аллергия реакцияларни келтириб чикаради.

Гельментлар шартли равишда 3 гурухга бо'линади:

1. нематодалар ёки юмалок чувалчанглар-аскаридалар, острицалар, килбаш ва анкилостомалар.

2. Цестодалар ёки ясси чувалчанглар кенг тасмасимон гижжа, куролланган тизма гижжалар. Бу гурух гижжалар ичакдан ташкарида ҳам бо'лиши мумкин.

3. Трематодалар ёки со'рувчилар.

Гельментларга қарши дори воситалари о'з таъсир механизмига ко'ра 4 гурухга бо'линади:

1. Хужайра захарлари ёки хужайрага захарли таъсир этувчилар: То'рт хлорли этилен киради.

2. Юмалок чувалчангларни нерв - мушак системаси функциясини бу задиган моддалар:

пиперазин ва унинг тузлари 2,5 г таблетка дитразин цитрат 5 ва 1 таблетка левамизол, 5 ёки ,15 табл.

нафтомонлар киради. ,5г табл. ичакда эрийди.

3. Ясси чувалчанг нерв-мушак системаси функциясини бузадиган моддалар. эркак папоротниги препарати, фенасал, порошокда ,25 табл. трихлорофен, наркоз чакирувчи препарат битионоллар киради.

4. Асосан гельментларнинг энергетик жараёнларига таъсир этувчи моддалар: аминокрихин, 1 табл. драже, пирвин памоат, 5 дража кислород 12-15 мл зонд билан ошкозонга юборилади. Ичакда гижжа танасига кириб Н 42 О 42 хосил килади ва о'лдиради. Левамизоллар (декарис ,5 ёки ,15 г табл.) киради.

Гельментларга қарши ишлатиладиган моддалар гельментларга захарли таъсир этадилар. Шу билан бирга улар одам организмига зарарсиз бо'лиши керак. Шунинг учун ҳам бу группа препаратларини ко'ллашда маълум даражада тайёргарликлар ко'рилади ва препаратлар билан гельментлар о'ртасида максимал боқланишни ташкил килувчи шароит яратилади.

Бунинг учун бемор ичаги сурги дорилар ёки хукна (клизма) билан тозаланади. Дори беришдан 1-2 кун аввал енгил хазм бо'ладиган, ёғсиз пархез

овкатлар берилади. Со'нгра препаратлар берилиб, холсизлантирилган гижжаларни чиқариб юбориш учун тузли сурги дорилар берилади (MgSO 44 ёки Na 42 SO 44).

Касаллик асосан чувалчангсимон текинхо'р гелментларни организмга тушишида пайдо бо'лиши мумкин. Баъзан улар камконлик касаллигини юзага чиқаради, баъзан жигар, о'пка, ко'з ва кон томирларни ишдан чиқаради.

Ичак гелментозларида ко'лланиладиган моддаларга пиперазин адипинат, нафтамон, пирантел, О . 42 ва бошқалар киради.

Бу препаратларни ко'ллаганда 9-1% гелментларни йо'к қилиш мумкин. Бу группа препаратларнинг ичида энг активи пиперазин адипинат ва левамизолдир.

Булар кам захарли, олдиндан махсус тайёргарликсиз қабул қилинади, чунки уларнинг о'зи ичак перестальтикасини оширади. Юкоридаги препаратлар каби нафтамон таъсир этади. Уни 5 гр дан _чорак стакан сувда эритиб овкатдан олдин ичилади.

Эркак папоротнигини (Extr.Flucis maris), куюк экстрактини (Цестодаларда), ковок уруғи -Semen Cucurbita, Дармана- Flos Cinac беришдан олдин беморга котган нон билан бир пиёла чой ичирилади ва хукна қилдирилади. Со'нгра 6-7 гр препаратни ,5-1, граммдан ичирилади ва унинг ичакга о'тишини тезлатиш учун натрий бикарбонат ичирилади. Кейин тузли сурги дори ичирилади. Нажосда гелмент бошқаси тушмаган бо'лса, даво курси қайтарилади. Бунда ёғли сурги дори (канакунжут) бериб бо'лмайди.

Содда тузилган жониворларга (протозоаларга) қарши ко'лланиладиган воситалар. Бу группа жониворларга жуда майда бир хужайрали, бактерияларга нисбатан мураккаб тузилишга эгадир. Уларнинг 1 дан ортик турлари бо'либ, органлар то'қималар ва хужайраларда ко'паядилар.

Бу жониворлар жинсий ва жинсиз ко'пайиши ва турли хил касалликларни юзага чиқариши мумкин. Бу касалликнинг ко'п таркаган 5 тури устида то'хтаб о'тамыз.

Шулардан бири Энтам ёба хистолитика юзага чиқарадиган амёбиаз касаллигидир. Бу касаллик иссиқ иклимли мамлакатларда ко'проқ учрайди. Улар ко'пинча йо'ғон ичакни жарохатлайди. Ичак бо'шлиКи ва деворида жойлашади. Жигарда, о'пкада ва бошқа органларда йирингли абцессларни _юзага чиқаради.

Бунда: Метронидазол, 25 ва 5 табл.

Хиниофен 25 табл.

Энтеросептол 5

Эмитин алколоиди 1%-1 мл амп.

Тетрациклин 25 таб.

Хингоминлар ишлатилади (,25 таб.5%-5 мл амп.).

Метранидазол ОИС да яхши со'рилади ва ам ёбаларни бартараф этади ва яна қайталашга йо'л ко'ймайди. Асосан буйрак оркали чиқиб кетади.

Уни ичишга ва махалий интروагинал ко'лланилади. Эметин эса жигарда ко'проқ то'планади ва жигардаги амёбаларни йо'к қилишда наф беради. У ичак бо'шлиКидаги ам ёбаларга ёрдам бермайди.

Организмдан жуда секин (1 ой ичида) чиқиб кетади. Шунинг учун кумуляция бо'лиши мумкин. 1%-1 мл ампулада чиқарилади. Лямблия интестенали лямблиоз касаллигини юзага чиқаради. У ко'проқ болаларда қайд этилади ва кучсизланган иммунологик реактилиги паст организмда ривож топади, канд

касаллигида 9-95% учрайди. Унинг ичак ва жигар формалари бор ва дуаденит ва энтерит холида кайд этилади.

Бунда: Аминохинол 5-5 табл.

Акрехин 1 таб.5 кобикли таб.

Фуразолидон ,5 табл.

Метранидазоллар (25 табл.) ишлатилади.

Аминохинол махаллий таъсирловчи хусусиятга эга бо'лгани учун уни овкатдан 2-3 мин кейин берилади. еондаги макс. концентрацияси 8-13 кунда юзага чиқади ва о'т билан 1 ой давомида ичакга чикиб туради. Уни жигар, буйрак ва кон касалликларида бериб бо'лмайди (лейкопения).

Трихомона вагинали Трихомоноз касаллигини юзага чиқаради.

Аёлларда вульвовагинит, эркакларда эса уретрит кайд этилади. Бунда Метронидазол 25 (флагил, клион, трихопол ва вагимид)

суппозитория холида.

Трихомонацид ,5 табл.

Фуразолидон ,25-,5 табл.

Тинидазол ,15 ва ,5 г табл.

Лютенурин

Осарсол 25 таб ишлатилади.

Содда тузилган паразитларга карши энг ко'п ко'лланиладиган препаратлардан бири метранидазолдир.

Метранидазол содда бактерияларнинг хужайра мембранасидан о'тиб, хужайра ичида нитро группаси кайталаниб-тикланиб гидроксиаминга айланади. Бу модда о'з навбатида хужайра ДНК си билан бо'кланиб, ДНК билан комплекс хосил қилади. Натижада ДНК оксиллар синтезида, яни функционал актив ДНК хосил бо'лишда иштирок этаолмайди. Чунки ДНК комплекси ДНК полимеразаси ва РНК полимеразаси билан контакт қилаолмайди. Натижада ДНК ни кейинги синтези амалга ошмайди.

Демак, метранидазол таъсирида ДНК синтези амалга ошмайди ва бир вақтни о'зида хужайрани бузилиши кайд этилади. Токсоплазма гонди токсоплазмоз касаллигини юзага чиқаради. Бунда лимфа безлари, ичак, о'пка ва бошқа ички органлар жароҳатланади.

Туғрикни бевакт бо'лишига, абортга, хомилани но'ксонли бо'лишига сабабчи бо'лади.

Бунда: Хлоридин 5-1 таб.

Сульфодемизин ,5 табл.

Аминохиноллар ,25-,5 таб. ишлатилади.

Лейшманиоз тери (калазар) ва ички органларни жароҳатлайди. Уни лейшмания тропика ва Доновани юзага келтиради. Уни даволашда акридин ва сурьманинг 5 валентли органик бирикмаси ко'лланилади. Бунда о'лим холати 97% дан 7% гача камайган. Баъзан осарсолдан фойдаланилади. У эса 21-23% сурьма тутати.

Бу препаратлар лейшманияни SH группаси билан боғланиб уларнинг о'сишига то'скинлик қилади. Солюсурьмин (2%-1 мл) висцерал-ички формасига, Акрихин-тери формасига (1 таб.) берилади. Шунингдек Мономицинлар ко'лланилади.

ГИЖЖАЛАРГА ВА ЗАМБУРУГЛАРГА КАРШИ ДОРИ ВОСИТАЛАРИ

Гижжаларни ичакда ва бошка тана аъзоларида булиши хар хил хасталикларга олиб келади: камконлик, тананинг озиб кетиши, тошма тошиши, аллергия холати, асаб тизимининг бузилиши, кабзият, авитаминоз ва хакозолар шулар жумласидан.

Гельминтоз хозирги вақтда айниқса тропик иқлимлик мамлакатларда жуда кенг тарқалган хасталик. Уни бутунлай йукотиш ва даво қилиш соғлиқни сақлаш ташкилотлари учун катта муаммо бўлиб қолмоқда. Гельминтлар қуп хужайралик текинхур жониворлар бўлиб, улар асосан уч хил қуринишда бўлади: думалок, ясси гижжалар ҳамда суриб олувчилар. Думалок гельминтларга ичак нематодалари (аскаридалар, острицалар, власоглавлар), ясси гижжаларга цистодлар (хукиз, чучка ва карлик цепенлар) қиради. Трематодалар-цистосомлар суриб олувчилар гурухига қиради. Умуман олганда гельминтларнинг тури 160 га етади. Бизнинг ҳудудда учрайдиган гижжалар тури эса 60 га яқин.

Гельминтлар танада жойлашишига қараб икки гурухга бўлинади: ичакда ва ичакдан ташқарида жойлашадиган гижжалар.

Уларни йукотишда ишлатиладиган препаратларга қуйидаги талаблар қуйилади: а) препаратларнинг таъсир доираси кенг булиши керак, б) препаратнинг даво қилиш самараси бир марта берилганида юқори даражада булиши керак, в) препаратлар беморнинг тайёргарлигисиз (сурғи дорилар, клизма, пархез ва бошқалар) берилиши керак; г) улар макроорганизмга зарарсиз булиши керак. Ҳозирги вақтда антигельминт препаратларининг қупчилиги ушбу талабларга жавоб бермайди. Мазкур дорилар асосан гижжаларнинг турига қараб танлаб таъсир қурсатади. Шунинг учун уларга даво қилишдан олдин гижжанинг турини аниқлаш зарур.

Антигельминт препаратларининг таъсир механизми қуйидагича: уларнинг аксариятлари гижжа мушакларини бушаштиради, айримлари эса аксинча қучли қисқартиради. Натижада гижжалар ичак деворига ёпиша олмайди ва нажас билан чиқиб кетади. Бир қатор препаратлар гижжалар танасидаги модда алмашинувини бузади ёки уларда наркоз холатини келтириб чиқаради. Яна шундай антигельминтлар борки, улар гижжанинг сиртки қаватини емириб, уларни ичакдаги протеолитик ферментлар таъсирига чидамсиз қилиб қуяди.

Ичакдаги гижжаларни ҳайдаш учун ишлатиладиган воситалар. Одам ичагида яшайдиган икки хил гижжалар маълум-думалок гижжалар-нематодлар (аскарида ва бошқалар) ва ясси гижжалар-цистодлар (кенг лентасимон, қуролланган ва қуролсиз цепень ва бошқалар). Гельментларнинг бошка турлари одамда кам учрайди.

Думалок гижжаларни-нематодларни ичакдан чиқариш учун декарис, вермокс ва пиперазин препаратлари самарали ҳисобланади ва антигельминтларга қуйиладиган талабларга жавоб бера олади.

Декарис юқори самарали ва таъсир доираси кенг препарат ҳисобланади. Препарат бир марта юборилганида гижжаларнинг метаболизм жараёнига таъсир этиб (гликогенолизни сусайтиради), уларнинг мушакларини фалажлайди ва улимига сабаб бўлади. Натижада улар нажас билан чиқиб кетади. Декариснинг бундай таъсири мушаклари туфайли ҳаракатланиб ичак бушлигида яшайдиган гижжаларга (аскарида, энтеробиоз ва бошқалар) нисбатан самаралидир. Ичак шиллик қаватида ёпишиб оладиган гижжаларга (лентасимон, суриб олувчи) таъсир этмайди.

Декарис бир марта берилганда думалок гижжаларни хайдашга каратилган самараси 90-100 % ни ташкил килади. Бундан ташқари, препарат беморга махсус тайёргарликсиз (пархез ва бошқалар) берилади ва ундан кейин сурги дори куллаш зарурияти булмайди. Декариснинг юкори самарали таъсири ва ишлатишда кулайлиги уни антигельминт дорилар орасида биринчи уринга куяди. Препарат иммуно-биологик тизимни яхшилаиди. Шу сабабли декарис иммуностимулятор сифатида ҳам кулланилиши мумкин. Препаратнинг ножуя таъсири кам.

Вермокс препарати гельминтларга (аскаридоз, энтеробиоз ва бошқалар) таъсири ва ишлатилиши буйича декарисга ухшаш.

Шу мақсадда пиперазин адипинат ҳам кенг куламда ишлатилади. Унинг таъсири купрок аскаридозда ва энтеробиозда яхши юзага чиқади. Дорининг таъсири натижасида гельминтларнинг мушаклари фалажланиб, ҳаракатланиш қобиляти йуқолади ва улар нажас билан фалаж ҳолда чиқарилади. Пиперазиннинг наф клиши 90-100 % га етади. Уни беришда пархез қилиш ва сурги дорилар куллаш талаб қилинмайди (қабзиятда сургилар берилса бўлади). Препарат 1-2 мартадан 2 кун давомида буюрилади.

Пиперазин ичакдан тахминан 30 % микдорда сурилади ва метаболизмга учраган, қисман учрамаган ҳолда буйрак орқали пешоб таркибида чиқади. Айрим ҳолатларда нохуш таъсири (қунгил айнаши, қорин оғриги, бош оғриги ва бошқалар) бўлиб туради. Ушбу антигельминтлар гуруҳига нафтамон, пирантел препаратлари ҳам қиради.

Аскаридоз ҳасталигида ичакка қислород юбориш усули билан ҳам даво қилинади.

Ясси гижжаларни (цестодлар) ичакдан хайдаш (кенг лентасимон дифиллобатриоз, қуролланган цепень-тениоз, қуролланмаган цепень-тениаринхоз) ва даво мақсадида фенасал, дихлорофен, эркак папоротник препаратлари ишлатилади.

Фенасал лентасимон гижжаларга таъсир этиб, уларнинг қобигини юмшатади, бунинг натижасида танасини ичакдаги протеолитик ферментлар емиради, паразит мушаклари фалажланади. Дори ичак шиллик пардасини таъсирламайди, кам микдорда сурилади. Шунинг учун ҳам тана учун захарли булмайди ва 80-90 % гижжалардан холи қилади. Фенасалнинг бошқа препаратларга нисбатан (акрихин, дифезил) самараси қучлироқ. Фенасалнинг қамчилиги уни қабул қилиш учун бемор махсус тайёргарлик қуриши шарт эканлигида (қечқурун овқат ейилмайди, чой ва мева шарбатлари берилади, қлизма қилинади). Препарат эрталаб нахорда истеъмол қилинади. Тениозни даволашдан кейин тузли сурги дорилар берилиши шарт.

Дихлорофен ветеринария амалиётида уй ҳайвонларида учрайдиган лентасимон гижжаларни хайдаш учун ишлатилади. Одамда учрайдиган айрим гижжаларга (микрофилярия) ҳам нисбатан яхши таъсир қурсатади. Препаратнинг таъсири натижасида гижжалар ҳалок бўлади. Сурги дори бериш талаб қилинмайди.

Дихлорофен нохуш ҳолатларни қелтириб чиқариши мумкин (тери тошмалари, қунгил айнаши, қайт қилиш, қорин санчиги).

Цестодоз ҳасталигида эркак папоротнигининг қуюқ экстракти ҳам ишлатилади. У цестодоз турқумига қирадиган ҳамма гижжаларга таъсир этиб, уларнинг мушакларини фалажлайди. Меъда-ичак шиллик пардасини таъсирлайди, қисман танага сурилади. Препарат ёгда яхши эригани учун ёгли овқат ейилганда қонга

сурилиб танага захарли таъсир этиши мумкин. (бош айланиши, титрок тутиши, фалажлик, куриш нерви атрофияси ва бошкалар). Шу сабабли эркак папоротнигини беришдан олдин бемор тайёргарлик куриши керак (2 кун давомида ёгли овкат истеъмол килиш таикланади, тузли сурги дори берилади). Нахорга препарат берилиб, тузли сурги дорилар тавсия этилади.

Хозир ушбу усимликдан тоза холда дезаспидин, флавеспидин кислота ва бошкалар олинган булиб, уларнинг лентасимон гижжаларга нисбатан таъсири анча кучли.

Ичакдан ташкарида жойлашадиган гельминтларга карши ишлатиладиган воситалар. Ушбу гурух гижжаларига нематодлар (филярия), трематодлар (жигар ва мушук двугусткаси) киради. Улар лимфа томирларида, жигарда, ут копида, кон томирида жойлашади ва филяриоз, фасциолез хамда бошка хасталикларни келтириб чикаради. Ушбу касалликларга даво килиш анча мураккаб ва куп вақтни талаб килади. Даво максатида асосан, дитразин, хлоксил ва бошка препаратлар ишлатилади.

Дитразин-пиперазиннинг унуми булиб, ичак нематодаларига кучсиз таъсир курсатади, лекин микрофилярийларни кон таркибидан тезликда йукотади. Улар препарат таъсирида фагоцитозланадиган булиб қолади, бунинг оқибатида уларни жигар ретикулоэндотелиал хужайралари емиради. Дитразин меъда-ичакдан яхши сурилади, 3 соат ичида унинг кондаги микдори энг юкори даражага етади. Метаболизмга учраб пешоб таркибида чикиб кетади.

Айрим холатларда дитразин таъсир курсатиб, купрок меъда-ичак фаолиятининг бузилишига олиб келади (кунгил айнаши, кайт килиш, бош огриги). Баъзан аллергия холат хам кузатилади. Дитразин асосан филяриозда ишлатилади.

Хлоксил препарати жигар, ут йули, ут копи ва меъда ости безида буладиган гельминтларга (фасциолез, описторхоз ва клонорхоз) таъсир курсатиб, уларни халок килади. Касалликнинг 35-40 % га бартараф этади. Куп холларда хасталикни анчагина енгиллаштиради. Бундай холларда беморларга даво килиш чораси кайтарилиши мумкин. Препарат меъда-ичак тизимидан ёмон сурилади, унинг аксарият кисми нажас билан чикиб кетади. Конга сурилган препаратнинг бир кисми танада узок муддат (6-28 кунгача) сакланади. Хлоксил тана учун зарарсиз. Айрим холларда унинг таъсирида емирилган гижжалар хисобига, аллергия реакция кузатилиши мумкин. Баъзи бир вақтларда санчик, огрик сезилади.

Юкорида келтирилган препаратдан ташкари гельминтозда гексахлорэтан, тартрат кислотанинг натрийли тузи ва бошкалар ишлатилади. Улар хасталикни бутунлай бартараф эта олмаса хам уни анча енгиллаштиради.

Замбуругларга ва гижжаларга карши моддалар

Микоз (юнонча *mikez*-замбуруг) касалликлари турли замбуруглар келтириб чикаради улар тери, шиллик каватларни ва ички аъзоларни жарохатлайди. Замбуругларга карши микостатик хамда микоцид таъсирга эга моддалар кулланилади. Бу моддалар 3 гурухга булинади: 1. Чукур микозда кулланиладиган моддалар 2.Юза микозда (дерматомикоз) кулланиладиган моддалар 3.Кандидамикозда кулланиладиган моддалар

Замбуругларга карши моддалар.

Кандидам	Дерматомикоз	Чукур микоз
----------	--------------	-------------

ИКОЗ		
Нистатин Леворин Декамин	Гризеофульвин Амиказол Цинкундин -малхам Ундецин-малхам Нитрофунгин -суюк Антисептиклар (иод, борат кис-та,резорцин)	Амфотерицин Сульфаниламидлар Миконазол

Чукур микозларга актиномикоз, бластомикозкокцидиодозлар кириб, амфотерицин замбуруг хужайралари мембранаси утказувчанлигини ошириб юборади. ОИС да яхши сурилмайди,венага юборилади, баъзан бушликларга махаллий кулланилади. Анча захарли,буйрак оркали чиқади. Препарат электролитлар алмашинувини, нейротоксик,нефротоксик, диспептик , аллергия холатларни келтириб чиқаради. Миконазол нисбатан кам захарли.

Юза микозларида тирноқлар (трихофития), соч (микроспория) ҳамда тери замбуруглар билан зарарланганда асосан антибиотиклар кулланилади.

Гризеофульвин дерматомикоз замбуругларининг РНК сини боглаб оксил ҳосил бўлишига тускинлик қилади, яъни фунгистатик таъсир курсатади. Факат замбуругларга таъсир этиб, бошқа вирус ва бактерияларга таъсир курсатмайди. ОИС да яхши сурилади, организмдан секин чиқади, кумулятив таъсирга эга, жигарда метаболизмга учрайди. Буйрак ва ичак оркали чиқиб, малхам сифатида ҳам кулланилади. Бош оғриғи,диспепсия,аллергия чақиради.

Амиказол –фунгистатик,фунгицид таъсирга эга бўлиб, сепма ва малхам сифатида мавжуд. Ундецелен кислота унумлари ценкундан, ундецин, нитрофунгинлар махаллий дерматомикозларни даволашда ишлатилади.

Кетаканазол замбуруглар мембраналарининг ҳосил бўлиши учун зарур эргостерин, триглицерид, фосфолипидларнинг ҳосил бўлишига тускинлик қилиш оркали дерматомикоз, ички аъзолар микозларини даволашда ишлатилади.

Флуконазол (Pfizer фирмаси-дифлюкан) криптококкоз, шилликлар, вагинал кандидозларига микоцид таъсир курсатади. Шунингдек, криптококкли менингитда ҳам самарали, оғиз оркали ва венага юборилади.

Нистатин, леворин кандидамикозларни (кандида замбуруги) даволашда ишлатилиб, улар кандидаларнинг цитоплазматик мембранаси утказувчанлигини бузади. Кандидалар оғиз бушлиғи, ичак,туғри ичак, кин шиллик пардаси,тери ва бошқа аъзоларни жароҳатлайди. Нистатин кам захарли, кандидамикозларнинг олдини олиш мақсадида тетрациклин, левомецитин каби кучли антибиотиклар билан бирга кулланилади. Тетрациклин+ нистатин асосида витациклин таблеткаси (ичишга, малхам) мавжуд. Леворин нистатинга кура захарли ва кучлирок.

Препаратлари:

Вермокс (Vermox). Метил-5-бензил-2 бензимидазол-карбомат. 0, 1 г дан таблетка ҳолида чиқарилади. Буюрилиши: энтеробиозда 0, 1 г дан 1 марта бошқа гижжа хилларида кунига 0, 1 г дан кун давомида.

Декарис (Decaris). 2, 3, 5, 6-тетрагидро-6-фенилимидазо-(2, 1, 6)-тиазол гидрохлорид. 0, 15 г дан таблетка холида чикарилади. Буюрилиши: кечки овкатдан кейин 0, 15 г дан 1 марта ичилади. Болаларга 2, 5 мг хар 1 кг вазнга караб берилади.

Пиперазин адипинат (Piperazini adipinas). Диэтилендиамин адипинат. 0, 2-0, 5 г дан таблетка, 5 % эритма холида флаконда чикарилади. Буюрилиши: аскаридозда овкатдан 1 соат олдин ёки кейин 1 кеча-кундузда 3-4 г дан 2 кун ичилади. Болаларга 5 % эритма холида ёшига караб берилади.

Фенасал (Phenasalum). 1-2 г дан порошок холида чикарилади. Буюрилиши: 2 г дан кунига 1 марта ичилади. Болаларга ёшига караб берилади.

Эркак папоротнигининг куюк экстракти (Extractum Filicis maris spissum). 0, 5 г дан капсулада чикарилади. Буюрилиши: бемор 2 кун тайёрлангандан кейин, кун давомида 4-7 г (тениозда ва дифиллабатриозда) ёки 20-30 дакикада 1, 2-5 г (геминолепидозда) ичилади.

Дитразин цитрат (Ditrazini citras). 1-метил-4-диэтилкарбомиолпиперазин цитрат. 0, 1 г дан таблетка холида чикарилади. Буюрилиши: 1 кеча-кундузда 2 мг/кг дан 3 марта 10 кун давомида ичиш учун буюрилади.

Хлоксил (Chloxylum). Гексахлор-пара-ксилол. Порошок. Буюрилиши: хар 10 дакикада 2 г дан кунига 5-10 г 2-5 кун давомида ичилади.

Антимонил-натрий тартрат (виносурьяно натрийли тузи) (Stibio-Natrium tartaricum). Порошок. Буюрилиши: 0, 001-0, 0012 г/кг дан (1 % эритма) венага юборилади.

АНТИБЛАСТОМ ВОСИТАЛАР

Бластома (неоплазма, рак) деб, хаёт учун хавфли булган, айрим тукималар, хужайраларнинг тухтовсиз булиниши натижасида келиб чикадиган шишларга-патологик узгаришларга айтилади. Бундай усмалар атрофидаги тукималарга илдиз ёйиб (инфильтрация) усади. Улар усиши давомида яра хосил килади, айрим хужайралари лимфа ва кон оркали таркалиб метастаз беради. Танада интоксикация холатини келтириб чикаради, озиб кетиш холлари кузатилади. Бошқача килиб айтганда ушбу усмалар бир тукима ёки аъзо касаллиги булмасдан бутун тана учун хавфли хасталик. Улар куп холларда улимга олиб келади. Хозирги вақтда, жакон согликни саклаш ташкилоти (ВОЗ) маълумотига караганда, ушбу касаллик туфайли улим холлари юрак-кон томир хасталикларидан кейин иккинчи уринда туради.

Бластомага дучор булган беморларни даволаш куйидаги усуллар ёрдамида бажарилади: жаррохлик усули, кимётерапия, нур билан даволаш усули, криоген ва гипертермия усуллари.

Ушбу усуллар ичида жаррохлик йули билан даво килиш, радикал усул хисобланади. Мазкур усулнинг даво самараси касалликни иложи борица эрта аниклашга боглик. Хасталик бошланишидаёк аниклангач, усма жаррохлик йули билан олиб ташланса, бемор бутунлай даво топиши мумкин. Лекин куп холларда ушбу хасталикни бошлангич даврида аниклаш мушкул вазифа хисобланади. Чунки у деярлик узгаришсиз, огриксиз ва бошка белгиларсиз бошланиб, катталашиб боради. Купинча беморлар шикояти касалликнинг 2-3 боскичига тугри келади. Ушбу даврларда эса метастазлар пайдо булади, жаррохлик усулида даволаш хеч кандай наф бермайди.

Кимётерапия бошка усулларга нисбатан бир катор афзалликларга эга. Рак усмаси тукима ва аъзоларда нокулай жойлашган такдирда хам (жигарда, упкада, кон таркибида ва бошкалар) кимётерапия усули кутилган натижаларни бериши мумкин. Лекин шунга карамасдан бу усул куп холларда асосий даво чораси хисобланмайди. Факат бошка усуллар билан (жаррохлик, нур билан даволаш, гипертермия, музлатиш) бирга ёки кетма-кет кулланилса самарали булади.

Бластома хасталигида кимётерапия максатида бериладиган препаратлар таъсир этиши, таъсир механизми ва ишлатилиши буйича хар хил булади.

Улар бластома хужайраларига цитостатик таъсир курсатади, яъни улар таъсирида купчилик усмалар усишдан тухтайди. Препаратларнинг бундай таъсири бластома хилига, жойлашишига, усма даврига ва бошка бир катор сабабларга боглик. Умуман олганда, купчилик кимётерапевтик препаратларнинг таъсир этиш механизми бластоманинг усиш жараёнида буладиган биокимёвий реакцияларга аралашиб уни бузиш, тухтатишга асосланади. Натижада нуклеин кислоталар (РНК, ДНК) янги хужайралар учун зарур булган элементларнинг хосил булиши издан чикади. Бошқача килиб айтганда, препаратлар таъсирида оксилларнинг тузилиши ва фермент синтези тухтайди.

Ушбу кимётерапевтик препаратлар нохуш таъсирларга эга. Масалан, уларнинг цитостатик таъсири доимо булиниб турадиган нормал тукималарга хам каратилади. Шунинг учун тери, шиллик кавати эпителиал хужайралари ва кон ишлаб чиқариш

тукимасининг физиологик регенерацияси тухтайди. Натижада биринчи галда ок кон таначалари-лейкоцитларни ишлаб чиқариш сусаяди, уларни кондаги микдори камайиб кетади. Бу ҳолат ёмон оқибатларга олиб келиши мумкин-тана юкумли касалликлар таъсирига чидамсиз бўлиб қолади.

Бундан ташқари кимётерапевтик хусусиятли дориларнинг купчилиги аллергия ҳолатларни келтириб чиқаради, эндокрин тизимига, меъда-ичак фаолиятига салбий таъсир этиши мумкин. Шунинг учун ҳам мазкур дори препаратлари фақат онколог шифокор томонидан тавсия этилиши ва бемор доимий назоратда бўлиши шарт.

Ҳозирги вақтда қуйидаги кимётерапевтик препаратлар гуруҳи ишлатилади:

I. Алкиллайдиган воситалар:

А. Бис-(β-хлорэтил)-амин ҳосилалари-эмбихин, сарколизин, мелфалан, хлорбутин, циклофосфан, проспидин, допан, лофенал, спиробромин,

Б. Этиленимин ва этилендиамин гуруҳлари сакловчи бирикмалар-тиофосфамид, бензотэф, дипин, ими́фос, гексафосфамид, продимин,

В. Дисульфон кислота эфирлари-миелосан,

Г. Нитрозомочевина ва триазенлар-нитрозометилмочевина, ломустин, кармустин, нимустин, дакарбазин,

II. Антиметаболитлар:

А. Фолат кислота аналоглари-метотрексат,

Б. Пуринлар аналоглари-меркаптопурин, тиогуанин, фопурин,

В. Пиримидин аналоглари-фторурацил, фторафур, цитарабин, флударабин.

III. Ҳар хил кимёвий гуруҳга мансуб синтетик воситалар:

А. Платина препаратлари-цисплатин, платин, карбоплатин,

Б. Бошқа кимёвий гуруҳларнинг препаратлари-прокарбазин, гидроксимочевина, митоксантрон, иринотекан.

IV. Табiiй цитостатиклар-винбластин, винкристин, винорельбин, колхамин, колхицин, 0, 5 % колхамин мази, подофиллин, этопозид, тенипозид, доцетаксел, паклитаксел.

V. Антибиотиклар-дактиномицин, рубомицин гидрохлорид, доксорубицин гидрохлорид, карминомицин, оливомицин, митомицин, блеомицин, брунеомицин.

VI. Ферментлар-L-Аспарагиназа,

VII. Интерферонлар-альдегейкин

VIII. Гормонал ва антигормонал воситалар.

Алкиллайдиган воситалар. Ушбу гуруҳга хлорэтиламинлар (допан, сарколизин, циклофосфан ва бошқалар), этиламинлар (тиофосфамид, тиодипин), нитрозомочевина унумлари (нитрозометилмочевина) ва бошқалар қиради.

